

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2024 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz

www.goldenscripts.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2024 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz

www.goldenscripts.navoiy-uni.uz

BOSH MUHARRIR

Shuhrat Sirojiddinov

BOSH MUHARRIR

O'RINBOSARI

Karomat Mullaxo'jayeva

MAS'UL KOTIB

Ozoda Tojiboyeva

TAHRIR HAY'ATI

Karl Rayxl (Germaniya)
Isa Habibeyli (Ozarbayjon)
Seyhan Tanju (Turkiya)
Almaz Ulvi (Ozarbayjon)
Benedek Peri (Vengriya)
Vahit Turk (Turkiya)
Teymur Kerimli (Ozarbayjon)
Eunkyung Oh (Koreya)
Nazef Shahrani (AQSh)
Boqijon To'xliyev
Muhammadjon Imomnazarov
Bilol Yujel (Turkiya)
Qosimjon Sodiqov
Zulxumor Xolmanova
Mustafa O'ner (Turkiya)
Nurboy Jabborov
G'aybulla Boboyorov
Kimura Satoru (Yaponiya)
Imran Ay (Turkiya)
Aftondil Erkinov
Nadir Mamadli (Ozarbayjon)
Rashid Zohidov
Otabek Jo'raboyev
Bulent Bayram (Turkiya)
Qo'ldosh Pardayev
Nodirbek Jo'raqo'ziyev
Oysara Madaliyeva
Hilola Nazirova

MUNDARIJA

MATNSHUNOSLIK

Oysara Madaliyeva

Alisher Navoiyning 1480-yillar lirikasi tarixiga
nazar ("Devoni jadid" yoki "Navodir un-nihoya"
qo'lyozmalari asosida) 4

Furqat To'xtamuratov

"Gulshani jovid" qo'lyozmalari tadqiqi 40

Parviz Izzatillayev

"Muhokamat ul-lug'atayn" Eron navoiyshunoslari
talqinida 57

ADABIYOTSHUNOSLIK

Tanju Seyhan

Ali Şir Nevâyî'nin *Hired* Redifli 4 Gazeli Üzerine
Görüşler ve Hired Kavramı 72

Kemal Yavuz Ataman

Nevâyî Düşüncesinde Cemiyetin İmarı ve
Nizamı 102

Rıdvan Öztürk

Afganistanlı Şair Âlim Lebib'in Nevaî Şiirlerine
Yazdığı Nazire Gazeller ile Tahmislerin
Dilbilimsel Özellikleri 118

LINGVISTIKA

Samixon Ashirboyev

O'zbek milliy transkripsiyasini yaratish yo'lida 131

Baxtiyor Abdushukurov

Kul tigin bitigtoshidagi ijtimoiy-siyosiy leksika 143

EDITOR IN CHIEF	
Shuhrat Sirojiddinov	
 DEPUTY EDITOR IN CHIEF	
Karomat Mullakhojaeva	
 EXECUTIVE SECRETARY	
Ozoda Tojibaeva	
 EDITORIAL BOARD	
Karl Rechl (Germany)	
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	
Seyhan Tanju (Turkey)	
Almaz Ulvi (Azerbaijan)	
Benedek Peri (Hungary)	
Vahit Turk (Turkey)	
Teymur Kerimli (Azerbaijan)	
Eunkyung Oh (Korea)	
Nazif Shahrani (USA)	
Bakijan Tukhliev	
Mukhammadjan Imomnazarov	
Bilol Yujel (Turkey)	
Kasimjan Sadikov	
Zulkhumor Kholmanova	
Mustafa O'ner (Turkey)	
Nurboy Jabborov	
Gaybullah Babayarov	
Kimura Satoru (Japan)	
Imran Ay (Turkey)	
Aftandil Erkinov	
Nadir Mamadli (Azerbaijan)	
Rashid Zahidov	
Atabek Juraboev	
Bulent Bayram (Turkey)	
Kuldosh Pardaev	
Nodirbek Jurakuziev	
Oysara Madalieva	
Hilola Nazirova	

CONTENTS	
TEXTOTOLOGY	
Oysara Madalieva	
Insights Into the History Of ‘Ali Shīr Navā’ī’s Lyrics of the 1480s (Based on the manuscripts <i>Divāni jadid</i> or <i>Nawādir al-nihāya</i>)	4
Furqat Tukhtamuratov	
Studying the manuscripts of “Gulshani Javid”	40
Parviz Izzatillayev	
"Muhokamat ul-lughatayn" in the interpretation of Iranian Navoi studies	57
 LITERATURE	
Tanju Seyhan	
Opinions on Ali Şir Nevâyî’s 4 Ghazes with Hired Redif and the Concept of Hired	72
Kemal Yavuz Ataman	
Construction and Order of the Society in Nevâyî Thought	102
Rıdvan Öztürk	
Linguistic Characteristics of the Naziraz Ghazals and Tahmis Written by Afghanistan Poet Alim Labib to Nevaî Poems	118
 LINGUISTICS	
Samikhan Ashirbaev	
On the way to creating the Uzbek national transcription	131
Bakhtiyar Abdushukurov	
Socio-political vocabulary in the epitaph of Kul-tigin	143

**MATNSHUNOSLIK
TEXTOLGY****Alisher Navoiyning 1480-yillar lirikasi
tarixiga nazar
("Devoni jadid" yoki "Navodir un-nihoya"
qo'lyozmalari asosida)**Oysara Madaliyeva¹**Abstrakt**

Alisher Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy» devonlar majmuasi uchun yozgan debochasida avvalgi ikki devoni «Badoyi' ul-bidoya» va «Navodir un-nihoya» uchun ham debochalar yozganini ta'kidlagani ma'lumdir. Ammo shu chog'gacha «Navodir un-nihoya»ning debochasi navoiyshunoslikka noma'lum bo'lib, bu masala shoir lirikasi tarixi bilan shug'ullanuvchilarning diqqat markazida turibdi. Shuningdek, mazkur devon nuxsalarining tarkibida shoirning birinchi devoni «Badoyi' ul-bidoya» tarkibidagi bir qancha she'rlarning takrorlanishi masalasi ham mavjud. Keyingi yillarda yuqoridagi ikki holatdan kelib chiqib, «Navodir un-nihoya» nomi berilgan qo'lyozmalar aslida muallifning ma'lum yillar lirikasini o'zida jamlagan terma devonlardan bo'lishi mumkin kabi qarashlar ham o'rta tashlanmoqda.

Mazkur maqolada ikki nodir qo'lyozma (O'zR FASHI: 11675, 1995) misolida mazkur masalalarga yechim topishga harakat qilingan. Tadqiqot muallifi «Navodir un-nihoya»ning Abduljamil kotib nuxsasi hoshiyalari matnida g'azallar kitobatining boshqa qo'lyozma devonlarda kuzatilmaydigan darajada ko'pligi haqida o'zining qarashlarini bayon etgan. Maqolada Alisher Navoiyning 1487–1490-yillarda, xususan, Astrobodda hokimlik chog'i yozgan bo'lishi mumkinligi taxmin etilgan g'azallarni jadval asosida ilk bor taqdim etilmoqda.

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, Sultonali Mashhadiy, Abduljamil kotib, devon, «Navodir un-nihoya», g'azal, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti.*

¹ *Madaliyeva Oysara Rustamovna* – filologiya bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim, O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti.

E-mail: oysara19@gmail.com

ORCID ID: 0009-0008-0932-9570

Iqtibos uchun: Madaliyeva, O. R. 2024. "Alisher Navoiyning 1480-yillar lirikasi tarixiga nazar ("Devoni jadid" yoki "Navodir un-nihoya" qo'lyozmalari asosida)". *Oltin bitiglar* 1: 4 – 39.

Kirish

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy (844–906/1441–1501) devonlari qo‘lyozmalari shoir lirik merosi nuqtayi nazaridan keng tadqiq etilgan [Волин 1946, 203-235; Levend 1958, 127-209; Сулейманов 1955-1961, 415.; Имомназаров 2021, 207; 2017: 6-10; 2022, 510; 2018, 12-17; Максудов 2020, 9-18; Навоий дастхати (Наводир ун-ниҳоя), 1991, 12 б.т.; Салоҳий 2004, 204; Навоий 2015, Турдиалиев, Эркинов 2018, 57-62; 2018, 51-57; 2017, 19-38; (uza.uz); 2017, 54-60; 2016, 152-158; Rashidova 2019, 20-21; Жўрабоев 2016, 32-38; Мадалиева 2021, 679]. Shuningdek, mazkur qo‘lyozmalar kitobat san’ati namunasi sifatida ham o‘rganilgan [Муродов 1971, 58; Сулаймон, 1982: 36; Ҳакимов 1991, 14; Мадраимов 2021, 382; Алишер Навоийнинг Россия Миллий кутубхонаси тўпламларидаги асарлари, 2017, 220-291; Улуç 2006, 531; Улуч 2020, 448].

Alisher Navoiy «Navodir un-nihoya» devonining O‘zR FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondida o‘z davrining ikki mashhur xattoti Sultonali Mashhadiy (836/1432–33–926/1520) va Abduljamil kotib (vaf. XVI a.) tomonidan ko‘chirilgan nodir nusxalari saqlanmoqda [Navoiy, XV–XVI: 205, 1487, 149; Мадалиева 2021, 3-илова: 189-524].

Mazkur maqolada temuriylar davri kitobat ishiga oid yuqoridagi ikki qo‘lyozma devon xususida so‘z boradi, statistik, qiyosiy tahlil metodlariga tayaniladi. Unga jalb etilgan ikki qo‘lyozma devon tarkibi avval ko‘chirilgan qo‘lyozmalar tarkibi bilan qiyoslanadi. Navoiy devonlari qo‘lyozmalari tarkibi, she‘rlar matnidagi shakliy va kompozitsion tafovutlari ushbu tadqiqot yaratilgunga qadar ham qiyoslab o‘rganilgan [Сулаймонов 1960, 773-794; Нагиева 1981/2, 82-90; Навоий 1995, 71; Рамазонов 2003, 439-471; 2006/1, 17-23; 2007/1, 78-89; Салоҳий 2004, 204; 2006/1, 74-78; Юсупова 2018, 69-77; 2021, 101-110 ва бошқ.].

«Navodir un-nihoya» borasida o‘z yechimini kutayotgan ko‘pgina masalalar borligini eslatib o‘tmoqchimiz. Devonning tuzilish sanasi borasida turli versiyalar mavjud. Ba’zi olimlar mazkur devonni 1486-yil tuzilgan deb hisoblashadi [Boltabayev 2022, 24]. Shuningdek, ba’zi tadqiqotlarda esa 1481-82 va 1485–87-yillar «Navodir un-nihoya»ning tartib berilish sanasi sifatida ko‘rsatilgan [Рашидова 2019, 20; Абдуқодиров 2022, 20, 223]. So‘nggi tadqiqotlarga ko‘ra, beshta qo‘lyozma «Navodir un-nihoya»ning nusxalari sifatida ko‘rilmoqda. Bular bilan quyidagi jadvalda tanishish mumkin.

Alisher Navoiy «Navodir un-nihoya» devoni nusxalari

Ko'chirilgan davri	Kotibi	Saqlanish joyi	Katalog va tadqiqotlardagi nomi	Qo'lyozma raqami
893/1487–88	Abduljamil kotib	O'zR FASHI, O'zbekiston	«Navodir un-nihoya»	11675
905/1499–1500	Sultonali Mashhadiy	Metropoliten san'at muzeyi, AQSH	«Devoni Navoiy»/ «Terma devon»	13.228.20 ¹
–	Sultonali Mashhadiy	O'zR FASHI, O'zbekiston	«Navodir un-nihoya»	1995
XV asr	Alisher Navoiy?	Kohi Guliston muzeyi, Eron	«Devoni Navoiy»/ Navoiy dastxati/ «Navodir un-nihoya»	1799
XVII asr	–	TJU, Tojikiston	«G'aroyib us-sig'ar»/ »Navodir un-nihoya»	736

Asosiy qism

Ma'lumki, Navoiy «Xazoyin ul-maoniy»ning debochasida bundan avval ikki devon tartib bergani va ularga ham debocha bitganini yozadi [Навоий 1988, 4-22]. Afsuski, yuqorida «Navodir un-nihoya» nusxalari bo'lishi mumkinligi taxmin qilingan qo'lyozmalarning birortasida debocha mavjud emas. Yana bir qiziq tomoni, ushbu qo'lyozmalarning hech birida devon nomi – «Navodir un-nihoya» ham keltirilmagan. Nusxalardan eng qadimiysi Abduljamil kotib tomonidan ko'chirilgan qo'lyozma devondir [Навоий 1487, 149]. Fanda ilk bora «Navodir un-nihoya» nomi bilan taqdim qilingan Sultonali Mashhadiy qo'lyozmasining ko'chirilish tarixi mavjud emas.

Mashhadiy «Navodir un-nihoya» nusxasi (№ 1995) nasta'liq xatida och sariq rangli ipak qog'ozga ko'chirilgan. Matn ikki ustunda bo'lib, ustunlar va har bir varaq zarhal va ko'k rangli jadvalga olingan. Avvalidagi ikki varaqda zarhal va ko'k ranglar uyg'unligidagi frontispis ishlangan. 29b, 73a, 97a, 114a, 157a 171a-varaqlarda XV asr Hirot miniatyura san'atining oltita nodir namunasi mavjud. Qo'lyozmada sana berilmagan, ammo kolofonda shunday qayd etilgan:

كتبه العبد المذنب سلطان على المشهدى غفر الله له بدال السلطنة هرة برسم خزانة

¹ Bu qo'lyozma hozircha shartli tarzda «Navodir un-nihoya» deb atalmoqda.

(Buni, ya’ni devonni gunohkor banda Sultonali al-Mashhadiy poytaxt shahar – Hirotda Sulton Husayn mirzo xazinasi uchun ko‘chirdi).

Ushbu nusxaning ko‘chirilish sanasi borasida H. Sulaymonov (1910–1979) XV asrning 80-yillarini, M. Hakimov (1935–2001) esa 1475–1480-yillar orasini qayd etganlar [Хакимов 1991, 11]. Bizningcha, olimlar «Navodir un-nihoya»ning tuzilgan sanasidan kelib chiqib, shunday taxminga borgan bo‘lishsa kerak.

Har holda, qo‘lyozma taxminan 1506-yildan avval, ya’ni Sulton Husayn (h. y. 1469–1506) vafotiga qadar ko‘chirilgan. Boisi, devonni yakunlab beruvchi kolofonda nusxaning Sulton Husayn Boyqaro saroy kutubxonasi uchun Hirotda kitobat qilingani haqida qaydlar mavjud [Навоий XV–XVI, 2056]. Shuningdek, uning tarkibida qo‘lyozma devon shoir “Xamsa”ni tugallagach, kitobat qilinganini dalillovchi bayt bor. Nusxaning 5-g‘azali 6-baytiga diqqat qiling [Навоий, XV–XVI, 3a]:

بولماغای ایردی میسرِ خمسه یعنی پنج کنج

قیلماسه ایردی مدد حالیمغه بیش آل عبا¹

Bo‘limg‘ay erdi muyassar “Xamsa”, ya’ni panj ganj

Qilmasa erdi madad holimg‘a besh Oli abo.

Devon quyidagi g‘azal bilan boshlanadi:

زهی ظهور جمالینک قویاش کیبی پیدا

Zihi zuḥurī jamālīn quyaš kibi paydā,

Yüzün quyaşığa zarrāt-i kavṇ olup şaydā. یوزونک قویاشیغه ذرات کون اولوب شیدا

Yakuni shunday:

Yā rab, ul šahd-u šakar, yā labdurur, یارب اول شهد و شکر یالبدورور

Yā magar šahd-u šakar yalabdurur یا مگر شهد و شکر یالبدورور

Jānima payvasta nāvāk atqalī جانمه پیوسته ناذک التغالی

Ġamza oqīn qašīğa yālabdurur غمزه اوقین قاشیغه یالبدورور

Qizig‘i shundaki, Alisher Navoiy «Mukammal asarlar to‘p-lami»ning «Navodir un-nihoya» nashriga jami 862 ta g‘azal janridagi she‘rlar kiritilgan, yuqoridagi tuyuq va qo‘lyozma devonda ko‘chirilgan boshqa janrdagi she‘rlar nashrda uchramaydi [Qarang: Navoiy 1987, 622]. Mashhadiy qo‘lyozmasi g‘azal (1b–185a), mustazod (186b–188a), tarji‘band (188a–198b), qit‘a (198b–199b),

¹ “Navodir un-nihoya” nashrida oliy abo tarzida xato berilgan. Sababi bu o‘rinda Oli abo. Oli nabi deganda, Payg‘ambar oilasi: Muhammad payg‘ambar, uning qizi Fotima, kuyovi hazrat Ali, uning o‘g‘illari Hasan va Husan ko‘zda tutiladi. Oliy (عالی) va ol (آل) so‘zlari imlosi arab yozuvida farq qiladi. [Qarang: HAJI, ۴۸۱–۴۸۲]

ruboiy (199b–204a), lugʻz (204b–205a) va tuyuq (205a) kabi sheʼriy janrlardan tarkib topgan.

Ushbu devon «Sobraniye vostochnix rukopisey» katalogining ikkinchi tomida «Navodir ush-shabob» nomi ostida tavsif qilingan [CBP II., 1954, 224 (оп. № 1289)]. Devonning birinchi gʻazali «Navodir ush-shabob»ning birinchi gʻazali bilan bir xil ekani tavsif muallifini chalgʻitgan koʻrinadi. Ushbu xatoni dastlab H.Sulaymonov tuzatgan.

Qoʻlyozmaning muqovasi kartondan ishlangan, toʻq qizil rangda. Nusxa 205 varaqdan iborat, oʻlchami 25x16,5.

“Navodiru-n-nihoya”ning Abduljamil kotib koʻchirgan nusxasi (№11675) XV asr Hirot kitobat sanʼatining nodir namunalaridan biridir. Qoʻlyozma 893/1487–1488 yilda koʻrkam nastaʼliq xatida ipak qogʻozga koʻchirilgan. Matn tevaragini zarhal va koʻk rangli jadvallar oʻrab olgan, shuningdek, har bir varaq atrofiga zarhal va koʻk rangli hoshiya tortilgan.

Qoʻlyozma kartondan ishlanib, laklangan sirtida shamsa va lola tasviri tushirilgan yashil muqova ichiga jildlangan. Muqova-soz – (ملا محمد عسى صحاف) Mullo Muhammadiso sahhof. Qoʻlyozma 149 varaqdan iborat, bichimi – 25x16,5 sm.

Faqat gʻazallardan iborat “Navodiru-n-nihoya”ning mazkur nusxasi basmaladan soʻng muallif gʻazali matlasi quyidagicha:

زهی ظهور جمالینک قویاش کیبی پیدا
یوزونک قویاشیغه ذرات کون اولوب شیدا

Nusxaning yakuni shunday:

ای نوایی انی ترک ایلا که کوپتور غم عشق
من که چیکتیم غمی نی ترک نی امکان ایمدی.

Qoʻlyozma devonning kolofoni shunday:

تم بعون الله الملك المجید توکاندی دیوان جدید حرره عبد الجمیل غفر الله و
لمن قراء و لمن سیب امسی یا رب العالمین فی شهور سنه ثلث و تسعن وثمانمائه.

Al-Maliku-l-Majid Alloh yordami bilan yangi devon tugadi. Uni Abduljamil koʻchirdi (tahrir qildi). Oʻqiganni va tunni qoldirganni Alloh magʻfirat qilsin. Ey olamlarning Rabbisi, oylarda 893-yilda.

11675 raqamli qoʻlyozmaning narzas varagʻida A. Nosirovning (1900–1986) 1967-yil 23 oktabrda yozib qoldirgan qaydlari mavjud. Unda mazkur qoʻlyozma devon haqida P. Shamsiyev va Y. Isʼhoqov tomonidan «Sovet Oʻzbekistoni» gazetasida (2.12.1966) chop etilgan maqola borligi haqida soʻz boshlanadi. Olim ushbu maqola chop etilgan gazetani oʻzining «Navoiyga oid

manbalar» nomli daftariga yopishtirib qo‘yganini eslatadi.

Shuningdek, A. Nosirovning ta’kidlashiga ko‘ra, ushbu qo‘lyozma XX asr boshlarida Toshkentning Shayhontohur dahasi qozisi bo‘lgan mashhur Sharif Xo‘janing (vaf. XX asr) nevarasi Musharrafxon Ma’rufxon o‘g‘lining bisotidan topilgan va 1966-yil 31-oktyabrda 500 so‘mga [FASHI fondiga] sotilgan. A.Nosirov 1967-yilning 20-oktyabrida Musharrafxonning uyida bo‘lib, u bilan suhbatlashish chog‘ida shu ma’lumotlarni eshitgani va ularni shu yerda qayd etganini ma’lum qilgan.

Yuqoridagilardan anglashiladiki, H. Sulaymonov doktorlik dissertatsiyasi yozilgan davrda (1955–61) «Navodir un-nihoya»ning Abduljamil kotib tomonidan ko‘chirilgan nusxasi fanga ma’lum bo‘lmagan.

H. Sulaymon Sultonali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan 1995 raqamli qo‘lyozmaning (O‘zR FASHI asosiy fondi) «Navodir un-nihoya»ning nusxasi ekaniga quyidagi dalillarni keltirgan:

1. «Navoiy «Xazoyin ul-maoniy»ning debochasida ikkinchi devoni «Navodir un-nihoya»ni tuzgani va unga debocha bitganini ma’lum qiladi. Ammo biz «Navodir un-nihoya»ning nusxasi sifatida keltirayotganimiz 1995 da bu debocha mavjud emas. Buni nusxaning kotibi Sultonali Mashhadiy uchun qo‘lyozma asarning to‘liqligi emas, uning kalligrafik xususiyatlari afzal bo‘lgani, Mashhadiyning asosiy maqsadi o‘zining usta xattot ekanini namoyon etish va durdona nusxa yaratish bo‘lgan. Masalan, Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan to‘rtta terma devon nusxasining¹ birortasida debocha berilmagan va muallif prinsiplari mutlaqo saqlab qolinmagan. Shuning uchun, ikkinchi devonda Mashhadiyning debochani tushirib qoldirgani tabiiydir.

Debocha qoldirib ketilganiga qaramay, qo‘lyozma bizning bu masaladagi tezisimizni to‘lig‘icha asoslaydi. 1995 raqamli qo‘lyozmada jami 693 ta she’r mavjud. Ulardan 563 tasi mutlaqo yangi bo‘lib, biz ularni shoirning birinchi devonida uchratmaymiz. 130 ta she’r esa bizga noma’lum sababga ko‘ra bu yerda takrorlangan. 563 ta she’r shoirning «Navodir un-nihoya» deb nomlangan devonini tuzish uchun aynan asos bo‘lgan».

2. «Bu o‘rinda ikkinchi bir savol paydo bo‘lishi mumkin: qo‘lyozmada sananing mavjud emasligi bizning dalillarimizni shubha ostiga qo‘yishi mumkinmi? Axir Mashhadiy bir martagina

¹ H. Sulaymon bunda quyidagi qo‘lyozma devonlarni nazarda tutgan bo‘lsa kerak. № 564 (Rossiya milliy kutubxonasi qo‘lyozmalar bo‘limi); № 3984, 790 – O‘zRFASHI asosiy fondi; № 13.228.20 (Metropolitan san’at muzeyi),

terma devon tuzmadi, ehtimol, bu qo'lyozma ham «Xazoyin ul-maoniy» she'rlaridan olib tuzilgan terma devonlardan farq qilmas? (Nyu-York №21 qo'lyozmaga qarang). Bu savolga bitta javob qilish mumkin: №1995 qo'lyozma «Xazoyin ul-maoniy»ning saylanmasi emas, u XV asrning 80-yillarigacha, ya'ni «Xazoyin ul-maoniy» tuzilgungacha tartib berilgan devondir. 1995 raqamli nusxa tarkibidagi she'rlarning tartibi va ularning «Xazoyin ul-maoniy»ga taqsimlanishi ushbu fikrimizni isbotlashga xizmat qiladi. Alohida guruh g'azallarning ushbu ketma-ketligi quyidagi shaklda saqlangan. «Xazoyin ul-maoniy» lirik kulliyotini tuzishdan avval shoir o'zining butun lirikasini bir joyga jamlagan, shuningdek, «Navodir un-nihoya» devonini ham g'oyaviy-badiiy xususiyatlari va mavzusiga ko'ra alifbo tartibida to'rt davrga (shoirning yoshga ko'ra taqsimotini nazarda tutaymiz – bolalik, yigitlik, o'rta yosh va keksalik) to'rt devonga taqsimlagan».

Shundan so'ng H. Sulaymon «Xazoyin ul-maoniy»da g'azallarining alifbo tartibida kelishiga tushuntirish berib ketadi. Va fikrida davom etadi. «Shunday qilib, «Xazoyin ul-maoniy»ning har bir devoniga u yoki bu harfga yakunlanuvchi g'azallarni 4 ta manba: a) 564 raqamli «Ilk devon», b) «Badoyi' ul-bidoya» devoni, v) «Navodir un-nihoya» devoni g) shoirning so'nggi yillarda to'planib qolgan, ammo hech qaysi devonga kiritilmagan she'rlaridan olib, joylab chiqadi. Buning uchun shoir bir manbadan bir xil harfga yakunlanadigan ikki-uch she'rni oladi va «Xazoyin ul-maoniy» devonlariga taqsimlaydi. Xuddi shu holatni «Navodir un-nihoya» bo'yicha ham ko'rish mumkin bo'ladi. 2- jadvaldan ayon bo'ladiki, 1995 raqamli qo'lyozmadan ketma-ket uch, ba'zan to'rt g'azal olinadi va «Xazoyin ul-maoniy»ning to'rt devoni o'rtasida taqsimlanadi. Shu holatning o'zi 1995 raqamli Toshkent nusxasi «Navodir un-nihoya»ning muallif variantidagi qo'lyozmasi ekanini shubhasiz isbotlaydi» [Сулейманов 1955–61, 73–75].

3. «Shuningdek, yana bir haqiqatga diqqat qaratish kerak bo'ladi: birinchi devon «Badoyi' ul-bidoya» hech istisnosiz barcha terma devonlarning qo'lyozmalari va shoirning o'zbek tilidagi barcha to'plamlarining ilk g'azali mashhur falsafiy she'r

اشرقت من عكس شمس الكأس انوار ألهدى
يار عكسين مي دا كور ديب جام دين چقتى صدا

bilan boshlanadi. «Navodir un-nihoya» esa shoir tomonidan «Navodir ush-shabob»ga birinchi g'azal sifatida joylangan

زهی ظهور جمالینک قویاش کییی پیدا
یوزونک قویاشیغه ذرات کون اولوب شیدا

g'azali bilan boshlanadi. Ushbu holatga oid tarzda «Navodir un-nihoya» she'rlarining yarmidan ko'pi «Navodir ush-shabob»ga, yarmidan kamrog'i «Xazoyin ul-maoniy»ning boshqa devonlariga joylangan. Shu bilan birga yana bir qiziq holat 1995 raqamli qo'lyozmaning 25, 38, 267-g'azallari noma'lum sababga ko'ra «Xazoyin ul-maoniy» she'rlari tarkibiga qo'shilmasdan chetda qolgan. Bu albatta, mantiqiy va xronologik jihatdan oqlanadi. «Navodir un-nihoya»ning «Navodir ush-shabob»dan boshqa devonlarga o'xshamagan tarzda farqli g'azal bilan boshlanishi esa 1995 raqamli qo'lyozmaning ikkinchi devondan boshqasi emasligini qayta ta'kidlash lozim bo'lgan muhim omillardir.

1. «Va nihoyat, bizning 1995 raqamli qo'lyozma haqidagi dalillarimizni qo'llab-quvvatlovchi fakt: 185a varaqda g'azallarning tugash qismida Sulton Ali Mashhadiy quyidagi yakunni yozadi:

بعون الله الملك المجيد توكاندى ديوان جديد

Mazkur misralardagi muhim ma'no ifodalovchi so'zlar *devoni jadid/* (ديوان جديد) *yangi devondir*. Biz aminmizki, mavlono Sulton Ali shoirning ikkinchi yangi devoni «Navodir un-nihoya»ning kitobatini yakuniga yetkazgani haqidagi ma'noni ifoda etgan. Bu esa 1995 raqamli nusxaning «Navodir un-nihoya»ligiga salmoqli isbotlardan biri sifatida o'rta chiqadi.

Aytish mumkinki, Navoiyning hozirgacha fanda noma'lum bo'lgan ikki devonining aniqlanishi (bunda olim «Badoyi' ul-bidoya» va «Navodir un-nihoya» devonlarini nazarda tutmoqda – O. M.) shoirning ijodiy faoliyati haqidagi bilimlarimizni boyitibgina qolmay, balki shoir ijodini o'rganishda ham, uning merosini matnshunoslik jihatdan tadqiq qilishda ham ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan beqiyos ahamiyatga egadir» [Сулейманов 1955–61, 76].

Natijalar va muhokama

1987-yil «Navodir un-nihoya»ning tabdil matni chop qilindi [Навоий 1987, 622]. Unga «Abduljamil kotib nusxasi asos qilib olindi. ... Sulton Ali Mashhadiy tomonidan Hirotda ko'chirilgan 1995 inv. raqamli ikkinchi bir nusxaga solishtirilib, to'ldirildi» [Навоий 1987, 2].

1991-yil «Navodir un-nihoya» devonning dastxat nusxasi sifatida faksimile nashr e'lon qilindi [Навоий дастхати, 1991, 12 б.т]. 2020-yil ushbu devonning qadimiy yana bir nusxasi mavjudligi haqida ma'lum qilindi [Максудов 2020, 9-18]. Shuningdek, 2020-yil Sultonali Mashhadiy tomonidan 1500-

yil ko'chirilgan qo'lyozma «Navodir un-nihoya» nusxasi bo'lishi mumkinligi haqidagi farazdan iborat tezis e'lon etildi [Эркинов, Мадалиева 2020, 19-21]. Ta'kidlash joizki, «Navodir un-nihoya» devoni qo'lyozmalari bo'lishi mumkinligi taxmin etilgan nusxalar avval ma'lum bo'lganlarining matni bilan qiyosiy tarzda o'rganilishi masalasi navoiyshunoslik oldida turgan muhim vazifalar sirasiga kiradi. Ushbu masala bilan jiddiyroq shug'ullanishimiz natijasida e'tiborimizni tortgan ba'zi muhim jihatlar quyidagilarda aks etadi.

Gap shundaki, Navoiy terma devonlaridan katta qismi "Badoyi' ul-bidoya" va "G'aroyib us-sig'ar" devonlarining birinchi g'azali "Ashraquat ..." bilan boshlanadi. Ma'lumki, "Badoyi' ul-bidoya"ning she'rlarining asosiy qismi "G'aroyib us-sig'ar"ga, "Navodir un-nihoya" she'rlarining asosiy qismi esa "Navodir ush-shabob"ga o'tgan. Navoiy she'rlaridan saralab tuzilgan terma devonlarning katta qismi esa "G'aroyib us-sig'ar" tarkibiga yaqin turadi. Har ikki qo'lyozmaning ko'chiruvchisi Sultonali Mashhadiy 1995-raqamli "Navodir un-nihoya" va Metropoliten nusxalarining tarkibidan o'rin olgan g'azallarning bir qismi va boshqa janrdagi she'rlarning deyarli hammasi "Badoyi' ul-bidoya"dan o'tgan. Bu esa ushbu ikki nusxaning "Terma devon" bo'lishi mumkinligini ham anglata oladi.

Faqat masalaning boshqa tomoni ham mavjud. Terma devonlar orasida "Zihi ..." bilan boshlanadigan va tarkib jihatidan "G'aroyib us-sig'ar"ga emas, "Navodir ush-shabob"ga yaqinlari juda kam. Nega Navoiy she'rlaridan terma devon tuzishda Sultonali Mashhadiyga ergashish, ya'ni "Zihi ..." bilan boshlash yoki devonning tarkibini "Navodir ush-shabob"ga yaqinroq qilib tuzish an'anaga aylanmadi? Hatto, XVI asr xattotlarining ko'pchiligi Mashhadiyga o'xshashga intilishi kuchli, uning maktabi davom etayotgan bir davr bo'lsa-da? Hozircha biz aynan shu davrda ko'chirilgan o'nlab terma devonlar orasida tarkibi "Navodir ush-shabob" devoniga yaqin birorta qo'lyozmani uchratmadik.

Mashhadiy – 1995-raqamli qo'lyozmasida deyarli har bir janrdagi she'rlarning yakunida alohida kolofonlar mavjud. Uning birinchi va so'nggi g'azali Abduljamil kotib – 11675 qo'lyozmasi bilan bir xil ekanidan tashqari yaqinlashtiradigan yana bir jihati aynan g'azallarning tugash qismida Abduljamil kotib – 11675ning kolofon matni keltirilgan [Navoiy XV-XVI, 205a.; 1487, 149b]:

بعون الله الملك المجيد توكاندى ديوان جديد

Alisher Navoiy asarlari qo'lyozmalari kolofonlari matnining tadqiqi ularning shoir tirikligi chog'ida ko'proq turkiy tilda

yoʻzilganini ko'rsatdi [Мадалиева 2021, 679]. Ammo Sultonali Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan Navoiy asarlari qo'lyozmalari orasida turkiy kolofon bitilgan yagona nusxa aynan 1995-raqamli "Navodir un-nihoya" devonidir. Bu esa ehtimol, mazkur qo'lyozmani ko'chirishda Mashhadiyga Abduljamil kotib nusxasi asos bo'lgan, shuning uchun kolofon matnini yozishda ham ushbu manbaga ergashilgan bo'lishi mumkinligiga ishora qiladi.

H. Sulaymon 1995-raqamli nusxa tarkibi haqida quyidagicha ma'lumot beradi. 693 ta she'r mavjud: 1) 628 ta g'azal¹, 2) 3 ta mustazod, 3) 3 ta tarji'band, 4) 5 ta qit'a, 5) 46 ta ruboiy, 6) 1 ta chiston, 7) 6 ta muammo, 8) 1 ta tuyuq. Shundan 103 tasi yoshlik lirikasidan (№ 564), 130 tasi yigitlik lirikasidan (№ 746) olingan. Birinchi va ikkinchi davr lirikasi ayirib tashlanganda qolgan 460 ta she'r birinchi va ikkinchi davrning she'rlari orasida uchramaydi. Ushbu she'rlar «Badoyi' ul-bidoya»dan keyin va «Xazoyin ul-maoniy» tuzila boshlagunga qadar, ya'ni 897/1491–92-yilgacha yozilgandir [Сулейманов, 1955–61: 142–143]. Mana shu 460 ta she'r biz o'rta yosh lirikasi deb nomlaganimiz shoir lirikasining uchinchi davrini tashkil etadi [Сулейманов 1955–61, 143]. Mazkur tekshiruvni Abduljamil nusxasi asosida yana bir bor ko'rib chiqish kerak bo'ladi. Shuningdek, yangi aniqlangan qo'lyozmalar tarkibi hisobiga ushbu raqam yana o'zgarishi mumkin. Sababi «Oqqo'yunli muxlislar devoni», «Badoyi' ul-bidoya»ning yangi aniqlangan 5- va 6- qo'lyozmalari 1995 dan avval ko'chirilgan.

11675 da jami 812 ta g'azal bor, shulardan 201 tasi qo'lyozma varaqlarining hoshiyasiga ko'chirilgan. Noma'lum sababga ko'ra, MAT 2-tomida esa 840 ta deb ma'lumot berilgan [Навоий 1987, 2]. Ehtimol, nashrga tayyorlovchilar takror g'azallarni ham hisobga olgan bo'lishi mumkin, ammo shunda ham ularning hisobi 10 ta g'azalga ko'plik qilmoqda. Sababi hoshiya g'azallaridan 13 tasi takroran ko'chirilgan.

11675 raqamli qo'lyozma g'azallaridan 217 tasi 1995 raqamli qo'lyozmada mavjud emas. Ushbu g'azallarning 132 tasi nusxaning hoshiyasida ko'chirilgan. Ularning Navoiy yoshlik lirikasidan qaytarilgan bo'lishi mumkinligi ehtimolini tekshirib ko'rdik. Natijada, 23 ta g'azalning "Ilk devon"dan, 20 tasining

¹ H. Sulaymon hoshiya g'azallarini hisobga olmagan shekilli, bizda 644 ta g'azal chiqdi. 24- ("O'tg'a solg'il sarvni ul qaddi mavzun bo'lmasa") va 91-g'azallarni ("Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg'a ayt") H. Sulaymon dissertatsiyasi jadvalidan tekshirib ko'rildi, mavjud emasligi ayon bo'ldi, sababi ushbu hoshiya g'azallarning boshqa xatda ko'chirilganida bo'lsa kerak. Katta ehtimol bilan ularning kotibi Sultonali Mashhadiy emas.

“Badoyi’ ul-bidoya” devonidan olingani ma’lum bo’ldi. Ushbu 43 g’azaldan 5 tasi ham “Ilk devon”, ham “Badoyi’ ul-bidoya” tarkibida mavjudligi ayon bo’ldi. Natijada, mazkur 217 ta g’azalning atigi 38 tasi Navoiyning birinchi va ikkinchi davr lirikasiga oidligi o’rtaga chiqdi. Shu tariqa, «Navodir un-nihoya» Abduljamil qo’lyozmasida Navoiyning «Badoyi’ ul-bidoya» tuzilgandan to 1487–90-yilgacha yozgan 179 ta g’azali kitobat qilingani, shu tariqa shoir o’rta yosh lirikasi soni 639 taga yetganini ta’kidlash mumkin [2-ilovaga qarang].

1995 raqamli qo’lyozma g’azallaridan 51 tasi 11675 raqamli qo’lyozmada mavjud emas. Bu g’azallarning 11 tasi hoshiyada ko’chirilgan. Ulardan 6 ta g’azalning «Ilk devon», 5 tasining «Badoyi’ ul-bidoya» va 1 g’azalning «Oqqo’yunli muxlislar devoni» tarkibida ham mavjudligi, shu tariqa, jami 12 ta g’azalning aslida Navoiy yoshlik lirikasi mahsuli ekanini o’rtaga chiqaradi. Qolgan 39 g’azalning esa 1487-yildan so’ng to «Xazoyin ul-maoniy» tuzilgunga qadar yozilgan she’rlar ekanini taxmin etish mumkin [1-ilovaga qarang].

Shuningdek, «Dilbaro, sendin bu g’amkim menda bordur, kimda bor?» va «Yana sensizin munisim g’am bo’lubtur» misrali g’azallar nashrda mavjud, ammo 11675 va 1995 raqamli qo’lyozmalarning tarkibidan topilmadi. Nashrga tayyorlovchilar esa mazkur g’azallarning manbasi borasida hech qanday izoh qoldirishmagan.

Shu tariqa, H. Sulaymon tadqiqoti natijasida aniqlangan Navoiy o’rta yosh lirikasi 460 ta g’azalning soni yana 179 taga ortdi. Demak, shoirning hozirgacha ma’lum g’azallaridan 639 tasi aynan 1480-yillarda yozilgan deb aytish mumkin.

Shuningdek, garchi bu ikki qo’lyozma she’rlari orasida tafovutlar mavjud bo’lsa-da, katta ehtimol bilan Abduljamil nusxasi Mashhadiy qo’lyozmasi uchun tayanch manba bo’lgan deyish mumkin. Yuqorida bu fikrimizga har ikki nusxadagi g’azallar yakunida kelgan kolofon matnini asos qilgan edik.

Shu bilan birga ushbu ikki nusxaning tarkib jihatida ham mazkur farazimizni mustahkamlaydigan dalillar mavjuddek ko’rinmoqda. Biz qo’lyozmalarning tarkibini to’liq va qulay usulda qiyoslash uchun ularning she’rlari matla’laridan iborat jadval tuzdik. Jadvalni ishimiz oson kechishi uchun dastlab MATning 2-tomi asosida shakllantirdik. Bir jihatdan, bu usulimiz qo’lyozmalar va nashr orasidagi tafovutlarni ham o’rtaga chiqarishini istadik. Natijada Abduljamil kotib qo’lyozmasining shin harfiga

yakunlanuvchi g'azallar qismigacha hoshiyadagi she'rlar ham alifbo tartibiga muvofiq tarzda Sultonali Mashhadiy nusxasida asosiy matnda keladi. So'ngra Abduljamil nusxasidagi hoshiya g'azallari Sultonali qo'lyozmasida deyarli tushirib qoldirilgan. Mashhadiyda asosiy matnga ko'chgan 321-tartib raqamdagi so'nggi hoshiya g'azali Abduljamil nusxasida 328-g'azal hisoblanadi¹. Anglashilganidek, mana shu qismigacha ikki nusxa orasidagi tafovut bor-yo'g'i 7 ta g'azalga farqlidir. Ushbu qo'lyozma devonlar orasidagi katta farq aynan mana shu g'azaldan so'ng boshlangani ayon bo'ldi.

Shuningdek, Abduljamil qo'lyozmasida ba'zi chala holda ko'chirilgan g'azallar Mashhadiy nusxasida ham xuddi shu holda turibdi. Masalan, Abduljamil nusxasi hoshiyasida keluvchi quyidagi matla Mashhadiy qo'lyozmasida asosiy matnga ko'chgan [Qarang: Navoiy, 1487, 7b hoshiya; Navoiy, XV-XVI, 9b],

قصد اوچون تانک یوق حسد دین قویسا لار ایل یوز منکا
یاردین بو نوع کیم قاصد کیلور یالغوز منکا

Ammo ushbu matlanning davomi har ikki nusxada mavjud emas. Aftidan, Sultonali Mashhadiy uni Abduljamil kotib nusxasidan ko'chirgan, qolgan qismini esa boshqa manbadan olib yozib qo'yishni rejalashtirgan-u, keyinchalik unutib qo'ygan. Biz mazkur matla bilan boshlanuvchi g'azalni nashrlardan ham topa olmadik.

MAT 2-jildida Abduljamil nusxasi asos qilingani ta'kidlangan. Bunda matnni nashrga tayyorlovchilar asosiy matn g'azali va hoshiya g'azallarini taqdim etishda zamonaviy fikrlashgan, ya'ni ular uchun asosiy matndagi g'azal bosh planda, hoshiya g'azallari esa ikkinchi darajali she'rga aylangan. Bu prinsip natijasida ikkita bir xil qofiya yoki radifli she'rlar ketma-ketligi buzilgan, ularning orasiga boshqa radifli g'azal oralab qolgan va o'rta asrlar devonchilik an'anasiga putur yetgan. Sultonali Mashhadiy esa o'rta asr kishisi sifatida hoshiya g'azallarini asosiy matnga ko'chirishda ularning qofiya va radiflariga diqqat qilgan. O'rnaklarga e'tibor bering:

¹ Ushbu g'azalning matlasi shunday: می که لعلیدین تامیزدی اول نکار بادمنوش
کوییا جان تاپقانیدین توشتی تو فراغ ایجره جوش.

**G'azallarning MAT 2-jildi NN nashridagi
ketma-ketligi**

№11675

№1995

Jud emas ko'p bazl uchun ko'p mol qilmog'lig' havas.	272/53b-	261/
Kim erur ko'pdin-ko'p, ozdin-oz oni bil jud-u bas.	54a/9 ¹	75ab/8
Bog' aro ne sarv etarmen orzu ne gul havas,	273/	262/
Dahr bog'ida manga ul sarvi gulruxsor bas.	54a/7	75b/7
Jong'a la'ling mayi jomidur multamas,	274/	264/
Ne Xizr suyi, ne jomi Jamdir havas.	54ab/7	76ab/7
Ko'yi toshi boshima hayf aylasam uyqu havas,	275	263/
It uyur bo'lsa ayog', ilgi boshin qo'ymoqqa bas.	54 a	76a/7
	hoshiya/ 6,5	

Shuningdek, Abduljamil nusxasida 7b varaq hoshiyasida kelgan

قصدا چون تانك يوق حسد دين قويسا لار منكا

misrali g'azalning matla'si mavjud. Mashhadiy qo'lyozmasida ushbu matla' asosiy matnda ko'chirilgan, ammo g'azalning davomi uchun bo'sh joy qoldirilgan. Ehtimol, Mashhadiy g'azalning qolgan qismini boshqa manbadan olib ko'chirmoqchi bo'lgan, biroq unutilgan bo'lishi mumkin. Nashrda esa mazkur g'azal yo'q.

Abduljamil kotib qo'lyozmasi qoralamaga o'xshab tuyuladi. Sababi Navoiy devonlarining hozirgacha bizga ma'lum bo'lgan qo'lyozmalari orasida hoshiya qismida 200 dan ortiq she'r (214 ta, 13 tasi takrorlangan) ko'chirilgan nusxa aynan shu manbadir. Abduljamil nusxasi "Navodir un-nihoya"ning dastlabki varianti bo'lishi ehtimolini "Xazoyin ul-maoniy"dan olingan quyidagi qaydlar ham dalillashi mumkin.

Shu o'rinda diqqat qaratilishi lozim bo'lgan yana bir jihat mavjud. Hijriy 893-yil milodiy hisobda 1487-yil 25-dekabrda 1488-yil 13-dekabrgacha bo'lgan muddatga to'g'ri keladi. Manbalarga ko'ra, Husayn Boyqaro 1487-yilning qishini Marvda o'tkazgan, Navoiy ham uning yonida bo'lgan. 1487-yil 15-oktabrida esa Navoiy Astrobodga hokim etib tayinlangan [Турсунов 2023, 17, 36]. Shu tariqa Navoiy bir yarim yil davomida Astrobodda yashagan [Сирожиiddинов 2023, 120-133]. Uning Astrobodda hokimlik chog'i shaxsiy kotibi Abduljamilning yonida bo'lgan-bo'lmagani ma'lum emas. Xondamirning xabar berishicha, "Navoiy saroy mulozimlaridan Amir Bobo Ali va Amir Badriddinni hamroh qilib Astrobodga jo'nadi" [Сирожиiddинов 2023, 120]. Shu taqdirda katta

² Bu o'rinda birinchi raqam g'azallarning qo'lyozmadagi tartib raqamini, ikkinchi raqam qo'lyozma varag'ini, uchinchi raqam esa necha baytdan iborat ekanini anglatadi.

ehtimol bilan Abduljamil kotib Navoiy devonini Hirotida kitobat qilgan va bu muddat ichida shoirning o‘zi Astrobodda bo‘lgan.

Shuning uchun, hoshiyada kelgan g‘azallarning aksariyati bevosita Astrobodda ijod qilingan namunalar bo‘lishi va Navoiy Hirotga qaytgach, Abduljamil kotib ularni nusxaning hoshiyalariga kitobat qilgan bo‘lishi mumkin. 11675 raqamli nusxaning 1995-raqamli qo‘lyozmada mavjud bo‘lmagan 132 ta hoshiya g‘azalidan 12 tasi «Ilk devon»da, faqat bittasigina «Badoyi’ ul-bidoya»da mavjud (Qarang: № 1 ilova). Demak, ushbu 132 she‘rdan faqat 13 tasigina o‘smirlik va bolalik, qolganlari esa o‘rta yosh lirikasi bosqichiga oiddir. Ushbu ko‘rsatkich va hoshiya g‘azallaridan birining mazmuni bizning 11675 hoshiyasidagi she‘rlarni Abduljamil kotib Navoiy Astroboddan qaytgach ko‘chirib qo‘ygan degan farazimizning isboti bo‘lishi mumkin. Fikrimizning dalili bo‘lishi mumkin bo‘lgan she‘r Navoiyning:

*Kimki bir ko‘ngli buzug‘ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka‘ba vayron bo‘lsa obod aylagay.*

matla‘si bilan boshlanadigan g‘azali bo‘lib, uning maqtasiga diqqatingizni qaratamiz:

*Besha ichra devlar maqtuli bo‘lsun, ey pari,
Gar Navoiy yona azmi Astrobod aylagay*

[Navoiy 893/1487, 732/137b hoshiya/9].

M. Imomnazarov «Badoyi’ ul-bidoya» devonining qo‘lyozmalari qiyosiga bag‘ishlangan tadqiqoti xulosasida Alisher Navoiy lirikasi bosqichlari xususida H.Sulaymonning nazariy qarashlariga ba‘zi o‘zgarishlar kiritilganini ta’kidlaydi [Имомназаров, 2021, 63-64]. Olimning fikricha, «Badoyi’ ul-bidoya» va «Navodir un-nihoya» devoni qo‘lyozmalari¹ tarkibi orasidagi farq katta emas, shuning uchun, ikkinchi devon H.Sulaymon yozganidek, shoirning o‘rta yosh lirikasini o‘zida aks ettira olmaydi.

Bu borada M. Imomnazarov shunday xulosa qiladi: «Amalga oshirilgan qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, bugun qo‘limizda mavjud Abduljamil kotib tuzgan «Navodir un-nihoya» devoni o‘tgan asrda ustoz Hamid Sulaymon olg‘a surgan g‘oyani – shoir lirik merosini 4 davrga bo‘lib o‘rganish va shoir o‘zi tuzgan ikkinchi devon – «Navodir un-nihoya» asosida uchinchi davr – o‘rta yosh lirikasini alohida ajratish fikrini XXI asr dastlabki manbashunoslik tadqiqotlari mutlaqo tasdiqlamadi. Qiyosiy tahlillar

¹ M. Imomnazarov bunda “Navodir un-nihoya” devonining Abduljamil kotib nusxasiga urg‘u beradi.

«Navodir un-nihoya»ning shoir hayot paytida ko'chirilgan bugungi mavjud qo'lyozmasi ijodkorning turli yillarda, jumladan, shoir o'z qo'li bilan tuzgan birinchi devonga kiritilgan she'rlar bilan bir davrda yaratilgan she'rlar bilan qorishib ketganligi aniq ma'lum bo'ldi» [Имомназаров 2021, 63-64].

Bizningcha, M. Imomnazarovning yuqoridagi xulosalari biroz bahslidir. Zero, H. Sulaymon o'zining doktorlik dissertatsiyasida «Navodir un-nihoya»ning Sultonali Mashhadiy (836/1432–33–926/1520) qo'lyozmasi tarkibida «Badoyi' ul-bidoya» devonining ma'lum bir qism she'rlari takror kelishini bildirib, «460 ta she'rni birinchi va ikkinchi davrning she'rlari orasida uchramasligi [Сулейманов 1955–61, 142-143]»ni ta'kidlaydi. Olim: «Mana shu 460 ta she'r biz o'rta yosh lirikasi deb nomlaganimiz shoir lirikasining uchinchi davrini tashkil etadi», – deydi [Сулейманов 1955–61, 143]. «Navodir un-nihoya»ning Abduljamil kotib (vaf. XVI a.) qo'lyozmasi esa H.Sulaymon doktorlik dissertatsiyasi yaratilgan davrda hali fanga ma'lum emas edi¹.

Shuning uchun, yuqorida ma'lumotlari keltirilgan nusxalar aslida «Navodir un-nihoya»ning qo'lyozmalari bo'lmasligi, ma'lum she'rlarning saylanmasidan iborat bo'lishi, hatto ularning musannifi Navoiyning o'zi bo'lmasligi mumkindir. Ammo ushbu nusxalar tarkibida avvalgi qo'lyozma devonlarda uchramaydigan 639 ta she'rning mavjudligi ularning shoir o'rta yosh lirikasini o'zida saqlab kelayotgani bilan ham nodir ekani, eng muhimi, bu bosqich haqida fikr bildirish mumkinligini anglata oladi deb hisoblaymiz.

Nima bo'lganda ham o'sha davrda devonlarning tarkibini belgilash, bir nomdagi devon nusxalarining aynan bir xil tarkibda bo'lishi bizning hozirgi tasavvurimizdagidek qonun darajasida bo'lmagan ko'rinadi. Bunda muallif tuzgan nusxaga ba'zi o'zgartirishlar kiritilishi nisbatan erkin amalga oshavergan bo'lsa kerak. Buni o'rta asrlarda kechgan tarjima jarayoniga o'xshatish mumkindir, ehtimol. To'g'ri, «Navodir un-nihoya» nusxalari orasidagi tafovut ancha katta. Ammo ushbu devonning muallif eslagan debocha bilan birga kitobat qilingan varianti haligacha topilmaganini ham yodda tutish kerak. Shu ma'noda, bizning qo'limizda mavjud bo'lgan nusxalar ushbu devonning qoralamalari bo'lishi ham mumkin. Kelgusida «Navodir un-nihoya»ning yangi qo'lyozmalari aniqlanadi, degan umiddamiz.

¹ Ushbu qo'lyozma haqidagi maqola ilk bor P. Shamsiyev va Y. Is'hoqov tomonidan "Sovet O'zbekistoni" gazetasida (2.12.1966) chop etilgan.

Xulosa

Yuqoridagilar bizning tadqiqot jarayonida yuzaga kelgan xulosalarimiz hisoblanadi. «Navodir un-nihoya» qo'lyozmalari yig'ma-qiyosiy matnining yakuniy natijalari ba'zi jihatlari bilan ushbu xulosalardan farqlanishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, ushbu maqolada tadqiq etilgan har ikki qo'lyozma Navoiy she'riyatini o'zida saqlab kelayotgani bilangina emas, temuriylar davri kitobat san'atining nodir namunalari ekani bilan ham muhimdir. Zero, mazkur nusxalar kitobat ishining eng nozik did sohiblari tomonidan yaratilgani qo'lyozmalarning qog'ozidan tortib, to ularga ishlangan turli ornamentlar va miniatyuralarning nafis va nodir san'at namunalari hisoblanadi.

Yakuniy xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, Abduljamil kotib tomonidan ko'chirilgan 11675 raqamli qo'lyozma va Sultonali Mashhadiy kitobatiga oid 1995 raqamli nusxa «Navodir un-nihoya» nomi berilgan, ammo tarkib va mundarijasi o'zaro farqli devonlar bo'lsa-da, Alisher Navoiy lirikasi tarixini tadqiq etishda muhim manbalar hisoblanadi. Har holda, shoirning o'rta yosh lirikasini o'zida saqlab kelayotgan navoiyshunoslikka ma'lum ikki qo'lyozma devon aynan mana shulardir. 1480-yillar Navoiy hayotida murakkab davr bo'lgani ulug' mutafakkirning biografiyasi yoritilgan manba va ilmiy adabiyotlardan ma'lum. Mazkur davrda shoirning o'y-xayollaridan kechgan fikrlar, unga rohat yoki azob bergan tuyg'ularni o'zida aks ettirib turgan lirika namunalari esa aynan yuqorida tadqiq etilgan qo'lyozma devonlar orqaligina o'rta chiqadi. Shuningdek, Navoiyning Astrobodda hokimlik chog'i yozgan g'azallari ham mana shu manbalarda kitobat qilinganini urg'ulashni o'rinli deb bilamiz. O'ylaymizki, bu jihat adabiyotshunoslarni befarq qoldirmaydi.

Sultonali Mashhadiy qo'lyozmasidagi (№1995) Abduljamil kotib nusxasida (№ 11675) mavjud bo'lmagan g'azallarning «Ilk devon», «Oqqo'yunli muxlislar devoni» va «Badoyi' ul-bidoya»da mavjudlik ko'rsatkichi¹

№	G'azallarning ilk misralari	ID	QMD	BB
1	Samandi noz uza ul kofiri balog'a boqing	-	-	+
2	Otashin ruxsora ochib xonumonim o'rtading	-	-	-
3	Zihi nihoyating oxir kelib abad, avval	-	-	-
4	Uyla to'lmish gul yuzung yodi bila qonlig' ko'ngul	-	-	-
5	Qilsa jonon ollida jonim tufayl o'lmoqqa mayl	-	-	-
6	Qoshlaringdinkim erur qonlig' ko'ngul ichra xayol	-	-	-
7	Do'stlar, ul naxli qad hajrinda chun bo'ldum qatil	-	-	-
8	Azm o'lsa xayolingg'a ko'nguldur anga mahmil	-	-	-
9	Ul shayxki minbar uza afsung'a berur tul	-	-	-
10	Ikki ko'z manziling, ey mohi mahmil	+	-	-
11	Ul quyosh og'zi uza mushkin xol	-	-	-
12	Gulshaningdin yeldek, ey zebo nihol	-	-	-
13	Yoqing o't bergali, ey ishq, hayotimg'a halal	-	-	-
14	Ul pari chehra chu ko'rguzsa jamol maqbul	-	-	-
15	Beling solur dimog'img'a tahayyul	-	-	-
16	Yuziga anglamadimkim niqob erur hoyil	+	-	-
17	Yuzini ko'rди, badan chokidin xarob ko'ngul	+	-	-
18	Ey musavvir, dilbarimg'a surate monand qil	-	-	-
19	Yo'qturur olamda ahli ishqdek bechora el	+	-	-
20	Yuzung g'amidin erur abri navbahor ko'zum	+	-	-
21	Qon yutub umri jahon ahlida bir yor istadim	-	-	-

¹ Ushbu jadvalda "Navodir un-nihoya"ning Sultonali Mashhadiy qo'lyozmasida mavjud, ammo Abduljamil nusxasida uchramaydigan g'azallarning «Ilk devon», «Oqqo'yunli muxlislar devoni» va «Badoyi' ul-bidoya»da bor yoki yo'qligini aniqlashga harakat qilindi. Natijada Alisher Navoiyning birinchi va ikkinchi davr lirikasidan so'ng, lekin "Xazoyin ul-maoniy" tuzilgunga qadar yozgan g'azallari ko'rsatkichi o'rtaga chiqdi. Alohida ta'kidlash lozimki, Mashhadiy nusxasida mavjud bo'lgan g'azaldan boshqa janrdagi she'rlarning birortasi Abduljamil qo'lyozmasida mavjud emas va bu ma'lumot hamda mazkur she'rlarning avvalgi devonlar tarkibidagi holati bizdan avval amalga oshirilgan tadqiqotlarda taqdim etilgan. Shuning uchun, jadvalda ushbu she'rlar aks ettirilmadi. Mazkur ko'rsatkich «Ilk devon» va «Oqqo'yunli muxlislar devoni»ning faksimile nashrlariga, «Badoyi' ul-bidoya»ning esa MAT 1-jildiga tayanib, amalga oshirildi. Keltirilgan manba va adabiyotlarning chiqish ma'lumotlari ushbu maqolaning *foydalanilgan manba va adabiyotlar* qismida taqdim etilgan.

22	Javhari paykonlaringning mahzani jon istadim	-	-	-
23	Soching savodig'a hargiz nazora aylamadim	-	-	-
24	Lolaro'yum bordiyu ishqin nihoni asradim	-	-	-
25	Ne uchun tarki muhabbat qildi mohim bilmadim	-	-	-
26	Ko'ngulni bag'ir qonidin lola qildim	+	-	-
27	Labing hayot suyidin zilol emish bildim	-	-	-
28	Ne ul quloqqa yetar arzi hol ado qilsam	-	-	-
29	Chun o'larmen bir nafas ul dilraboni ko'rmasam	-	-	+
30	Ey ko'ngul, aylama dahr eski rabotin maskan	-	-	-
31	Qomatingdek bog'i husn ichra yo'q sarvi ravon	-	-	-
32	Oy yuzung ustida ko'z andoqki, oraz uzra ayn	-	-	-
33	Yurutmas quyosh tiyra shomim qarosin	-	-	-
34	Musavvireki qilur go'yi gardining raqamin	-	-	-
35	Netib tama' qilayin bo'ynuma soching rasanin	-	-	-
36	Xating kim mehr uza chekti savodin	-	-	-
37	Ishqing o'tig'a quruq jismim o'tun	-	-	-
38	Etishti bayramu daf' etti ro'za qayg'usin	-	-	+
39	Yuz o'tida yuz qatra su ne tong yo'q xay g'altonidin	-	-	+
40	Tirik qolsam gar o'zni bazmi vasling ichra solg'aymen	-	-	-
Hoshiya g'azallari				
41	O'tga solg'il sarvni ul qaddi mavzun bo'lmasa	-	-	-
42	Ul savodi xatmudur yo sabzai jannatmudur	-	-	-
43	Bag'rimni tig'i hajr ila pora qildilar	-	+	-
44	Fig'onki, yor vafo ahlig'a sitam qiladur	-	-	+
45	Dahrdin mehr-u vafo qilma havas	-	-	-
46	Har kun aqshomg'a hajringda menga zorlig' ish	-	-	-
47	Do'stlar, ko'nglumni vasl ummidi behol aylamish	-	-	-
48	Demonkim meni yod etib shod qil	-	-	-
49	Ul quyosh yuzlukni har tun yod qilmoqdur ishim	-	-	-
50	Istadim yoreki ko'nglum dam-badam shod aylagay	-	-	-
51	Evrulay boshingg'a-yu behush-u hayroning bo'lay	-	-	-
Jami mavjud:		6	1	5

**«Navodir un-nihoya» Abduljamil kotib qo'lyozmasidagi (№ 11675)
Sultonali Mashhadiy (№1995) nusxasida mavjud bo'lmagan
g'azallarning «Ilk devon», «Oqqo'yunli muxlislar devoni» va «Badoyi'
ul-bidoya»da mavjudlik ko'rsatkichi**

№	G'AZALLAR	11675	ID	QMD	BB
1	Tiyr-a-yu afsurda biz, ey ishq tarqatg'on bulut,	87/18b hoshiya/7	-	-	-
2	Qildi dushman rahm baskim, qildi javr izhor do'st,	88/18b-19a hoshiya/9	-	-	-
3	Tutti ko'k firuzagun jomini shingarfi bulut,	89/19a/7	-	-	-
4	Boda-yu ishqing ko'rub topti buzug' ko'nglum shikast,	90/19a/7	-	-	-
5	Yana soldi hajr ham, tan ham, ko'ngul ham jong'a o't,	91/19 hoshiya/9	-	-	-
6	Ohkim, oldi qarig'an chog'da ko'nglum bir yigit	92/19b/9	-	-	-
7	Jon farah topti labing javhari bo'lg'ach anga qut,	93/19b/7	-	-	-
8	Bir maqomi amni top, anda burun orom tut,	99/20b/7	-	-	-
9	Za'f ko'rgilkim tanimni eltibon aylarga qut,	100/20b hoshiya/7	-	-	-
10	Vahki, la'ling qildi bag'rim tah-batah qon oqibat,	101/21a/7	+	-	-
11	G'am yukidin changdek qaddim xam etting oqibat.	102/21a/7	-	-	-
12	Habib g'ayr ila may ichti, ey ko'ngul, qon yut;	103/21ab/7	-	-	-
13	Ey ko'ngul, dedimki, aylab azm jononimg'a yet,	104/21b/7	-	-	-
14	Qilding ofat barqidin jonimg'a o't yoqmoq havas.	292/57a/7	-	-	-
15	Ey, tilab la'ling mayidin ruhuma osor fayz,	342/65b hoshiya/7	-	-	-
16	Qilsa bo'lmas oh-u afg'ondin meni shaydoni zabt,	349/67a hoshiya/11	-	-	-
17	Baski qo'ydung ko'ksuma ko'nglumni olg'an chog' dog',	366/71a hoshiya/7	-	-	-
18	Qotil ko'zung atrofida mujgon chekibdur uyla saf	376/73b/9	-	-	-

19	Jonim ichra za'fdur yuzlangali jonimg'a za'f,	381/74b hoshiya/7	-	-	-
20	Sipehr bog'in nujum vardi qildi ul nav'kim havarnaq,	383/75a/11	-	-	-
21	Chehra gulgun safhasig'a qilding afshon zarvaraq,	388/76a hoshiya/7	-	-	-
22	Solsa partav tom uza chiqqanda ruxsori ochuq,	391/76b hoshiya/9	-	-	-
23	Mushkil ishtur uyda bir g'oyibni har dam yo'qlamoq,	394/77a hoshiya/9	-	-	-
24	Qolibmen za'fdin baskim, ul oy otti menga novak,	401/79a/11	-	-	-
25	Yor bo'lmish o'rtada hijron tariqin solg'udek,	404/79b hoshiya/9	-	-	-
26	Ey tani xoki xadangingga nishon bo'lg'on kesak,	407/80ab/7	-	-	-
27	Xoni vaslingdin agar bo'lmas muyassar bar yemak,	408/80a hoshiya/7	-	-	-
28	Oshiq o'ldum pand bermang, choram asbobin tuzung,	411/80b hoshiya/7	-	-	-
29	Gulshan ichra yo'qtur oromim, diloromim kerak,	414/81a hoshiya/7	-	-	-
30	Xastadur jonim mening, to bordi jononim mening,	417/81b hoshiya/7	-	-	-
31	Ichmading may, to burunroq bizni rasvo qilmading,	418/81b-82a hoshiya/7	-	-	-
32	Ne osig' ohim o'ti ravshan zuloling kunidek,	421/82a hoshiya/7	-	-	-
33	Ul sarig' to'nlug' erur turg'anda ta'zimg'a tik,	424/82b hoshiya/9	-	-	-
34	Chun latofat ko'zgusi bo'lmish safo ichra ul eng,	427/83a hoshiya/7	-	-	-
35	Hajri tobi ichrakim ko'rdi bu jismi zordek,	430/83b hoshiya/8	-	-	-
36	Quyundek vasli dashtidin gar, ey Layli, meni surdung,	431/84a/9	-	-	+
37	Zihi quti hayotim hajri muhlik dardida yoding,	432/84ab/9	-	-	-
38	Jon olurda jismi zor erkanni bilmasmu eding?	433/84a hoshiya/7	-	-	-
39	Tang'a tosh-u qo'lg'a tish zaxmiki soldi telbalik,	436/84b hoshiya/9	-	-	-
40	Ne xayol edi yanakim ko'ngul qushi saydini havas aylading,	439/85b/8	-	-	+

41	Gar labing ollida da'vi qilmadi izhor la'l,	465/91a hoshiya/9	-	-	-
42	Xil'atin to aylamish jonon qizil, sorig', yashil,	468/91b hoshiya/7	-	-	-
43	Damo-dam otashin la'lig'a olur boda jononim,	469/92a/6	-	-	-
44	Sahar ko'rdum yuzin oqshomg'acha kuydi hazin jonim,	470/92a/9	-	-	-
45	Noma yozdim yor uchun, lekin javobe topmadim,	471/92a hoshiya/7	-	-	-
46	Bahor-u bog' sayridnn ne guldur ne sarv komim,	472/92b/9	+	-	+
47	Suda ko'rmak yuzung dushvor edi, ey husn oromim,	473/92b-93a/9	-	-	-
48	Toqibon jon rishtasin ruq'angni tumor ayladim,	474/92b hoshiya/7	-	-	-
49	Xilvate topib senn jismim aro jon aylasam,	475/92b-93a hoshiya/7	-	-	-
50	Jafo ham qilmading har necha ko'z husnungg'a oldurdum,	476/93a/11	-	-	-
51	Junundin uyla tufrog' o'ldi jismi ranjparvardim,	477/93ab/7	-	-	+
52	Necha hijrondin buzug' ko'nglumda bo'lg'ay dam-badam,	478/93a hoshiya/7	+	-	-
53	Bo'ldi ravzan-ravzan ul qotil hadangidin tanim,	479/93b/7	+	-	-
54	Ishq o'tidin tanda andoq sa'b o'lubtur kuymagim,	480/93b-94a/7	-	-	-
55	Qayg'udin ko'nglum toriqmishtur, ko'nguldin qayg'u ham,	481/93b hoshiya/7	-	-	-
56	Charxdin gar har dam ermas bir azog'a kuymagim,	482/94a/7	-	-	-
57	Vasling istab o'qdek etgay erdi sur'at paykarim,	483/94ab hoshiya/7	-	-	-
58	Menki, davron zulmidur ko'nglimga, balkim jong'a ham	484/94a hoshiya/7	-	-	-
59	Furqati za'fida qon yosh ichra yotmish paykarim,	485/91b/7	-	-	-
60	Etgach ul qotil, erur bo'g'zumda ikki barmog'im,	486/94b-95a/7	-	-	-
61	Sendin ayru to asiri dardi hijron qolmisham,	487/94b hoshiya/7	-	-	-
62	Yor tig'i qatl urub, men hajri mayli qilmadim,	488/95a/7	+	-	-

63	Qaysi taqviy xirmanin ishq o'tidin kuydurmadi,	490/95a hoshiya/11	-	-	-
64	Oncha yig'latti jafodin do'stdur deb sevganim,	493/95b hoshiya/7	-	-	-
65	Har kishi yor ollida der chinni ham, yolg'onni ham,	496/96a hoshiya/7	-	-	-
66	Ey hush ulkim ofiyat kunji menga erdi maqom,	500/96b hoshiya/11	-	-	-
67	Ul quyosh vaslida o'zni rashkdin gum aylaram,	503/97a hoshiya/7	-	-	-
68	Ne tong gar muhlik o'lsa dudi ohim imtidodi ham,	505/97b-98a/9	-	-	-
69	Chu berdim jonni qilma zulm rasmu qatl oyin ham,	506/98a/9	-	-	-
70	Tutqali shirin labin shohi shakardur barmog'im,	507/98a hoshiya/7	-	-	-
71	Jonima dog'e qo'yubtur la'ling uzra xolkim,	517/100a hoshiya/7	-	-	-
72	Nega qon yoshim oqizdi dilsitonim bilmadim,	520/100b hoshiya/7	-	-	-
73	Visolingdin ko'ngul navmid esa darding chekarmu chun,	521/101a/7	-	-	-
74	Yuzung ko'rgach ilik ko'ksunga urmon ishq tobidin,	522/101ab/11	-	-	-
75	Oh-u vovayloki, olam ahlining badholimen,	523/101a hoshiya/7	-	-	-
76	Vafo yo'linda, eykim, topmading istab asar mendin,	524/101b/9	-	-	+
77	Yuz o'tida yuz qatra su ne tong xo'yi g'altonidin,	525/101b- 102a/7	-	-	+
78	Ko'yida itlar meni goh tirnabon, goh tishlabon,	526/101b-102a hoshiya/11	-	-	-
79	Qildi ayshim subhini ul sho'x la'li tiyra, tun,	529/102a hoshiya/11	-	-	-
80	Qatra terlardin yuzinda dur nishoninmu deyin?	532/102b hoshiya/7	-	-	-
81	O'turur ko'yida ishq ahlin alolosi uchun,	538/103b hoshiya/7	-	-	-
82	Buki vahsh-u tayr uyutmaslar, g'amim bedodidin,	542/104a hoshiya/7	-	-	-
83	Sebki davri orazim rangi birov hijronidin,	545/104b hoshiya/7	-	-	-
84	G'am tuni la'ling so'rar hajr darsin zor uchun,	548/105a hoshiya/7	-	-	-

85	Har tarafkim borur ag'yor ila jonon taloshurmen,	549/105b/7	-	-	-
86	Benavomen ayru xaylu hamdamu hamrozdin,	551/105b hoshiya/9	-	-	-
87	Tufrog'imdin ahli ishq etsa tanure shodmen,	552/106a/7	-	-	-
88	Orazing naqshin ko'zum lavhida tasvir etgamen,	553/106ab/7	-	-	-
89	Ishq dashtin hech g'urbatkash musofir ko'rmasun,	554/106a hoshiya/7	-	-	-
90	Yorab, anglabmu ekin ul oyki oning zorimen,	555/106b/7	-	-	-
91	Tushta la'lin ko'rdum uyg'onmay debon qayg'udamen,	556/106b-107a/7	-	-	+
92	Ulcha ko'nglum ko'rdi ojizmen ani izhoridin,	557/106b hoshiya/9	-	-	-
93	Bazm ichinda andoq ul mahvash xayoli birlamen,	558/107a/7	+	-	+
94	Yuz jaf o tong yo'qki ul nomehribondin ko'rgamen	559/107ab/9	-	-	-
95	Ikki gul bir kecha ko'nglumni guliston aylabon.	560/107ab hoshiya/13	-	-	-
96	Telba ko'nglum javridin andoq parishon holmen,	562/107b-108a/7	-	-	-
97	Jilvayi qadding ko'rub sarvi ravondin kim desun,	563/107b hoshiya/9	-	-	-
98	Ko'rub zulfung aro o'tluq ko'ngullardin asar har yon,	564/108a/9	-	-	-
99	Chok-chok etting ko'ngul komini hosil qilmayin,	569/109a/7	-	-	+
100	O'rtama ko'nglumni komin hosil etmasdin burun,	571/109b/7	-	-	+
101	El g'amimdin kuymasun deb nolayi zor aylamon,	576/11a/7	-	-	-
102	Shomi hijron zulmatida obi hayvon istamon,	577/11a/7	-	-	-
103	Jong'a har dam ishqidin yuz ming balo kam istamon,	578/11ab/7	-	-	-
104	Necha ashkimdin menga, ey ishq, bedod etgasen,	579/111b/7	-	-	-
105	Yo'q damekim ul quyosh yodida faryod aylamon,	580/111b-112a/7	+	-	-
106	Ko'rguzur ag'yor yuz tuhmat nihoni naylayin,	581/111b hoshiya/7	-	-	-

107	Ko'z bila qoshing aro ul xoli mushkinobdin,	584/112a hoshiya/7	-	-	-
108	Necha ul chehrani ko'z lavhida tasvir etayin,	585/112b/6	-	-	-
109	Necha g'amim o'tin ahli jahong'a yetkurayin,	586/112b- 113a/7	-	-	-
110	Ishq aro men kibi yo'q besar-u somon bo'lg'an,	587/113a/9	-	-	-
111	Falakdin gar senga har lahza yuz qayg'u kelur o'tru,	589/113b/10	-	-	-
112	Qayon qilsa havo ul turfa qush uyqu olur qayg'u,	590/113b- 114a/9	-	-	+
113	Yordin ayru may ichmak qindurur, balkim og'u,	593/114b/7	-	-	+
114	Ro'zada labtashnaliqdin qildi za'f ul mohro',	595/115a/7	-	-	-
115	Ey sabo, ovora ko'nglum istayu har yon boru,	596/115ab/7	-	-	-
116	Sipehri oyinagun gar damimdin erdi qorong'u,	597/115b/7	-	-	-
117	Ne ajab gar qilmasam gul rangi bo'yin orzu	599/115b hoshiya/7	-	-	-
118	Ohu ashkimdin shikoyat aylamish ul tund xo',	602/116a hoshiya/7	-	-	-
119	Gul sochar yel bog' aro sarvi ravonim keldimu?	606/117b/7	+	-	+
120	Nash'a yetmas boda gulgun bazmgoh gulzor esa,	617/119b hoshiya/9	-	-	-
121	Yuzin ko'r, qilmag'il mujgonu xattu xolidin nola,	618/120a/9	-	-	-
122	Chiqti paykoning ko'nguldin ohi dud olud ila,	619/120a hoshiya/7	-	-	-
123	Chamanda sarv yo gul sabodin tebranur nogah,	620/120b/9	-	-	+
124	Sen qaro par boshing uzra ko'rguzub, men dudi oh,	622/120b hoshiya/9	-	-	-
125	Yana sho'laliq ko'ngulni g'aming etti pora-pora,	623/121a/7	-	-	-
126	Menmudurmen ko'z yoshim rangin bag'ir qoni bila,	625/121a hoshiya/7	-	-	-
127	Zulfi yanglig' paykarimni chekti pech-u xam bila,	629/121b hoshiya/7	-	-	-
128	Istaram yetsam quyundek gul'uzorim qoshig'a,	630/121b-1 22a hoshiya/7	-	-	-

129	Bir kichik yoshlig' nigore topmisham nozukkina,	633/122a hoshiya/7	-	-	-
130	Uzdi mendin do'stlug' ul sho'xi siymintan yana,	634/122ab hoshiya/7	+	-	-
131	Xalq mehriq'a yana, yorab, meni zor aylama,	637/122b hoshiya/7	+	-	-
132	Sarv-u gul husn ichra yo'q ul sarvi gul ruxsorch,	638/122b-123a/9	-	-	-
133	O'tg'a solg'il sarvni ul qaddi mavzun bo'lmasa,	641/123a hoshiya/7	-	-	-
134	Dayr aro to aylading ko'nglumni zor, ey mug'bach,	644/123b hoshiya/9	-	-	-
135	Rangsiz xoling erur ul tal'ati diljo' uza,	645/123b-124a hoshiya/7	-	-	-
136	Men o'lar holatdayu ko'yida itlar qoshima	648/124a hoshiya/7	-	-	-
137	Uyquni ohim yeli ko'zdin uchurdi bu kecha,	651/124b hoshiya/9	-	-	-
138	Eyki yuz ming dog' qo'ydung jismi g'amparvardima,	654/125a hoshiya/7	-	-	-
139	Menki g'am dashtida ittim ohi dard olud ila,	657/125b hoshiya/7	+	-	-
140	Bud-u nobudum agar teng bo'ldi jonon ollida,	658/125b-126a hoshiya/7	-	-	-
141	Qayu qushkim qo'nar bu paykari majnun misol uzra,	659/126a/9	-	-	-
142	Suvrati devordek hayronmen ul ruxsorg'a,	661/126a hoshiya/7	-	-	-
143	Hargiz ermas mehri ul husni jahon oroyicha,	664/126b hoshiya/7	-	-	-
144	Tikmagaymen tig'i zaxmin o'lsam ul ozor ila,	665/126b-127a hoshiya/8,5	-	-	-
145	G'uncha gul ichra gahi paydo bo'lur gulzorda,	668/127a hoshiya/9	+	-	-
146	Za'fda ingranmog'im elning fig'oni zoricha,	671/127b hoshiya/9	-	-	-
147	Qoshining yoyi chekilmish zulfi chavgonig'acha,	673/128ab/7	-	-	-
148	Ne ajab ushshoq aro bo'lsam meni zor o'zgacha	674/128a hoshiya/9	-	-	-
149	Tongg'a solma va'dayi vaslingni bori bu kecha,	675/128b/7	+	-	-
150	Baski qon bog'ladi alamlar yuzlanib har dog'ima,	677/128b hoshiya/7	-	-	-

151	Choklig' ko'nglum nishoni g'unchai xandonida,	680/129a hoshiya/7	+	-	-
152	Gar yana bir qatla o'z vaslingga yetkursang meni,	683/129b hoshiya/7	-	-	-
153	Bog'din keldi nasim-u gul isin kelturmadi,	686/130a hoshiya/7	-	-	-
154	Ne may xushtur menga, ne gul keraklikdur, ne gulzori,	687/130b/9	+	-	-
155	Ne bir subh ul quyosh bazmi aro ichtim to'la jome,	688/130b-131a/7	-	-	-
156	Ne ajab giryon ko'zum gar bo'lmas uyqu manzili,	689/130b hoshiya/7	-	-	-
157	Boshimg'a kosh gohi yetsa raxshin sekretib mohi,	691/131ab/7	-	-	-
158	Nogah o'ldum bir ko'zi sohir giriftori, netay,	692/131a hoshiya/7	-	-	-
159	Dahr elidin naf' agar yo'qtur, zarar ham bo'lmasa,	695/131b hoshiya/7	+	-	-
160	Yor tandin jonim ayrulg'uncha zulmin qilmog'i,	696/132a/7	-	-	-
161	Istadim yoriki ko'nglum dam-badam shod aylagay,	698/132a hoshiya/7	-	-	-
162	Ey sabo, ko'zdin uchur Mozandaronning vardini,	701/132b/7	-	-	-
163	Ul quyosh oq uyda-yu men muztaribmen har sari,	703/133ab/7	-	-	+
164	Ne deb aylay jonni zulfi mushki bo'yung sadqasi,	704/133a hoshiya/7	-	-	-
165	Vahki, hajring o'ti jismi notavonim o'rtadi,	707/133b hoshiya/7	+	-	-
166	Necha davron ahlining bedodidin shiddat chekay,	712/134b hoshiya/9	-	-	-
167	It kibi necha samanding so'ngicha po'ya uray,	714/135ab/7	-	-	-
168	Necha men mehnat chekib, ul oy tana'um aylagay,	715/135a hoshiya/7	-	-	-
169	Nasli odam bo'lmamish hargiz muhabbat mazhari,	718/135b hoshiya/7	-	-	-
170	Ko'z bila ko'nglumga bo'lmish go'yiyo vasling chog'i,	719/135b-136a hoshiya/7	-	-	-
171	Bo'lmasam oshiq fig'onim zor bo'lg'aymu edi,	722/136a hoshiya/8	-	-	-
172	So'z vafodin demakim, ul ermas ahli husn ishi,	724/136b/7	-	-	-

173	Gulshani ko'yungdin ayru bog'i rizvonni netay,	726/136b hoshiya/7	-	-	-
174	Kim ekin ul ko'y aro deb kelsa andin it uni,	728/137a hoshiya/7	-	-	-
175	Bukun oqshomg'a tegru menki ko'rmaymen quyoshimni,	730/137b/7	-	-	-
176	Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay,	732/137b hoshiya/9	-	-	-
177	Ishq aro tish bag'rima ursam icharmen qon dog'i,	735/138ab hoshiya/7	-	-	-
178	Chun so'z aytursen labing titrar g'azab qilg'an chog'i,	738/138b hoshiya/9	-	-	-
179	Sarsari ohimdin ul oy furqatida g'am tuni,	740/139ab/7	-	-	-
180	Jismi ul gulning qizil to'ndinmudur gul xirmann,	741/139a hoshiya/7	-	-	-
181	Demangiz har kimni kim bir yor ila bor ulfati,	744/139b hoshiya/7	-	-	-
182	Necha yilda qilmadi ko'nglumga ishq shiddati,	745/139b hoshiya/7	-	-	-
183	Og'iz ichra tilingdek g'unchada gulbargi tar bo'lg'ay,	746/140a/8	-	-	+
184	Har o'q ul qoshi yo ko'ksunga otsa bexato yetgay,	747/140ab/9	-	-	-
185	Kecha hajringda tiriklikdin malolim bor edi,	748/140a/7	-	-	-
186	Ko'ngul, o't berki, bir oy hajrida ko'ksunga dog' o'rtay,	749/140b/9	-	-	+
187	Mening baxtim yuzi g'am kojidin ul kun qaro bo'ldi,	750/140b- 141a/9	+	-	+
188	Uyla hijron tiyradurkim, zulm ekach ul oy fani,	751/140b hoshiya/7	-	-	-
189	Menmudurmenkim ko'nguldin ayrumen jondin dog'i,	752/140b-1 41a hoshiya/9	-	-	-
190	Necha kilki taxayyul birla bir surat nigor aylay,	753/141ab hoshiya/6	-	-	+
191	Vah, necha davron jafosi aylagay mahzun meni,	754/141a hoshiya/7	-	-	-
192	Gul ne bo'lg'aykim yuzung hajrida ko'rgaymen ani	755/141ab hoshiya/6	+	-	-
193	Bir kun meni ul qotili Majnun shior o'lturgusi,	756/141b/7	+	-	+
194	Yo'qki, yomg'urdin mening holimg'a davron yig'lag'ay,	759/141b hoshiya/7	+	-	-

195	Menmudurmenkim ayirmish vaslidin jonon meni,	760/141b-142a hoshiya/7	-	-	-
196	Charx agar solsa yiroq yuz yil visolingdin meni,	763/142a hoshiya/7	-	-	-
197	Tan qaro tufrog' o'lub oh o'ti oxir bo'lmadi,	764/142ab hoshiya/7	-	-	-
198	Xomayi mushkin raqam birla meni yor istadi,	767/142b hoshiya/7	-	-	-
199	Yo'q vafo ahlida bir zori parishon men kibi,	768/142b-143a hoshiya/7	-	-	-
200	Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,	771/143a hoshiya/7	+	-	-
201	Xushtur ichmak yor yodi birla ishrat jomini,	774/143b hoshiya/7	-	-	-
202	Demakim olamda oshiq sen kibi kam bo'lmag'ay,	775/143b hoshiya/7	-	-	-
203	Dudi ohimdinmu har sori shararlar butradi,	778/144a hoshiya/7	-	-	-
204	Ohkim, nomehribonim azmi bedod ayladi,	781/144b/7	-	-	-
205	O'pmak istar chog'da la'li jonfizosin tishladi,	782/144b-145a hoshiya/7	-	-	-
206	Lahza-lahza chunki ortar ul pari zebolig'i,	785/145a hoshiya/7	-	-	-
207	Ashk xunobidin o'lmish ko'zlarim ummon kibi,	786/145ab hoshiya/7	+	-	-
208	Holi shavqi oshti nosih chora yetkurgan sayi,	789/145b hoshiya/7	-	-	-
209	Necha davron ahlining bedodidin shiddat chekay,	790/145b-146a hoshiya/9	-	-	-
210	Chehra o'ti birla ko'nglum xonumonin o'rtadi,	793/146a hoshiya/7	-	-	-
211	Asrading kuydurgali ushshoqi muztar ko'nglini,	796/146b hoshiya/7	-	-	-
212	Emdi buzmaydur o'kush bedod ila davron meni,	797/146b-147a hoshiya/9	-	-	-
213	Bas ajabdur ikki la'lin ko'rsang-u og'zin dog'i,	800/147a hoshiya/7	-	-	-
214	Boda gul-gul aylamish ravshan uzoring bog'ini,	801/147ab hoshiya/7	-	-	-
215	Vahki, bir g'oyib xayolidin parishonmen base,	807/148a hoshiya/9	-	-	-
215	Navbahor o'ld-yu ayshim gulbuni ochilmadi,	810/148b hoshiya/9	-	-	-

216	Ey uzoring ollida sharmanda mehri xovari,	811/149a hoshiya/7	-	-	-
Jami mavjud:			23	0	20

Adabiyotlar

- Alisher Navoiy, 1500. *Navodir un-nihoya*. Ko'chiruvchi: Sultonali Mashhadiy. Metropolitayn san'at muzeyi. №13.228.20: 254.
- Alisher Navoiy. 1487. *Navodir un-nihoya*. Kotibi: Abduljamil kotib. O'zRFASHI asosiy fondi. № 11675: 149.
- Alisher Navoiy. 2015. *Oqquyunli muxlislar devoni. 1471-yili ko'chirilgan qo'lyozmaning faksimile nashri*. Nashrga tayyorlovchi: A.Erkinov. Tokyo: "Research Institute for languages and cultures of Asia and Africa".
- Alisher Navoiy. XV-XVI. *Navodir un-nihoya*. Kotibi: Sultonali Mashhadiy. O'zRFASHI asosiy fondi. №1995: 207.
- Alisher Navoiyning Rossiya Milliy kutubxonasi to'plamlaridagi asarlari. 2017. Ilmiy muharrir: E.Rtveladze. Turkum muallifi, loyiha rahbari: F.Abduholiqov. Bo'limlar mualliflari: O.Vasilyeva, N.Mahmudov, E.Ochilov: 220-291. Toshkent: Uzbekistan today, Zamon press info.
- Boltabayev, S. 2022. *Alişir Nevayî divanlarının dibaceleri (Giriş – Metin – Aktarma – Dizin - Tıpkıbasım)*. Ankara: "AkÇağ".
- Boltabayev, S. 2022. "Navoiy devonining shoir hayotligida ko'chirilgan yangi topilgan nusxasi haqida". Alisher Navoiy va Sharq Renessansi (xalqaro simpozium materiallari): 438-466. Toshkent.
- Erkinov A., Madaliyeva O. 2020. "Terma devon" yoki Navoiy "Navodir un-nihoya"sining so'nggi redaksiyasi? (Mashhadiy qo'lyozmasi asosida, 905/1499-1500 yil)". *Alisher Navoiy va XXI asr (Xalqaro ilmiy-nazariy anjumani materiallari)*: 19-21. Toshkent: Mashhur-press.
- Erkinov, A. 2018. "Badoye' ul-bidoya"ning Navoiy davrida ko'chirilgan va yangi aniqlangan qo'lyozmalari (1483 va 1485 yillar)". *Oltin bitiglar*. 1: 18-31. Toshkent.
- Erkinov, A. 2022. "Mustaqilligimizning 31 yilligiga munosib tuhfa: Alisher Navoiy "Badoe' ul-bidoya"sining sakkizinchi nusxasi aniqlandi". (uza.uz).
- Juraboyev, O. 2020. "Kitabet Sanatının Bir Örneği Olarak Ali Şir Nevayî'nin "Bedayü'l-Bidaye" Divanının Taşkent Nüshası". *Uluslararası Beşeri Bilimler ve Sanat Dergisi*. Cilt/Volume:1: S. 14-27.
- Uluç, L. 2006. *Türkmen valiler Şirazlı ustalar Osmanlı okurlar. XVI.Yüzyıl Şiraz elyazmaları*: 531. İstanbul: Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları.
- Levend, A. 1958. "Türkiye kitaplıklarındaki Nevai Yazmaları". *Türk dili araştırmaları yillığı*. Belleten: 127-209. Ankara.
- Madaliyeva, O. 2019. "Navoiy devonlarining Mashhadiy ko'chirgan qo'lyozmalari". *O'zbek tili va adabiyoti 1*: 79-86. Toshkent.

- Madaliyeva, O. 2021. *Алишер Навоий девонлари қўлёзмаларининг таркибий-қийёсий тадқиқи*: 679. Тошкент: Donishmand ziyosi.
- Максудов, В. 2020. "Кодикологическое описание списка «Навадир ан-нихая» Наваи, хранящегося в библиотеке таджикского национального университета". *Alisher Navoiy va XXI asr*: 9-18. Toshkent: Mashhur-press.
- Uluch, L. 2020. *Alisher Navoiy asarlarining Istanbul kutubxonalaridagi bezakli qo'lyozmalari*: 448. Toshkent: «Silk Road Media» * «East Star Media».
- Абдуқодиров, А. 2022. *Амир Алишер Навоий (ҳаёти ва ижод ӯйли)*: 256. Тошкент: Bayoz.
- Алишер Навоий. 1987. *Наводир ун-ниҳоя*. МАТ. Йигирма томлик, иккинчи том: 622. Тошкент: Фан.
- Алишер Навоий. 1988. *Ғаройиб ус-сиғар – Ҳазойин ул-маоний*. МАТ. Йигирма томлик, учинчи том: 575. Тошкент: Фан.
- Алишер Навоий. 1995. *Айёми висол ӯлди яна. Янги топилган ғазаллар*: 71. Нашрга тайёрловчи: Фозила Сулаймонова. Тошкент. «Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти».
- Алишер Навоий. 2021. *"Оққўюнли мухлислар девони": табдил ва факсимиле матн*. Нашрга тайёрловчилар: А.Эркинов, Р.Жабборов: 411. Тошкент: Donishmand ziyosi.
- Аҳмедова, Д. 2018. "Алишер Навоий ижодининг Америка Қўшма Штатларида ўрганилиши". *Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари*, 224-234. Тошкент.
- Валихўжаев, В. 1979. "Алишер Навоий мўътабар дастхат девони ҳақида". *О'zbek tili va adabiёти* 3: 41-43. Тошкент.
- Волин, С. 1946. "Описание рукописей произведений Навои в ленинградских собраниях". *Алишер Наваи*. Под ред. К. Боровкова: 203-235. Москва–Ленинград: Издательство АН СССР.
- Жабборов, Р. 2021. *Алишер Навоий "Оққўюнли мухлислар девони" ва унинг давр адабий муҳитида тутган ўрни*: 247. Тошкент: Donishmand ziyosi.
- Жўрабоев, О. 2016. "Навоий асарлари қўлёзма ва матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари". *Алишер Навоий ва XXI аср*: 32-38. Тошкент.
- Имомназаров, М. 2017. "Алишер Навоий лирик мероси матн-шунослигининг долзарб масалалари". *Алишер Навоий ва XXI аср*: 6-10. Тошкент: Tamaddun.
- Имомназаров, М. 2021. *XXI аср. Алишер Навоий лирик мероси матншунослиги муаммолари*: 64. Тошкент.
- Имомназаров, М. 2021. *XXI аср: Алишер Навоий лирик мероси матншунослиги муаммола*: 207. Тошкент: Donishmand ziyosi.
- Имомназаров, М. 2022. *Мусулмон минтақа маданияти ривожига*

- “мажоз тариқи” босқичи. 2-китоб. Алишер Навоий: 510. Тошкент: Mumtoz soʻz.
- Мадалиева, О. 2021. Алишер Навоий девонлари қўлёзмаларининг таркибий-қийёсий тадқиқи (ЎзР ФА Шарқшунослик институти фонди қўлёзмалари асосида). филология фанлари бўйича PhD илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент.
- Мадраимов, А. 2021. Алишер Навоий бадиий асарларининг XV-XVI асрлардаги қўлёзмалари: 382. Тошкент: “Fan va texnologiyalar” nashriyot matbaa uyi.
- Максудов, В. 2020. “Внов найденный список дивана “Наводир ан-нихая” Алишера Наваи”. *Изучение истории, искусства и культуры в Таджикистане*: 161-170. Istanbul.
- Муродов, М. 1971. *Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихи*. Тошкент: Фан.
- Мақсудов, В. 2016. “Наводир ун-нихоя”нинг янги топилган қўлёзма нусхаси”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 6: 49-52.
- Навоий асарлари луғати, НАЛ. 1972. Тузувчилар: П.Шамсиев, С.Иброҳимов. Тошкент: “Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти”.
- Навоий дастхати (Наводир ун-нихоя). 1991. 12 б.т. Нашрга тайёрловчи, сўз боши муаллифи: С.Ғаниева. Тошкент: Фан.
- Нагиева, Ж. 1981. “Из классического наследия”. *Адабий мерос* 2: 82-90. Тошкент.
- Рамазонов, Н. 2003. “Расмий девонларга кирмаган шеърлар”. *Алишер Навоий*. Мукамал асарлар тўплами. 20-том: 439-471. Тошкент: Фан.
- Рамазонов, Н. 2006. “Алишер Навоийда “таҳрирни таҳрир”. *Оʻzbek tili va адабиёти* 1: 17-23. Тошкент.
- Рамазонов, Н. 2007. “Яна “таҳрирни таҳрир” масаласи хусусида”. *Оʻzbek tili va адабиёти* 1: 78-89. Тошкент.
- Рашидова, М. 2019. “Алишер Навоий “Наводирун нихоя” девонининг уч қўлёзма нусхаси ва уларнинг қийёсий таҳлили”. *Имом Бухорий сабоқлари* 1: 20-21. Тошкент: Релиабле принт.
- Раҳматуллаева, М. 1965. Алишер Навоий лирикасида синонимлар масаласи (XV асрда Султон Али Машҳадий томонидан кўчирилган “Navodir ун-нихоя” девонининг уникал қўлёзмаси асосида). Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент.
- Салоҳий, Д. 2004. “Бадоеъ ул-бидоя” малоҳати: 204. Тошкент: Фан.
- Салоҳий, Д. 2006. “Таҳлил ва талқин масъулияти”. *Оʻzbek tili va адабиёти* 1: 74-78. Тошкент.
- Сирожиддинов, Ш. 2023. *Амир Алишер*: 200. Тошкент: Адабиёт.
- Сулаймонов, Ҳ. 1960. “Навоий томонидан “Хазойинул маоний”га киритилмаган шеърлар”. *Алишер Навоий. Хазойинул-маоний. “Фавоидул-кибар”*, IV том: 773-794. Ҳ. Сулаймонов илмий-танқидий матни асосидаги нашр. Тошкент:

Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти.

- Сулейманов, Х.С. 1955-1961. *Текстологическое исследование лирики Алишера Навои / В трех томах / том первый*: 415. Ташкент–Москва.
- Турдиалиев А., Эркинов А. 2018. "Бадойиъ ул-бидоя"нинг Навоий даврида қўчирилган ва янги аниқланган санали олтинчи қўлёзмаси (Султонали Машҳадий, Ҳирот, 889/1484-1485 йил)". *Алишер Навоий ва XXI аср*: 57-62. Тошкент: Турон иқбол.
- Турсунов, Ю. 2023. *Навоийнинг ҳаёт йўли: йиллар ва манзиллар*: 176. Тошкент: Забаржад медиа.
- Эркинов, А. 2018. "Бадойиъ ул-бидоя"нинг Навоий даврида қўчирилган ва янги аниқланган санали бешинчи қўлёзмаси (888 йил, сафар ойи/1483 йил, март-апрель). *Алишер Навоий ва XXI аср*: 51-57. Тошкент: Турон иқбол.
- Юсупова, Д. 2017. "Наводир ун-ниҳоя" фақат ғазаллардан иборат девонми?". *Алишер Навоий ва XXI аср*: 54-60. Тошкент: Тамаддун.
- Юсупова, Д. 2018. "Илк девон"дан "Оққўюнли мухлислар девони"га ўтган ғазаллар трансформацияси". *Алишер Навоий ва XXI аср*: 69-77. Тошкент: Турон-Иқбол.
- Юсупова, Д. 2021. "Мухлислар томонидан тузилган девонлар: талқин, таҳлил ва таҳрир". *Алишер Навоий халқаро журнали*. 1-сон, 1-қисм: 101-110. Тошкент.
- Ҳакимов, М. 1983. *Навоий асарлари қўлёзмаларининг тавсифи*: 199. Тошкент: Фан.
- Ҳакимов, М. 1991. *Навоий асарларини қўчирган хаттотлар*: 14. Тошкент: Фан.

Insights Into the History Of 'Ali Shīr Navā'ī's Lyrics of the 1480s (Based on the manuscripts *Divāni jadid* or *Nawādir al-nihāya*)

Oysara Madalieva¹

Abstract

As 'Ali Shīr Navā'ī wrote, he is the author of the preface (dibacha) to three of his works – *Badāyi' al-bidāya*, *Nawadir al-nihaya* and *Khazayin al-ma'ani*. However, the preface to *Nawadir al-nihaya* is still not known to Navā'ī studies, and this issue is the focus of attention of those who study the history of the poet's lyrics. There is also the problem of repeating a number of poems from the first divan of the poet *Badāyi' al-bidāya* in the lists of this divan. In recent years, based on the above two cases, opinions have arisen that the manuscripts called *Nawadir al-nihaya* may in fact be selected diwans containing the texts of a poem by an author of certain years. This article attempts to find a solution to these issues using the example of two rare manuscripts (The Abu Rayhan Biruni Institute of Oriental Studies, Uzbekistan Academy of Sciences," No. 11675, 1995). The author of the study expresses an opinion about the abundance of ghazals in the fields of the list of *Nawadir al-nihaya* by 'Abd al-Jamil katib, which is not in other manuscripts. The article presents for the first time the ghazals of 'Ali Shīr Navā'ī, which were possibly written in 1487–1490, especially during the reign of Astrobad.

Key words: 'Ali Shīr Navā'ī, *Nawadir al-nihaya*, *divan*, *ghazal*, *Sultan 'Ali Mashhadi*, *Abd al-Jamil katib*, *The Abu Rayhan Biruni Institute of Oriental Studies*, *Uzbekistan Academy of Sciences*.

References

- Alisher Navoiy, 1500. *Navodir un-nihoya*. Ko'chiruvchi: Sultonali Mashhadiy. Metropolitelyn san'at muzeyi. №13.228.20: 254.
- Alisher Navoiy. 1487. *Navodir un-nihoya*. Kotibi: Abduljamil kotib. O'zRFASHI asosiy fondi. № 11675: 149.
- Alisher Navoiy. 2015. *Oqquyunli muxlislar devoni. 1471 yili ko'chirilgan qo'lyozmaning faksimile nashri*. Nashrga tayyorlovchi: A.Erkinov. Tokyo: "Research Institute for languages and cultures of Asia and Africa".

¹Oysara R. Madalieva – doctor of philosophy (PhD) in philology, Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni of the Republic of Uzbekistan.

E-mail: oysara19@gmail.com

ORCID ID: 0009-0008-0932-9570

For citation: Madalieva, O. R. 2024. "Insights Into the History Of 'Ali Shīr Navā'ī's Lyrics of the 1480s (Based on the manuscripts *Divāni jadid* or *Nawādir al-nihāya*)". *Golden Scripts* 1: 4 – 39.

- Alisher Navoiy. XV–XVI. *Navodir un-nihoya*. Kotibi: Sultonali Mashhadiy. O'zRFASHI asosiy fondi. №1995: 207.
- Alisher Navoiyning Rossiya Milliy kutubxonasi to'plamlaridagi asarlari*. 2017. Ilmiy muharrir: E.Rtveladze. Turkum muallifi, loyiha rahbari: F.Abduholiqov. Bo'limlar mualliflari: O.Vasilyeva, N.Mahmudov, E.Ochilov: 220-291. Toshkent: Uzbekistan today, Zamon press info.
- Boltabayev, S. 2022. *Alişir Nevayî divanlarının dibaceleri (Giriş – Metin – Aktarma – Dizin - Tıpkıbasım)*. Ankara: "AkÇağ".
- Boltabayev, S. 2022. "Navoiy devonining shoir hayotligida ko'chirilgan yangi topilgan nusxasi haqida". *Alisher Navoiy va Sharq Renessansi (xalqaro simpozium materiallari)*: 438-466. Toshkent.
- Erkinov A., Madaliyeva O. 2020. "Terma devon" yoki Navoiy "Navodir un-nihoya"sining so'nggi redaksiyasi? (Mashhadiy qo'lyozmasi asosida, 905/1499-1500 yil)". *Alisher Navoiy va XXI asr (Xalqaro ilmiy-nazariy anjumani materiallari)*: 19-21. Toshkent: Mashhur-press.
- Erkinov, A. 2018. "Badoye' ul-bidoya"ning Navoiy davrida ko'chirilgan va yangi aniqlangan qo'lyozmalari (1483 va 1485 yillar)". *Oltin bitiklar*. 1: 18-31. Toshkent.
- Erkinov, A. 2022. "Mustaqilligimizning 31 yilligiga munosib tuhfa: Alisher Navoiy "Badoe' ul-bidoya"sining sakkizinchi nusxasi aniqlandi". (uza.uz).
- Juraboyev, O. 2020. "Kitabet Sanatının Bir Örneği Olarak Ali Şir Nevayî'nin "Bedayü'l-Bidaye" Divanının Taşkent Nüshası". *Uluslararası Beşeri Bilimler ve Sanat Dergisi*. Cilt/Volume:1: S. 14-27.
- Uluç, L. 2006. *Türkmen valiler Şirazlı ustalar Osmanlı okurlar. XVI.Yüzyıl Şiraz elyazmaları*: 531. İstanbul: Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları.
- Levend, A. 1958. "Türkiye kitaplıklarındaki Nevai Yazmaları". *Türk dili araştırmaları yillığı*. Belleten: 127-209. Ankara.
- Madaliyeva, O. 2019. "Navoiy devonlarining Mashhadiy ko'chirgan qo'lyozmalari". *O'zbek tili va adabiyoti 1*: 79-86. Toshkent.
- Madaliyeva, O. 2021. *Alisher Navoiy devonlari qo'lyozmalarining tarkibiy-qiyosiy tadqiqi*: 679. Toshkent: Donishmand ziyosi.
- Maksudov, B. 2020. "Kodikologicheskoe opisanie spiska «Navadir an-nixaya» Navai, xranящegосya v biblioteke tadjikskogo natsionalnogo universiteta". *Alisher Navoiy va XXI asr*: 9-18. Toshkent: Mashhur-press.
- Uluch, L. 2020. *Alisher Navoiy asarlarining Istanbul kutubxonalaridagi bezakli qo'lyozmalari*: 448. Toshkent: «Silk Road Media» * «East Star Media».
- Abduqodirov, A. 2022. *Amir Alisher Navoiy (hayoti va ijod yo'li)*: 256. Toshkent: Bayoz.
- Alisher Navoiy. 1987. *Navodir un-nihoya*. MAT. Yigirma tomlik, ikkinchi tom: 622. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 1988. *G'aroyib us-sig'ar – Xazoyin ul-maoniy*. MAT. Yigirma

- tomlik, uchinchi tom: 575. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 1995. *Ayyomi visol o'ldi yana. Yangi topilgan g'azallar*: 71. Nashrga tayyorlovchi: Fozila Sulaymonova. Toshkent. «G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti».
- Alisher Navoiy. 2021. *"Oqqo'yunli muxlislar devoni": tabdil va faksimile matn*. Nashrga tayyorlovchilar: A.Erkinov, R.Jabborov: 411. Toshkent: Donishmand ziyosi.
- Ahmedova, D. 2018. "Alisher Navoiy ijodining Amerika Qo'shma Shtatlarida o'rganilishi". *O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari*, 224-234. Toshkent.
- Valixo'jaev, B. 1979. "Alisher Navoiy mo'tabar dastxat devoni haqida". *O'zbek tili va adabiyoti* 3: 41-43. Toshkent.
- Volin, S. 1946. "Opisanie rukopisey proizvedeniy Navoi v leningradskix sobraniyax". *Alisher Navai*. Pod red. K. Borovkova: 203-235. Moskva-Leningrad: Izdatelstvo AN SSSR.
- Jabborov, R. 2021. *Alisher Navoiy "Oqqo'yunli muxlislar devoni" va uning davr adabiy muhitida tutgan o'rni*: 247. Toshkent: Donishmand ziyosi.
- Jo'raboev, O. 2016. "Navoiy asarlari qo'lyozma va matnlarini o'rganishning ba'zi masalalari". *Alisher Navoiy va XXI asr*: 32-38. Toshkent.
- Imomnazarov, M. 2017. "Alisher Navoiy lirik merosi matnshunosligining dolzarb masalalari". *Alisher Navoiy va XXI asr*: 6-10. Toshkent: Tamaddun.
- Imomnazarov, M. 2021. *XXI asr. Alisher Navoiy lirik merosi matnshunosligi muammolari*: 64. Toshkent.
- Imomnazarov, M. 2021. *XXI asr: Alisher Navoiy lirik merosi matnshunosligi muammola*: 207. Toshkent: Donishmand ziyosi.
- Imomnazarov, M. 2022. *Musulmon mintaqa madaniyati rivojida "majoz tariqi" bosqichi*. 2-kitob. Alisher Navoiy: 510. Toshkent: Mumtoz so'z.
- Madaliev, O. 2021. *Alisher Navoiy devonlari qo'lyozmalarining tarkibiy-qiyosiy tadqiqi (O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondi qo'lyozmalari asosida)*. filologiya fanlari bo'yicha PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent.
- Madraimov, A. 2021. *Alisher Navoiy badiiy asarlarining XV-XVI asrlardagi qo'lyozmalari*: 382. Toshkent: "Fan va texnologiyalar" nashriyot matbaa uyi.
- Maksudov, B. 2020. "Vnov naydenniy spisok divana "Navadir an-nixaya" Alishera Navai". *Izuchenie istorii, iskusstva i kulturi v Tadjikistane*: 161-170. Istanbul.
- Murodov, M. 1971. *O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixi*. Toshkent: Fan.
- Maqsudov, B. 2016. "Navodir un-nihoya"ning yangi topilgan qo'lyozma nusxasi". *O'zbek tili va adabiyoti* 6: 49-52.
- Navoiy asarlari lug'ati*, NAL. 1972. Tuzuvchilar: P.Shamsiev, S.Ibrohimov. Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti".
- Navoiy dastxati (Navodir un-nihoya)*. 1991. 12 b.t. Nashrga tayyorlovchi,

- so'z boshi muallifi: S.G'anieva. Toshkent: Fan.
- Nagieva, J. 1981. "Iz klassicheskogo naslediya". *Adabiy meros* 2: 82-90. Toshkent.
- Ramazonov, N. 2003. "Rasmiy devonlarga kirmagan she'rlar". *Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami*. 20-tom: 439-471. Toshkent: Fan.
- Ramazonov, N. 2006. "Alisher Navoiyda "tahrirni tahrir". *O'zbek tili va adabiyoti* 1: 17-23. Toshkent.
- Ramazonov, N. 2007. "Yana "tahrirni tahrir" masalasi xususida". *O'zbek tili va adabiyoti* 1: 78-89. Toshkent.
- Rashidova, M. 2019. "Alisher Navoiy "Navodirun nihoya" devonining uch qo'lyozma nusxasi va ularning qiyosiy tahlili". *Imom Buxoriy saboqlari* 1: 20-21. Toshkent: Reliable print.
- Rahmatullaeva, M. 1965. *Alisher Navoiy lirikasida sinonimlar masalasi (XV asrda Sulton Ali Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan "Navodir un-nihoya" devonining unikal qo'lyozmasi asosida)*. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiya. Toshkent.
- Salohiy, D. 2004. "*Badoe' ul-bidoya*" malohati: 204. Toshkent: Fan.
- Salohiy, D. 2006. "Tahlil va talqin mas'uliyati". *O'zbek tili va adabiyoti* 1: 74-78. Toshkent.
- Sirojiddinov, Sh. 2023. *Amir Alisher*: 200. Toshkent: Adabiyot.
- Sulaymonov, H. 1960. "Navoiy tomonidan "Xazoyinul maoniy"ga kiritilmagan she'rlar". *Alisher Navoiy. "Xazoyinul-maoniy" // "Favoyidul-kibar"*, IV tom: 773-794. H. Sulaymonov ilmiy-tanqidiy matni asosidagi nashr. Toshkent: O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti.
- Suleymanov, X.S. 1955-1961. *Tekstologicheskoe issledovanie liriki Alishera Navoi / V trex tomax / tom perviy*: 415. Tashkent-Moskva.
- Turdialiev A., Erkinov A. 2018. "*Badoyi' ul-bidoya*"ning Navoiy davrida ko'chirilgan va yangi aniqlangan sanali oltinchi qo'lyozmasi (Sultonali Mashhadiy, Hirot, 889/1484-1485 yil)". *Alisher Navoiy va XXI asr*: 57-62. Toshkent: Turon iqbol.
- Tursunov, Yu. 2023. *Navoiyning hayot yo'li: yillar va manzillar*: 176. Toshkent: Zabbarjad media.
- Erkinov, A. 2018. "*Badoyi' ul-bidoya*"ning Navoiy davrida ko'chirilgan va yangi aniqlangan sanali beshinchi qo'lyozmasi (888 yil, safar oyi/1483 yil, mart-aprel). *Alisher Navoiy va XXI asr*: 51-57. Toshkent: Turon iqbol.
- Yusupova, D. 2017. "Navodir un-nihoya" faqat g'azallardan iborat devonmi?". *Alisher Navoiy va XXI asr*: 54-60. Toshkent: Tamaddun.
- Yusupova, D. 2018. "Ilk devon"dan "Oqqo'yunli muxlislar devoni"ga o'tgan g'azallar transformatsiyasi". *Alisher Navoiy va XXI asr*: 69-77. Toshkent: Turon-Iqbol.
- Yusupova, D. 2021. "Muxlislar tomonidan tuzilgan devonlar: talqin, tahlil va tahrir". *Alisher Navoiy xalqaro jurnali*. 1-son, 1-qism: 101-110. Toshkent.
- Hakimov, M. 1983. *Navoiy asarlari qo'lyozmalarining tavsifi*: 199. Toshkent: Fan.
- Hakimov, M. 1991. *Navoiy asarlarini ko'chirgan xattotlar*: 14. Toshkent: Fan.

“Gulshani jovid” qoʻlyozmalari tadqiqi

Furqat Toʻxtamuratov¹

Abstrakt

Husaynquli Muhsiniy Qoʻqonda (1860-1917) yashab ijod etgan sohibidevon, zullisonayn shoirdir. Shoirdan bizga salmoqli lirik meros yetib kelgan. Bular 1897, 1914, 1916, 1917-yillarda kitobat qilingan “Gulshani jovid” nomli devonining toʻrtta qoʻlyozma nusxalaridir. Ushbu qoʻlyozmalardan ikkitasi Toshkent va Qoʻqon shaharlari qoʻlyozma fondlari hamda muzeylarida saqlanadi. Hozirgi kunda shoirning Qoʻqonda yashayotgan avlodlari shaxsiy kutubxonasida ham ikkita qoʻlyozma mavjud.

Eng mukammal, toʻliq va yaxshi saqlangan Toshkent nusxasini nashr bilan qiyoslaganimizda yuzga yaqin yangi sheʼriy asarlar borligi ayon boʻldi. Yangi topilgan lirik sheʼrlar gʻazal, musamman, muxammas, musaddas, murabbaʼ, masnaviy, qasida, taʼrix, noma va ruboiy janrlariga mansubdir.

Ushbu maqolada Muhsiniyning nashr va qoʻlyozmalardagi sheʼrlari qiyosiy oʻrganildi. Natijada shoirning joriy imloda eʼlon qilinmagan sheʼrlaridan namunalar berildi. Mazkur sheʼrlar teran mazmun va xushohang uslubida yozilgani bilan ahamiyatli. Ayniqsa, shoir sheʼrlarida ishqiylar va diniy-tasavvufiy mavzu oʻziga xos tarzda ifodalangan. Mazkur lirik asarlar hozirgacha nashr qilinmagani bilan ham qimmatlidir.

Kalit soʻzlar: *qoʻlyozma, devon, janr, gʻazal, tabdil, adabiy muhit, qiyoslash.*

Kirish

Yurtimiz istiqloлга erishgandan soʻng Milliy uygʻonish davri adabiyotimiz namoyandalari ijodini birlamchi manbalar asosida oʻrganish va ularning asarlarini nashr qilish borasida salmoqli tadqiqotlar amalga oshirildi. Biroq ijodi kam oʻrganilgan shoirlar ham bor. Ana shunday sohibidevon shoirlardan bir – Husaynquli Sulaymonquli oʻgʻli Muhsiniydir (1860-1917). Muhsiniy 1860-yil Qoʻqon shahrining Mirzo Yodgor mahallasida savdogar oilasida

¹ Toʻxtamuratov Furqat Safarmuratovich – filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti.

E-poshta: toxtamuratov81@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-9855-2353

Iqtibos uchun: Toʻxtamuratov, F. S. 2024. “Gulshani jovid” qoʻlyozmalari tadqiqi”. *Oltin bitiglar* 1: 40 – 56.

tug‘ilgan. U dastlabki ta‘limni o‘z mahallasida olib, keyin Qo‘qondagi Sultonmurodbek madrasasida tahsil oladi. Madrasada fors tili va adabiyotini o‘rganadi. Abdulmo‘min Shahrixoniydan arab tili va diniy bilimlarni o‘zlashtiradi. Muhsiniy bir muxammasida yozishicha, madrasada ilm olishida amakisi Nabiqulning yordami katta bo‘lgani va 19 yoshida hajga borganini ham ta‘kidlaydi. Shuningdek, “Ma‘zratnoma Muhsiniy baxiyi arjumandiyi xud” nomli masnaviyda haj safari xotiralarini yozib qoldirgan. Shoir lirik she‘rlarini jamlab devonchilik an‘anasiga muvofiq devon tartib beradi. Devonini “Gulshani jovid” deb nomlaydi va unga debocha ham bitadi.

Mumtoz shoirlardan Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Amiriy va Nodiralalar ijodining ta‘siri Muhsiniy she‘riyatida seziladi. Ushbu ta‘sirilar haqida devonga yozilgan debochada zikr qilingan, shuning barobarida, ularning she‘rlariga nazira va taxmislar ham bog‘lagan. Zamondosh shoirlaridan Muqimiy, Furqat, Muhiy, Zoriy va Tavallolar g‘azallariga muxammas va naziralar yozgan. Muhsiniy mumtoz adabiyotning g‘azal, mustazod, muxammas, musaddas, musamman, masnaviy, tarje‘band, noma, qasida, ta‘rix va ruboiy kabi she‘riy shakl va janrlarda samarali ijod qilgan.

Shoir she‘riyatda shartli tarzda ishqiy, diniy-tasavvufiy, axloqiy-falsafiy, ma‘rifatparvarlik va ijtimoiy mavzularga ajratishimiz mumkin. Adib she‘riyatida ishqiy va diniy-tasavvufiy mavzu yuksak pafos bilan tarannum etilgan. Shu bois Muhsiniyni Milliy uyg‘onish davrida diniy-tasavvufiy mavzularda ijod qilgan shoirlardan hisoblanadi.

“Gulshani jovid” devonining qo‘lyozma nusxalari

Qo‘qon adabiy muhiti shoirlari o‘zlarining betakror lirik asarlari bilan mumtoz adabiyotimiz taraqqiyotiga sezilarli ta‘sir qilgan. Husaynquli Muhsiniy ham zamondosh ijodkorlari kabi davr ruhini ifodalagan asarlar yozgan sohibidevon, zullisonayin shoirlardan biridir. Shoirdan bizga salmoqli adabiy meros yetib kelgan. Mazkur adabiy meros qo‘lyozma shaklida bo‘lib, “Gulshani jovid” devonining 1897, 1914, 1916, 1917-yillarda ko‘chirilgan to‘rtta nusxalaridir. Ushbu qo‘lyozmalar Toshkent va Qo‘qon shahar fondlari hamda muzeylarida saqlanadi. Shuningdek, hozirgi kunda yashayotgan shoirning qo‘qonlik avlodlari qo‘lida ham ikkita qo‘lyozma mavjud. Shoirning Qo‘qon adabiyot muzeyida yana 178 raqamli bayoz va 79/12/ raqamli konvert papkada ham

she'rlari saqlanadi.

Muhsiniy avlodlaridan shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan ilk qo'lyozma devon. Hozirgi kunda shoirning Qo'qon shahrida yashovchi avlodlaridan Madaminjon Nuriddinov qo'lida devonning yana bir nusxasi saqlanadi. Qo'lyozma devon 140 sahifadan iborat bo'lib, shoirning dastxati bilan siyohrang va qora siyohda bitilgan. Devonga g'azal, qasida, masnaviy, murabba', muxammas, qasida jarniga mansub she'rlar kiritilgan bo'lib, 4200 misrani tashkil etadi. Mazkur manbada she'rlar qat'iy tartibga amal qilinmasdan aralash tarzida kitobat qilingan.

Shoir avlodlari shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan ikkinchi qo'lyozma devon. Devon yaxshi saqlangan, biroq ayrim sahifalarida siyoh to'kilgan va she'r matnlari chaplashgani kuzatiladi. Qo'lyozma devon kotibi Muhsiniyning o'zidir. Devon rus fabrika qog'oziga qora rangli siyohda nasta'liq xatida mayda harflar bilan ko'chirilgan. Mazkur devon jami 210 sahifani tashkil etadi. Debocha 2^b-9^b-sahifalardan o'rin olgan. Debochadan so'ng 9^b-sahifada kolofonda forscha *"Tamom shud sana 1333 jumadu-s-soniy no'hum ast, ya'ni jumadu-s-soniy oyining 9-kuni (milodiy 1914-1915-yilga to'g'ri keladi) tugatilgan, deb kitobat sanasi ko'rsatilgan.*

Devonda jami 6 ta qasida bo'lib, ulardan 1 tasi o'zbek va 5 tasi fors-tojik tilidadir. Qo'lyozmada 38 ta ta'rix, o'rin olgan bo'lib, shulardan 10 tasi fors-tojikchadir. Ushbu qo'lyozma devonda jami 236 ta g'azal, 24 ta muxammas, 3 ta musamman, 2 ta tarje'band, 3 ta musaddas, 2 ta masnaviy, 6 ta maktub kiritilgan. Devondagi she'rlarning umumiy hajmi 7438 misradir.

4303 raqamli qo'lyozma devon. Qo'qon davlat muzey-qo'riqxonasi qoshidagi Qo'qon adabiyot muzeyida 4303 raqam ostida saqlanayotgan ushbu manba turli rangdagi rus fabrika qog'oziga qora siyohda nasta'liq xatida qiya shaklda har bir sahifaga 10 baytdan ko'chirilgan. Ushbu manbada shoirning g'azal, muxammas, tarje'band, musamman, murabba', musaddas va maktub janrlaridagi she'rlari kiritilgan. Qo'lyozmadan shoirning 239 ta g'azal, 32 ta muxammas, 3 ta musamman, 2 ta musaddas, 1 ta murabba', 2 ta tarje'band, 4 ta maktub, 1 ta masnaviy janriga oid 7000 misradan ortiq she'rlari o'rin olgan.

178 raqamli qo'lyozma bayoz. Qo'qon davlat muzey-qo'riqxonasi qoshidagi Qo'qon adabiyot muzeyida saqlanadi. Bayozdan Muhsiniyning "alif" harfi bilan tugagan 12 ta o'zbekcha va 4 ta forscha – jami 16 ta g'azali o'rin olgan. Ulardan 4 tasi to'qqiz,

3 tasi etti va 3 tasi sakkiz baytli g‘azallardir. Bundan tashqari, bittadan 10, 11, 13, 18 baytli, ikkita 12 baytli g‘azallari ko‘chirilgan. Qo‘lyozma bayozda jami 308 misra she‘r jamlangan.

79/12 raqamli qo‘lyozma konvert papka. Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasi qoshidagi Qo‘qon adabiyot muzeyi fondida 79/12 raqamli konvertda Muhsiniyning bir mustazodi yozilgan qo‘lyozma varaq saqlanadi. Shu bilan birga, ushbu konvertda ikkita qog‘ozda qora siyohda 1 ta 9 baytli, 1 ta 10 baytli va 1 ta 7 baytli o‘zbekcha g‘azal yozilgan. Jami 26 bayt 52 misra she‘r bor.

Qo‘lyozma bayozda Alisher Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Amiriy, Mavlaviy kabi ulug‘ shoirlarning sara g‘azallari ham kitobat qilingan. Mazkur manba ham shoir dastxati bilan ko‘chirilgani bilan qimmatlidir.

7392 raqamli qo‘lyozma devon. Mazkur manba O‘zR FASHI fondida 7392 raqam ostida saqlanadi. Ushbu manba 1917-yilda Muhsiniyning so‘nggi tahriri bilan ko‘chirilgan dastxat nusxadir. Qo‘lyozma rus fabrika qog‘ozida qora siyohda nasta‘liq yozuvida kitobat qilingan. Qo‘lyozma 168 sahifa bo‘lib, yaxshi saqlangani va matniy saktaliklardan holi ekanligi bilan ham tayanch nusxa hisoblanadi. Oldingi qo‘lyozmalardagi ko‘plab she‘rlar muallif tomonidan tahrir qilinib devonga kiritilgan. Muallif devondagi she‘rlarning yozilishida ham o‘ziga xos shakllardan foydalangan. Masalan, g‘azallar to‘g‘ri chiziqli bo‘ylab sahifa ikkiga bo‘linib, har bir qismiga 15 qatordan yozilgan. Muxammas, musaddas, musamman, tarje‘band, noma, qasida, tarix va ruboiylar esa qiya shaklda sahifa ikki bo‘lakka ajratilib, har bir bo‘lakka 10 qatordan bitilgan. G‘azallar boshqa janrdagi she‘rlarga nisbatan chiroyli husnixat bilan kitobat qilingan.

Mazkur dastxat devonga 239 ta o‘zbekcha va forsa g‘azallar kiritilgan. Qo‘lyozmada devon tartib berish an‘anasi-ga muvofiq deyarli barcha arab alifbosidagi harflar bilan tugagan g‘azallar bitilgan. Faqat ج – j harfi bilan yakunlangan g‘azal yozilmagan. Devonga 22 ta muxammas, 3 ta musamman, 2 ta, musaddas, 2 ta tarje‘band, 1 ta masnaviy, 8 ta noma, 7 ta qasida, 31 ta ta‘rix, 28 ta ruboiy kiritilgan. So‘nggi o‘rganishlar natijasida №7392 dastxat devonda Muhsiniyning 7426 misra she‘r mavjudligi aniqlandi.

Shoir ijodida an‘anviylik

Qo‘qon adabiy muhiti shoirlari o‘zlarining betakror lirik asarlari bilan mumtoz adabiyotimiz taraqqiyotiga sezilarli ta‘sir qilgan. Ayniqsa, XIX oxiri – XX boshlarida Milliy uyg‘onish davri

adabiyoti namoyandalari she'riy asarlari janr va mavzu ko'lamiga ko'ra ma'lum bir o'zgarishlarga uchradi. Ming yillik mumtoz adabiyotimizda qo'llanilib kelingan ishqiy, diniy-tasavvufiy, axloqiy-didaktik mavzular o'rnini jaholat, ilmsizlik, vatan va millat ravnaqi uchun qayg'urish tuyg'ulari ifodalangan asarlar egalladi.

Ushbu davrda Turkiston diyori bir tomondan, mutaasib ruhoniylar, adolatsiz hukmdor va mansabdorlar zulmidan aziyat cheksa, ikkinchi tomondan Chor Rossiyasi mustamlakasi istibdodi ostida qolgan edi. Shu bois adolatsiz jamiyatdan ezilgan xalq dardi adabiyotning tasvir obyektiga aylandi. Natijada, adabiyotimizdagi an'anaviy obraz, timsollar yangi ma'no va mazmun kasb etadi. Bu davrda ijtimoiy muammolarni tasvirlash badiiy adabiyotning asosiy vazifasiga aylandi. Ma'lumki, ushbu davrda Turkistonning Xiva, Buxoro, Qo'qon, Toshkent va Samarqand kabi qadimiy shaharlarida adabiy muhit shakllangan edi. Ayniqsa, Qo'qon adabiy muhiti shoirlari o'tkir ma'rifatparvarlik va ijtimoiy ruh ifodalangan she'rlari bilan adabiyotimizga yangicha ohanglar olib kirdi. Professor Begali Qosimov o'tgan asr boshlaridagi o'zbek adabiyoti haqida bunday yozadi: "1905–1917-yillardagi adabiy-madaniy harakatchilikning xarakterli xususiyatini mana shu qizg'in va shiddadli, ayni paytda juda murakkab va tabiiy bo'lgan kurash tashkil etadi. Adabiyot hech qachon bu qadar keskin g'oyaviy-siyosiy kurashlar maydoniga aylanmagan edi" [Qosimov 1983, 28].

Darhaqiqat, Muhiy, Muqimiy, Furqat, Zavqiylar ijodida bo'y ko'rsatgan ma'rifatparvarlik va ijtimoiylik g'oyalari o'lkaning boshqa hududlaridagi shoirlari asarlarida ham o'z aksini topdi.

XX asr boshlaridagi shoirlar ijod yo'nalishi haqida B. Qosimov boshqa bir asarida yozadi: "Asrimizning dastlabki yigirma yilida shakllangan yangi she'riyat an'anaviy diniy-tasavvufiy she'riyat bilan yonma-yon yashadi. Mirmahmud Qoriy (1834–1904), Yusuf Saryomiy (1845 – 1912), Usmonxo'ja Zoriy (1839–1916), Husaynqul Muhsiniy (1860 – 1917), ayniqsa, Ziyovuddin Haziniy (1861– 1921) bu yo'lda samarali ijod etdilar: "Devoni Qoriy" (T., 1912), "Devoni Yusuf Saryomiy" (T., 1332 h.), "Bayozi Haziniy" (T., 1911), "Devoni Muhsiniy" (qo'lyozma, O'zFAShI inv.Nº 7392) va h. k" [Qosimov 2004, 173].

Qo'qonlik shoir Muhsiniy ham salafлари ta'sirida ishqiy, diniy-tasavvufiy, ma'rifatparvarlik va ijtimoiy mazmundagi she'rlar yozdi. Shoir bir g'azalida yurt va zamon manzarasini tasvirlab achchiq til bilan bunday yozadi:

Nifoq-u kufr bilan to'ldi olam,

Buxoro, xoh Farg‘ona, xoh Urganj [Muhsiniy 2008, 22].

Lirik qahramon nazdida yurt jaholat va zalolat botqog‘iga botgan. Buxoro, Farg‘ona va Urganch kabi ilm-ma‘rifat markazi bo‘lgan shaharlar ham kufr hamda nizolar bilan to‘lgan. O‘lkaning shu holatga tushishiga sabab turkistonliklarning ma‘rifatsizligi va g‘aflat uyqusidan uyg‘onmaganligidir. Shoir she‘rlarida hazin ohanglar ustuvor bo‘lsa-da, so‘nggi satrlar nekbin tuyg‘ular bilan yakunlanadi. Shu bois shoir Vatan ravnaqi va kelajagiga umid bilan qaraydi, hamda bu jaholat zamoni o‘tib yaxshi davrlar kelishiga ishonadi. Mana o‘sha tuyg‘ular ifodalangan bayt:

*Charx davridan umiding uzmagil, ey Muhsiniy,
Aylanub kelg‘ay o‘zini o‘rnig‘a pargorimiz*

[Muhsiniy 2008, 38].

Nashr va qo‘lyozma qiyosi

Qo‘qon adabiyoti muzeyi ilmiy xodimi Usmonjon Ne‘matov ko‘p yillik izlanishlari natijasida Muhsiniy devonini “Barhayot gulshan” nomi bilan 2008-yil nashr qildirdi. Ushbu nashrda shoirning g‘azal, mustazod, muxammas, musaddas, musamman, tarje‘band, noma, qasida, ta‘rix va ruboiy kabi janrlarda yozilgan 4241 misra she‘rlari kiritilgan. So‘nggi izlanishlarimiz natijasida shoirning qo‘lyozmalaridan yuzga yaqin turli janrlardagi she‘riy asarlari joriy nashrga kiritilmay qolganini aniqladik.

Matnshunoslik ishlari mumtoz adabiyot bo‘yicha qilinadigan tahlil va tadqiqotlarning ilmiy ahamiyatini oshiradi. Matnshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari o‘rtasidagi bog‘liklik haqida professor N. Jabborov bunday yozadi: “Bu fanning adabiyotshunoslik bilan o‘zaro munosabatiga kelsak, matnshunoslik izlanishlari bo‘lmasa, adabiyotshunoslik tadqiqotlari aksar hollarda o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Agar adabiy manbani yaxlit bir imoratga qiyoslansa, matnshunoslik uning poydevoridir. Adabiyotshunoslik ana shu poydevor ustiga qurilmog‘i zarur. Aks holda poydevorsiz inshoot singari omonat bo‘lib qoladi” [Jabborov 2020, 51].

Ma‘lum bir shoir devoni qo‘lyozmalaridan tayanch nusxani tanlash haqida akademik, Sh. Sirojiddinov fikri quyidagicha: “Matnshunoslikda ilmiy-tanqidiy matn shaklini tuzishda tayanch va asos nusxalarni tanqidiy o‘rganish, to‘g‘ri ilmiy xulosaga kelish muhimdir” [Sirojiddinov, Umarova 2017, 89].

Yuqorida keltirilgan qo‘lyozma manbalar orasida 7392 raqamli Toshkent nusxasi birinchidan, shoirning o‘z qo‘li bilan ko‘chirilgan avtograf nusxa ekani, ikkinchidan, ijodkor asarlarining

turli janr namunalari jamlangani, uchinchidan, debocha bilan ta'minlangani, to'rtinchidan, matnning ishonchli va mukammalligiga ko'ra tayanch manba bo'la oladi.

Muhsiniy devonining 7392 raqamli qo'lyozmasi shoir asarlarining mavjud nashrlari bilan qiyoslash natijasida ijodkorning shu paytgacha ilm ahliga ma'lum bo'lmagan 75 ta g'azal, 1 ta murabba, 8 ta muxammas, 1 ta musaddas, 1 ta musamman, 1 ta qasida, 2 ta masnaviy, 1 ta maktub, 1 ta ruboiy, 7 ta ta'rix janrlariga doir jami 2241 misra yangi she'rlarini aniqladik. Bundan tashqari, shoir devonining "Barhayot gulshan" nomi bilan chop etilgan nashridagi ayrim she'riy asarlardan tushirib qoldirilgan misralar, baytlar va bandlar aniqlanib, turli janrlardagi she'rlarning ishonchli matnlari tiklandi. Ushbu matnshunoslik ishlari shoir adabiy merosi haqidagi mavjud tasavvurlarni boyitishi jihatidan qimmatlidir.

Shoirning yangi topilagan she'rlari mazmun mohiyati

Muhsiniyning qo'lyozmalardan topilgan yangi she'riy asarlari mavzu ko'lami keng va rang-barangligi, hayotiy-falsafiy mohiyat teran ifodalangani bilan ajralib turadi. Shoir she'rlarida ishqiy, diniy-tasavvufiy, marifatparvarlik, axloqiy-falsafiy va ijtimoiy mavzular yoritilgan.

7392 raqamli qo'lyozma devon mumtoz devon tartib berish an'alariga muvofiq tarzda tartib berilganini ko'rishimiz mumkin. Devonga maxsus debocha yozilgan bo'lib, undan so'ng alifbo tartibida hamd, na't, ishqiy va boshqa mazmundagi g'azallar hamda turli janrdagi she'rlar kiritilgan. Mazkur manba asosida tabdil qilingan shoirning yangi she'rlarida an'anaviy ishqiy va diniy-tasavvufiy mavzular o'ziga xos tarzda pafos bilan ifodalanadi. Ushbu g'azallarda diniy tushunchalarga alohida urg'u berilib, oyat va hadislardan bir so'z va birikmalar keltirilib, iqtibos san'atining yorqin namunasi hosil qilingan. Natijada, g'azallar mazmunan teran, shaklan ohangdorlik kasb etgan. Shoirning bir qancha g'azallarida Qur'on oyatlari va hadisi shariflar hamda islomiy manbalar mazmun-mohiyati badiiy talqin qilingan.

Shu vaqtgacha ilm va adabiyot ahliga noma'lum bo'lgan, Muhsiniyning bir qancha yangi g'azallaridan namunalarni kitobxonlar hukmiga havola qilamiz. Mazkur g'azallar O'zRFASHI №7392 inventar raqamli dastxat devondan tabdil qilingan va qo'lyozma matni asosida arab alifbosidagi shaklini ham berdik.

معرفت نوريله كونگلوم نى ضيا قيلغيل كريم
خاطر يمد ين زنگ گردىنى صفا قيلغيل كريم
محو اولسون كيم دليم آينه سينده تيره لينغ
برچه تعليق جهان دين ماسوا قيلغيل كريم
اوتسه عمروم ذكر فكرينگ بيرله دايم صبح شام
دلده تيلده ورد ذكريم ربنا قيلغيل كريم
قالميشم عصيان قرانغوسيده يولدين مين آريب
شمع توفيقيم يولومغه رهنما قيلغيل كريم
يار ياور ايلان مردان حقلرنى منگا
اهل عرفانلار ايليغه آشنا قيلغيل كريم
تانگلا محشرده منى لب تشنه كوثر بوينده
دست گر اول على المر تضى قيلغيل كريم
اولميشم نفسى هوايى دامىغه بنداسير
بو اولوغ دشمن نى قيددين رها قيلغيل كريم
طوف بيت الله ايلاب آرزو هر صبح شام
بر آوچ خاكيم نى اول بيرلارغه جا قيلغيل كريم
اولين آخريں جمع اولسه محشرگاه ارا
بس شفييعيمنى محمد مصطفى قيلغيل كريم
جرم عصيان قفليده بسته ايرور كونگلوم اويى
انى مفتاح معارف بيرله وا قيلغيل كريم
تابمديم دانش دين اوزگا كسب تا اولغاي مفيد
محسنى نينگ انى ايلان مبتلا قيلغيل كريم

*Ma'rifat nuri-la ko'nglumni ziyo qilg'il, Karim,
Xotirimdin zangi gardini safo qilg'il, Karim.*

*Mahv o'lsinkim dilim oyinasinda tiyralig';
Barcha ta'liqi jahondin mosuvo qilg'il, Karim.*

*O'tsa umrim zikri fikring birla doim subh-u shom,
Dilda, tilda vurd zikrim "Rabbano" qilg'il, Karim.*

*Qolmisham isyon qorong'usida men yo'ldin ozib,
Sham'i tavfiqim yo'lumg'a rahnamo qilg'il, Karim.*

*Yor-u yovar aylabon mardon haqlarni mango,
Ahli irfonlar elig'a oshino qilg'il, Karim.*

*Tong-la Mahsharda mani labtashna kavsar bo'yida,
Dastgiri ul Alyyul Murtazo qilg'il, Karim.*

*O'lmisham nafs havoyi domig'a band-u asir,
Bu ulug' dushmanni qaydidin raho qilg'il, Karim.*

*Tavf Baytullohi aylab orzu har subh-u shom,
Bir ovuch xokimni ul erlarg'a jo qilg'il, Karim.*

*Avvalin-u oxirin jam' o'lsa Mahshargoh aro,
Bas shaf'imni Muhammad Mustafo qilg'il, Karim.*

*Jurm-u isyon quflida basta erur ko'nglum uyi,
Oni miftohi ma'orif birla vo qilg'il, Karim.*

*Tobmadim donishdin o'zga kasb to o'lg'oy mufid,
Muhsiniyning oni ilan muftalo qilg'il karim*

[Muhsiniy. Devon. Qo'lyozma. №7392. 62^{ab}].

ای کیلن وصفی جمیلینگ آیت فر قان سنگا
محض رحمت دور وجودینگ معدنی غفران سنگا
مینگ صلوة مینگ سلام یوز مینگ تحیات بنام
ایلاسون ربیم همیشه لطفیدین احسان سنگا
ایکی نرگس کوزلرینگ تفسیری ما زاغ البصر
نعت اوصاف کما لا یتینگده الرحمان سنگا
کوروبان اهل ملل لار راه اذیانین غلط
چکتی لار نسخینه اوز رسمینی هر ادیان سنگا
اولکونی تابد ینگ حریم قاب قوسینا مقام
کورسا توب انده جمالین حضرت سبحان سنگا
ایلاغان آینی اشارنک برله برماغینگ بیلان
ایلا ینگ ایکی برابرکیم ایدی فرمان سنگا
فیض حق بر لان کیلیب سین مبدء فیاضیدین
خلعت جنس رسالت کوردی استحسان سنگا
ایلاگا یمین جانیمی گر یتسه روضنگ طوقینه
نذر خاک آشیانینگ اوزره کیم فرمان سنگا
تانگلا زاهد امتینگ طاعتلارین کیلتورسه لار
کیلتورور بو مُحسنی یوز تُحفه عصیان سنگا

*Ey kelan, vasfi jamiling oyati Furqon sango
Mahz rahmatdur vujuding ma'dani g'ufuron sango.*

*Ming salot-u ming salom yuz ming tahiyot-u banom.
Aylasun Rabbim hamisha lutfidin ehson sango.*

*Ikki nargis ko'zlaring tafsiri mazog'albasar,
Na't avsof-u kamolotingda ar-Rahmon sango,
Ko'rubon ahli milallor rohi adyonin g'alat,*

*Chektilar nasxina o‘z rasmini har adyon sango,
Ul kuni tobding harimi qobi qavsayno maqom,
Ko‘rsatub anda jamolin hazrati Subhon sango,
Aylag‘on oyni ishorang birla barmog‘ing bilan,
Aylading ikki barobarkim edi farmon sango,
Fayzi Haq birlon kelibsen mabdayi fayyozidin,
Xil‘ati jinsi risolat ko‘rdi istihson sango,
Aylagoymen jonimi gar yetsa ravzang tavqina,
Nazri xoki oshyoning uzra kim farmon sango,
Tongla zohid ummating toatlarin keltursalar,
Kelturur bu Muhsiniy yuz tuhfayi isyon sango*
[Muhsiniy. Devon. Qo‘lyozma. №7392. 11^{-b}-12^{-a}].

Muhsiniy lirik merosining salmoqli qismini an‘anaviy ishqiy she‘rlar tashkil qiladi. 7392 inventar raqamli qo‘lyozmada joriy nashrlarga kiritilmagan bir qancha g‘azallari mavjud. Mazkur she‘rlarda shoir lirik qahramonning muhabbati va ma‘shuqa qiyofasini betakror tashbeh va sifatlashlar bilan tasvirlaydi. Ayniqsa, *“Muborak”* radifli g‘azali oshiqning ma‘shuqaga bo‘lgan tuyg‘u va kechinmalarini jo‘shqin hissiyotlar bilan tarannum e‘tilgani bilan ahamiyatlidir. Ushbu g‘azal musajja’ g‘azalning ham go‘zal namunasi hisoblanib, ikkinchi baytdan maqta‘gacha ichki qofiyalanish tartibiga to‘liq amal qilinib yozilgan.

“G‘azali musajja’ (ikkinchi baytdan boshlab ichki qofiya qo‘llaniladigan) – Navoiy, Bobur, Mashrab she‘riyatida keng qo‘llanilgan” [Yusupova 2022, 174].

G‘azalda ishq ulug‘lanadi, ishq-muhabbat oshiq qalbi va joniga ozor berishi go‘zal shakl va teran mazmun bilan tasvirlanadi. Ishq yo‘li xatarli yo‘l bo‘lib, go‘yoki g‘amdan xabar beradi. Gohida ishq sinovlari jonga zarar berishi yoki yuz mojaroga sabab bo‘lishi ham mumkinligi ifodalanadi. Biroq oshiq ushbu xatarli va ozorli holatni muborak tuhfa sifatida qabul qiladi. Mana yuqoridagi fikrlarimizni asoslaydigan bayt:

*Rohi xatar erur ishq, g‘amdin xabar erur ishq,
Jong‘a zarar erur ishq, yuz mojaro muborak*

[Muhsiniy. Devon. Qo‘lyozma. №7392 50^{-a}].

Shoirning bir qancha yangi tabdil qilingan g‘azallarida ham ishq-muhabbat mavzusi yorqin tashbehtar bilan yo‘g‘rilgan va xushohang usulda yozilgani bilan ajralib turadi. Mazkur g‘azalda

ham ishq tarannum etilgan:

ای چشمی فتنه جلّاد جور جفا مُبارک
جانیمغه سالدی بیداد روز دغا مُبارک
اولدی خراب حالم نورسته نونهلیم
اولغای سنگا اوبالیم روز جزا مُبارک
تاکی چکر فراقینگ هم بار اشتیا قینگ
گوز اوچی برله با قینگ ای مهلقا مُبارک
صیّاد چشمی جادو چون دانه خال هندو
آلغای غزاله آهو آدم ربا مُبارک
رخساره چون قزیل گل مین تلبه زارو بلبل
آواز ایشتنسه قُلُقُل ذوق صفا مُبارک
خوناب غُصّه غم کوزیمنی قیلدی پُرنم
قیلسام غبار مقدم مین توتیا مُبارک
ظلم ایتمه یار بدخو ای ظالم جفاجو
برعاشق دعاگو ایلار دعا مُبارک
راه خطر ایرور عشق غمدین خبر ایرور عشق
جانغه ضرر ایرور عشق یوز ماجرا مُبارک
ای مُلک حُسن شاهی نی مُحسنی گناهی
یتی فلک که آهی شام صبا مُبارک

*Ey chashmi fitna jallod, javr-u jafu muborak,
Jonimg'a soldi bedod, ro'zi dag'o muborak.*

*O'ldi xarob holim, navrasta navniholim,
O'lg'oy sengo ubolim, ro'zi jazo muborak.*

*Toki chekar firoqing, ham bor ishtiyoqing,
Ko'z uchi birla boqing, ey mahliqo muborak.*

*Sayyodi chashmi jodu, chun dona xoli hindu,
Olg'ay g'azola ohu, odamrabo muborak.*

*Ruxsora chun qizil gul, man telba zor-u bulbul,
Ovoz eshitsa "qul-qul", zavqi safo muborak.*

*Xunobi g'ussayi g'am, ko'zimni qildi purnam,
Qilsam g'ubori maqdam, men, to'tiyo muborak.*

*Zulm etma yori badxo', ey zolimi jafajo',
Bir oshiqi duogo', aylar duo muborak.*

*Rohi xatar erur ishq, g'amdin xabar erur ishq,
Jong'a zarar erur ishq, yuz mojaro muborak.*

Ey, mulki husn shohi, ne Muhsiniy gunohi,

Yetti falakka ohi, shom-u sabo muborak

[Muhsiniy. Devon. Qo'lyozma. №7392 50^a].

"Qorako'z" radifli g'azalida lirik qahramon yor go'zalligini ta'riflash barobarida, uning makr-hiylalari manbai ko'zi ekanligini ta'kidlaydi. Chunki mumtoz she'riyatimizda ko'z *"fitna"* qo'zg'ovchi a'zo sifatida talqin qilinadi. Haqiqiy ishq oshiqning ko'zi ma'shuqa ko'ziga tushgan holatdan boshlanadi. Keyingi misrada, ko'zning amri bilan ikki qosh qilichi oshiqni *"qatl qilishi"* ya'ni o'ziga asir qilib olishi betakror shaklda tasvirlangan. Mana yuqorida tavsiflangan "Qorako'z" radifli g'azal:

كوز لارينگ فتنه سيدور جانغه بلا ای قرا كوز

هر برين غمزه سيدور اينجه بيا ای قرا كوز

قتل عام ايتی كوزونگ امريله قاتينگ قيلیچی

برقلم برله همه نامه سیا ای قرا كوز

بزغه يوز ناز تغافل ستم جور جفا

قيله اغياريم ايله ذوق صفا ای قرا كوز

ايلادينگ بزگا نيچه مرتبه يلغان وعده

يوقمو حسن اهليدا بر ذره وفا ای قرا كوز

عرض احواليم سور ملك ملاحت شاهي

درگهنگده ياتا دور زار گدا ای قرا كوز

گل يوزونگ يادیده بو مُحسنی تارتار افغان

عندليبی که چکراه نوا ای قرا كوز

Ko'zlaring fitnasidur jong'a balo, ey qaroko'z,

Har birin g'amzasidur inja biyo, ey qaroko'z.

Qatliom etti ko'zing amri-la qoshing qilichi,

Bir qalam birla hamma nomasiyo, ey qaroko'z.

Bizg'a yuz noz-u tag'oful sitam-u javr-u jafu,

Qila ag'yorim ila zavq-u safo, ey qaroko'z.

Aylading bizga necha martaba yalg'on va'da,

Yo'qmu husn ahlida bir zarra vafo, ey qaroko'z.

Arzi ahvolimi so'r mulki malohat shohi,

Dargahida yotadur zor-u gado, ey qaroko'z.

Gul yuzing yodida bu Muhsiniy tortar afg'on,

Andalibiki chekar oh-u navo, ey qaroko'z

[Muhsiniy. Devon. Qo'lyozma. №7392 32^b].

مهوشا کُلبم ارا ایلاب صفا خوش کیلد ینگیز
شام هجرانیم نی ایلاب پُرسنا خوش کیلد ینگیز
مدتی بیگانه ایردینگز رقیب لارسوزیله
بولدینگیز مو ایمدی یارُ آشنا خوش کیلد ینگیز
تولدوروب بویی مُعنیر کاکلینگ دین حُجره می
ساچلاری نی نگهتی مُشک ختا خوش کیلد ینگیز
گُمره سرگشته ایردیم تیره هجران کونلاری
کیم بولوب مهر رُخیله رهنما خوش کیلد ینگیز
نرگس چشمینگ خیالیده تنی بیمار ایدیم
ایلابان کام و صا لילה دوا خوش کیلد ینگیز
غرقه بحری سرشک چشم ایردی جسمُ جان
ساحل موج نجاتیم ناخدا خوش کیلد ینگیز
ایلار ایردی مُحسنی قَدْ یَنی سرمشق جنون
برماقه تعلیم انگا موزون ادا خوش کیلد ینگیز

*Mahvasho, kulbam aro aylab safo, xush keldingiz,
Shomi hijronimni aylab pursano, xush keldingiz.*

*Mudati begona erdingiz raqiblar so'zi-la,
Bo'ldingizmu emdi yor-u oshino, xush keldingiz.*

*To'ldurub bo'yi muanbar kokulingdin hujrami,
Sochlarini nakhati mushki xito, xush keldingiz.*

*Gumrahi sargashta erdim tiyra hijron kunlari,
Kim bo'lub mehr-u ruxi-la rahnamo, xush keldingiz,*

*Nargisi chashming xayolida tani bemor edim,
Aylabon komi visoli-la davo, xush keldingiz.*

*G'arqayi bahri sirishki chashm erdi jism-u jon,
Sohili mavji najotim noxudo, xush keldingiz.*

*Aylar erdi Muhsiniy qaddini sarmashq junun,
Bermoqa ta'lim anga mavzun ado, xush keldingiz*

[Muhsiniy. Devon. Qo'lyozma. №7392 50^a].

ای پری رویوم کورار غه والَه زار اولمیشم
کوز توتوب یولونگده یا مشتاق دیدار اولمیشم
دردی هجرانینگ نی تارتوب دایما هر صبحُ شام
شدت ضعفیله جسم خسته بیمار اولمیشم
سا نچلوب سینم غه تیر غمزَه مژگانلار ینگ
زخمناک پاره مجروح افکار اولمیشم

بر کوروب عقلم آيينه حسن جمال
صورت بيجان کبی چون نقش دیوار اولمیشم
کوز لارینگ نرگس لاریدین بولدی احوالیم خراب
رحم ایله بر سورمدینگ تا ناتوان زار اولمیشم
سین عزیز اول حُسن مصر ایچره ای یوسف جمال
گرچه خاک آستانینگ اوزره مین خار اولمیشم
نچه ظلم ایتسه کونگل اوزمم پریلار عشقیدین
کوچه مهز مُحَبَّت ایچره بیعار اولمیشم
ساقا لعل لبینگدین جامی دورانیم نی قوی
عمرلار هجر ایلکیدین لب تشنه خمار اولمیشم
مُحسَنی شیرین کلام اوصاف حُسنک نی دیبان
شکرالله مدھینگ ایله تازه گفتار اولمیشم

*Ey pariyo'yim, ko'rarg'a vola-u zor o'lmisham,
Ko'z tutib yo'lungda yo mushtoqi diydor o'lmisham.*

*Dardi hijroningni tortib doimo har subh-u shom,
Shiddati za'fim-la jismi xasta bemor o'lmisham.*

*Sanchilub siynamg'a tiyri g'amzayi mujgonlaring,
Zaxmnoki pora-u majruh-u afkor o'lmisham.*

*Bir ko'rub aqlim ozib oyinayi husni jamol,
Suvrati bejon kibi chun naqshi devor o'lmisham.*

*Ko'zlaring nargislaridin bo'ldi ahvolim xarob,
Rahm ila bir so'rmading to notavon zor o'lmisham.*

*Sen Aziz ul husni Misri ichra ey, yusuffjamol,
Garchi xoki ostonang uzra men xor o'lmisham.*

*Necha zulm etsa ko'ngil uzmam parilar ishqidin,
Ko'chayi mehr-u muhabbat ichra beor o'lmisham.*

*Soqiyo, la'li labingdin jomi davronimni quy,
Umlar hajr ilkidin lab tashna xummor o'lmisham.*

*Muhsiniy shirin kalom avsof-u husningni debon,
Shukrulilloh madhing ila toza guftor o'lmisham*

[Muhsiniy. Devon. Qo'lyozma. №7392 58^b].

Xulosa

Yuqoridagi kuzatishlar asosida quyidagi xulosaga keldik:
Mumtoz shoirlarimiz adabiy merosini birlamchi manbalar

asosida qiyosiy o'rganish, mavjud nashrlarda uchraydigan matniy xatoliklarni bartaraf etadi.

Qo'lyozmalarni sinchkovlik bilan tadqiq etish natijasida yangi she'riy asarlarni topish va keng ilm ahliga taqdim qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

Manbalarni qiyoslash jarayonida she'riy asarlar matni ustida muallif tomonidan amalga oshirilgan tahrirlar aniqlanadi va muhim nazariy xulosalarga kelinadi.

Husaynquli Muhsiniyning nashr qilingan devoni va uning qo'lyozma manbalarini qiyoslash natijasida yangi she'rlari aniqlandi, hamda ilmiy jamoatchilikka taqdim etilmoqda. Shoir adabiy merosini to'liq holda ilmiy muomalaga olib kirish dolzarb masala hisoblanadi. Muhsiniyning lirik merosini qo'lyozma manbalar asosida qiyosiy o'rganib, matniy saktaliklardan holi to'ldirilgan nashrini amalga oshirish galdagi vazifalardandir.

Adabiyotlar

- Қосимов, Б. 1983. *Излай-излай топганим...* Рисола. Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Қосимов, Б. ва бошқа; 2004. *Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти*. Тошкент: Маънавият нашриёти.
- Муҳсиний. 2008. *Барҳаёт гулшан*. Фарғона: Фарғона нашриёти.
- Муҳсиний. *Қўлёзма. Девон*. ЎЗР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти асосий фонди. 7392 рақамли қўлёзма. 168 varaқ.
- Муҳсиний. *Қўлёзма. Девон*. Ғафур Ғулом номидаги Фарғона вилоят Адабиёт музейи фонди. Инв.4303.
- Муҳсиний. *Қўлёзма. Баёз*. Ғафур Ғулом номидаги Фарғона вилоят Адабиёт музейи фонди. Инв. 178.
- Муҳсиний. *Қўлёзма. Девон*. *Тўқ жигарранг*. Қўқон шаҳрида яшаётган авлодларидан Тўхтасин Нуриддиновнинг шахсий кутубхонасида сақланади.
- Муҳсиний. *Қўлёзма. Девон*. *Қора муқовали*. Қўқон шаҳрида яшаётган авлодларидан Тўхтасин Нуриддиновнинг шахсий кутубхонасида сақланади.
- Жаббаров, Н. 2020. *“Матн тарихини ўрганиш – илмий ҳақиқат мезони”*. Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. Наманган: Актив принт нашриёти.
- Сирожиддинов, Ш. Умарова, С. 2017. *Ўзбек матншунослиги қирралари*. Тошкент: Академнашр нашриёти.
- Yusupova, D. 2022. *Aruz va tumtoz poetikaga kirish*. Toshkent: Tamaddun nashriyoti.

Studying the manuscripts of “Gulshani Javid”

Furqat Tukhtamuratov¹

Abstract

Husaynquli Muhsini Mili is a poet who lived in Kokan during the renaissance. From Muhsini, we have received a significant lyrical legacy. These are four manuscript copies of the poet’s divan «Gulshani Javid», copied in different ears. Two of these manuscripts are kept in the manuscript funds and museums of Tashkent and Kokan cities. Today, the descendants of the poet living in Kok have two manuscripts.

When we compared the most perfect, complete and well-preserved Tashkent copy with the edition, it became clear that there were about a hundred new poetic works. The newly discovered lyrical poems belong to the genres of ghazal, muzam, mukhammas, musaddas, murabba’, masnavi, qasida, tarikh, noma and rubai.

This article presents some examples of Muhsini’s new poetic works found as a result of a comparative study of manuscripts and publications. These poems are written in a deep and melodious style, which proves the high talent and skill of the poet. In particular, the poet’s poems express romantic and religious-mystical themes in a unique way. These lyrical works are valuable even though they have not been published so far.

Key words: *manuscript, divan, genre, ghazal, transformation, literary environment, comparison.*

References

- Qosimov, B. 1983. *Izlay-izlay topganim...* Risola. Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti.
- Qosimov, B. va boshqalar . 2004. *Milliy uyg’onish davri o’zbek adabiyoti.* Toshkent: Ma’naviyat.
- Muhsiniy. 2008. *Barhayot gulshan.* Farg’ona: Farg’ona nashriyoti.
- Muhsiniy. *Qo’lyozma. Devon.* O’zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondi. 7392 raqamli qo’lyozma.

¹ *Furqat S. Tukhtamuratov* – Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alishera Navoi.

E-mail: toxtamuratov81@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-9855-2353

For citation: Tukhtamuratov, F. S. 2024. “Studying the manuscripts of “Gulshani Javid”. *Golden scripts* 1: 40 – 56.

168 varaq.

Muhsiniy. *Qo'lyozma. Devon. G'afur G'ulom nomidagi Farg'ona viloyat Adabiyot muzeyi fondi. Inv.4303.*

Muhsiniy. *Qo'lyozma. Bayoz. G'afur G'ulom nomidagi Farg'ona viloyat Adabiyot muzeyi fondi. Inv. 178.*

Muhsiniy. *Qo'lyozma. Devon. To'q jigarrang. Qo'qon shahrida yashayotgan avlodlaridan To'xtasin Nuriddinovning shaxsiy kutubxonasida saqlanadi.*

Muhsiniy. *Qo'lyozma. Devon. Qora muqovali. Qo'qon shahrida yashayotgan avlodlaridan To'xtasin Nuriddinovning shaxsiy kutubxonasida saqlanadi.*

Jabrov, N. 2020. "Matn tarixini o'rganish – ilmiy haqiqat mezon". *O'zbek filologiyasida matnshunoslik va manbashunoslik muammolari.* Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Namangan: Aktiv print nashriyoti.

Sirojiddinov, Sh. Umarova, S. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari.* Toshkent: Akademnashr nashriyoti.

Yusupova, D. 2022. *Aruz va mumtoz poetikaga kirish.* Toshkent: Tamaddun nashriyoti.

“Muhokamat ul-lugʻatayn” Eron navoiyshunoslari talqinida

Parviz Izzatillayev¹

Abstrakt

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lugʻatayn” asari va uning forsiy tarjimasini oʻzaro qiyosiy oʻrganilgan. Tadqiqot natijasida, tarjima jarayonida Turxon Ganjaviyning yutuq va ayrim oʻrinlardagi nomuvofiqliklar ishonchli manbalarga tayangan holda, tahlilga tortilgan. Jumladan, Ganjaviyning tarjimasida baʼzi bir qisqartirilgan oʻrinlarning mavjudligi, M. Siddiq nashrida mazkur qisqartirishlarni oʻzi foydalangan nusxadan fors tiliga oʻgʻirgani, misollar keltirish, tahlil qilish yoʻli bilan isbotlab berilgan. Shuningdek, turkiy va forsiy sheʼrlar orasida ham baʼzi itxtiloflarning mavjudligi, biroq ularning matniga oʻzgartirishlar kiritmaganining sabablari oydinlashtirildi. “Muhokamat ul-lugʻatayn” asari tarjimasining aslyatdan farq qiladigan jihatlaridan biri bu M. Siddiq tomonidan asar qismlarining mazmunidan kelib chiqib nomlagani, Eron navoiyshunoslari orasida “Muhokamat ul-lugʻatayn” asariga nisbatan ikki xil yondashuvning kuzatilishiga oid ilmiy dalillar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: *Alisher Navoiy, Muhokamat ul-lugʻutayn, Turxon Ganjaviy, tarjima, transliteratsiya, zamonaviy Eron navoiyshunosligi, aslyat, tabdil.*

Kirish

Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lugʻutayn” asari turkiy va forsiy tillarning imkoniyatlari hamda afzalliklari qiyoslab oʻrganilgan birinchi asardir.

“Muhokamat ul-lugʻatayn” asari 1841-yilda “Tarixi muluki Ajam” asari bilan birga Parijda fransuz navoiyshunos olimi M. Katremer tomonidan nashr etiladi. Mazkur nashr kitobxonlarda katta qiziqish uygʻotgani bois 1845-yili Parijda ikkinchi marotaba chop etiladi. 1862-yilda Budapeshtda saqlanayotgan nusxa asosida nashr ettirilgan boʻlsa, 1937-yili Valad Chalabiy uni turkiy

¹ Izzatillayev Parviz Inoyatillayevich – filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: parvizisosoni@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-5754-2690

Iqtibos uchun: Izzatillayev, P. I. 2024. “Muhokamat ul-lugʻatayn” Eron navoiyshunoslari talqinida”. *Oltin bitiglar* 1: 57 – 71.

tilidagi matni hamda turk tiliga o'girilgan variantini Istanbulda chop ettiradi.

Mazkur asar 1941-yili Raf'at Eshitmon tomonidan lotin alifbosida nashr yuzini ko'rgan. 1950-yilda Turxon Ganjaviy tomonidan fors tiliga o'girilib, Tehronda chop etiladi. Shu tarjima 1984-yilda ayrim o'zgartirishlar bilan Pokistonda ham nashr etiladi. "Muhokamat ul-lug'atayn" asari 1925-yilda Abdulhakim Gulmuhammadov tomonidan Ashxobodda ham chop etilgan. 1988-yilda esa Hamid Temur uni uyg'ur tilida Urumchida nashr etishga muvaffaq bo'ladi. Bu borada oxirgi tadqiqotlardan yana biri bu turk olimi Samo Borutchu Uzunder tomonidan amalga oshirilgan. U o'zining bu tadqiqotida dunyoda tanilgan to'rt nusxani bir-biriga solishtirib o'rganish orqali, asarning asl matnini shakllantirgan va lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish orqali nashr etgan. Shuningdek, asl turkiy matnga hozirgi turk tilidagi tarjimasini va muqaddimada o'zining tilshunoslik bo'yicha fikr-mulohazalarini ham ilova qilgan. Ushbu asar 1966-yilda R. Deveruks tomonidan igliz tiliga ham tarjima qilinib, nashr etilgan.

O'zbekistonda esa mazkur asar birinchi marotaba 1916-yilda Qo'qonda nashr etilgan bo'lsa, 1940-yilda P. Shamsiyev va O. Usmonovlar tomonidan Toshkentda chop etilgan. O'zbek navoiyshunoslari ushbu nashr bilan cheklanib qolmasdan mazkur asar yuzasidan izlanishlarni davom ettirganlar. Jumladan, P.Shamsiyev yana ikki marotaba: 1948, 1967-yillarda "Muhokamat ul-lug'atayn" asarini nashrdan chiqaradi. Shuningdek, ushbu asar 2017-yilda Qosimjon Sodiqov va 2021-yilda esa Yusuf Tursunov tomonidan ham Toshkentda nashr yuzini ko'rdi.

Zamonaviy Eron navoishunosligining darg'asi – Muhammadzoda Husayn Siddiq "Muhokamat ul-lug'atayn" asarining chig'atoy tilidagi asl matn, lotin alifbosida berilgan transliteratsiya hamda ozar tiliga qilingan tabdili bilan birgalikda Tabrizdagi "Axtar" nashriyotida chop ettiradi. Bunda asarning forsiy tarjimasini sifatida 1950-yillarda Turxon Ganjaviy tomonidan tarjima qilingan matn aynan keltiriladi.

T. Ganjaviyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asaridan qilgan forsha tarjimasini bugungi kunga qadar Eronda ilk va yagona tarjima bo'lib turibdi. Ganjaviyning tarjimasida ba'zi bir qisqartirilgan o'rinlar mavjud bo'lib, Muhammadzoda Siddiq o'zining nashrida mazkur qisqartirishlarni o'zi foydalangan nusxadan fors tiliga o'girib, Turxonning tarjimasidan ajratib ko'rsatish maqsadida kvadrat qavs ichida keltiradi. Shuningdek, turkiy va forsiy she'rlar

orasida ham ba’zi ixtiloflar mavjud bo’lsa-da, ularning matniga o’zgartirishlar kiritmaydi. M. Siddiq Turxon Ganjaviyning forsiy tarjimai matniga quyidagi o’zgartirishlarni kiritadi:

1) biror bir so’z yoki so’zlarni matnga kiritishga ehtiyoj tug’ilganida kvadrat qavs [] ichida beradi;

2) turkiycha so’zlarning to’g’ri variantini lotin imlosi bilan birgalikda forsiy tarjimaga kiritib, tarjima muallifi so’zlarini kitob oxirida joylashtirib, uni havolada ko’rsatib beradi. M. deb ko’satishdan maqsad, Turxon Ganjaviyning 1949-yildagi forscha tarjimai nazarda tutilgan;

3) arabiy so’z va iboralarni kitobning “povaraqiho”, ya’ni “havolalar” qismida sharhlaydi;

4) she’rlarning aruziy vaznlarini aniqlaydi.

Shu o’rinda navoiyshunoslarning, xususan, Eron navoiyshunoslarining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asariga bo’lgan munosabatlari to’g’risida to’xtalsak. Navoiyning bu asarni yozishdan maqsadini tadqiqotchilar turli xil talqin qilganlar. Asg‘ar Dilbaripur, Matin Okos kabi bir guruh tadqiqotchilar Alisher Navoiyning bu asarini “milliy o’zlikni anglash va millatni sevishtirish tarannum etuvchi asar” [Turkoni porsiguy 1390, sh.19/126] sifatida ko’rsatganlar. Ammo bu guruh navoiyshunoslar “millat” va “milliy o’z-o’zini anglash” tushunchalari nisbatan yangi masalalar ekanligini va keyingi asrlarga talluqli ekanligini nazardan qochirgan ko’rinadilar. Chunki Alisher Navoiy zamonida yuqorida tilga olingan tushunchalar bugungi kunda anglashiladigan ma’nosida qo’llanilmagan. Boshqa bir guruh tadqiqotchilar esa Alisher Navoiyning mazkur asarda keltirgan barcha da’volarini o’rinli va to’g’ri deya baholaganlar. Bu kabi qarashlarning aksariyat tarafdorlari turkiy xalqlarning tadqiqotchilari, jumladan Eron ozariylari tadqiqotchilari qarashlarida ham o’z aksini topgan. Ozarboyjonlik tadqiqotchi Bekir Cho’ponzoda shu guruhga mansub tadqiqotchilardan bo’lib, u Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida aytgan barcha fikr-qarashlarini to’g’ri va haq deya biladi. Turkiyalik Husayn O’zgan esa “Muhokamat ul-lug‘atayn” turkiy tilning himoyachisi bo’lib, unda Alisher Navoiy turk tilining fors tilidan afzalligini to’g’ri isbotlab bergan” deya ta’kidlaydi [Amir Nemati Limoi 1393, 143]. Eron ozariylardan bo’lgan M. Siddiq ham Alisher Navoiyning mazkur asarida bayon etgan qarashlarining tarafdorlaridan bo’lib, “Muhokamat ul-lug‘atayn”da ilgari surilgan barcha qarashlarni o’rinli” deya zikr etadi [Amir Alisher Navoi 1387, 43].

Bu guruhga qarama-qarshi fikr bildirgan ikkinchi guruh esa Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn”da ilgari surgan qarashlarini xom va tekshirilmagan tarzda bayon qilingan va uning turkiy tilning forsiy tilga nisbatan afzal degan qarashlarini hech qanaqasiga haqiqatga mos kelmasligini ta’kidlaydilar. Bunday qarashning tarafdorlaridan biri Eronlik mashhur olim Zabihulloh Safo bo‘lib, Alisher Navoiy keltirgan dalillarni o‘rinsiz deya ta’kidlab bu borada shunday deydi:

"این اشتباه از آن جا بدو دست داده بود که آن ترکی که وی مدعی برتری آن بر فارسی بوده، از همه نیروهای آماده زبان فارسی و عربی استفاده کرده و آن را بر بضاعت مزجات خود افزوده بود."

Tarjima: *“Uning forsiy tilidan turkiy tilni afzal deb bilgani, fors va arab tilining mavjud qudratidan foydalanganligida va uni o‘zining andak qudratiga qo‘shganidandir. Ana shu [omil] uning bunday xatolikka yo‘l qo‘yishiga yo‘l ochib bergan”* [Zabehulloh Safo 1378, 148].

Tarjimashunos olim G.Salomov esa “Alisher Navoiy *“Muhokamat ul-lug‘atayn”da turk (o‘zbek) tilining fazilatlari haqida fikr yuritar ekan, bu bilan o‘z ona tilini qanday bo‘lmasin fors tilidan ustun qo‘yishni mo‘ljallagan emas, balki ba‘zi jabhalarda uning ham o‘z lisoniy afzalliklari borligini namoyish etish barobarida, bunda ham salmoqdor, chuqur badiiy asarlar, san‘at obidalari yaratish mumkinligini nazariy tomondan isbotladi va amalda ko‘rsatib berdi*” deya ta’kidlaydi [Саломов 1983, 20].

Bizningcha ham mazkur asarni yozish bilan Alisher Navoiy turkiy tilni forsiy tildan ustun qo‘yish emas, balki turkiy tilda ham forsiy tilda yaratilgani kabi o‘lmas asarlar yaratish mumkin degan qarashni ilgari surgan. O‘zi turk bo‘la turib, forsiyda ijod qiladigan shoirlarga turkiy tilning ham xuddi forsiy tilidagidek imkoniyatlarga ega ekanligini va bu imkoniyatlardan foydalanishni tavsiya beradi va o‘zi namuna bo‘lib buni ko‘rsatib beradi desak adashmagan bo‘lamiz.

“Muhokamat ul-lug‘atayn” asari Eron navoishunoslaridan biri – Amir Ne‘mati Limoiy tomonidan tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqotchi Alisher Navoiy tomonidan ushbu asarda ilgari surgan qarashlarini birma-bir tahlilga tortib, har biriga alohida tarzda dalillar bilan javob beradi. Quyida uning Alisher Navoiyning faqat bir fikriga javobini keltiramiz va tahlil etamiz:

Asliyatdagi matn: Yana g‘izo va har taom-ki, yesa bo‘lur, **yeguluk** derlar va shu ichmak va har nimani-ki, ichsa bo‘lg‘ay, ichkulik derlar. Va sort elining ko‘pi, balki barchasi **yemakni** ham va

ichmakni ham xo'rdan lafzi bila ado qilurlar [Навоий 2017, 38].

Turxon tarjimasida: "در ترکی به غذا و طعام، بیگولوک گویند؛ ولی

اکثر مردم فارسی زبانان بل تمام آنان، خوردن و نوشیدن، هر دو را با مصدر خوردن بیان میکنند."

Alisher Navoiyning yuqorida keltirilgan gapiga Amir Ne'mati Limoiy quyidagicha javob beradi [Amir Alisher Navoi 1387, 70]:

"آنچه واقعیت دارد، فارسی زبانان برای نشان دادن مفهوم خوردن مایعاتی چون آب، علاوه بر فعل، خوردن، از کلمات به سان، نوشیدن و آشامیدن، نیز سود می جستند و کاربرد واژگان چنین دارای پیشینه ای دیرین در زبان فارسی است و این مهم از جستجو و کاوش در آثار فاخر فارسی مربوط به سده های پیشین به خوبی بر می آید. ابیات زیر نشانی آشکار بر نادرستی دعوی امیر علی شیر و درستی گفتار نگارنده است:

کیست حافظ تا ننوشد باده بی آواز رود،
عاشق مسکین چرا چندین تجمّل بایش."

Tarjima: "Aslini aytganda forsiyzabonlar suv kabi suyuqliklarni "ichish" tushunchasini ko'rsatish uchun "xo'rdan" fe'lidan tashqari "no'shidan", "oshomidan" kabi so'zlardan ham foydalanib kelganlar va bu kabi so'zlar fors tilida ilgaridan ishlatilib kelingan. Bu so'zlarni oldingi asrlarda yozilgan forsiy asarlardan osonlik bilan topish mumkin. Quyidagi baytlar Amir Alisherning bu da'vosining to'g'ri emasligi va tadqiqotchining haq ekanligini ko'rsatadi:

Tabdil: Kist Hofiz to nano'shad boda beovoz ravad,
Oshiqi miskin charo chandin tajammul boyadash"

[Limoiy 1393,

152].

Ne'mati Limoiy Alisher Navoiydan oldin yashab o'tgan Farididdin Attor, Sa'diy Sheroziy, Xayyom, Jaloliddin Rumiy kabi fors shoirlari va ular ijodida uchraydigan "nushidan" va "oshomidan" fe'li qatnashgan yana 15 ta misol keltiradi. Biz ham Navoiydan oldin yashab ijod qilgan fors shoirlari devonlarini ko'zdan kechirganimizda ichish ma'nosini beradigan "xo'rdan" "yemoq"dan tashqari "no'shidan" va "oshomidan" fe'llari ishlatilib kelingani ayon bo'ldi. Jumladan, Xayyom ijodida quyidagi bayt uchraydi:

May no'sh, ki umri jovidoni in ast,

Xud hosilat az davri javoni in ast

[<https://ganjoor.net/khayyam/robaee/sh47>].

Ne'mati Limoiyning gaplarida jon bor, darhaqiqat fors tilida ichish tushunchasini berish uchun fors tilida "xo'rdan"dan tashqari "no'shidan" va "oshomidan" kabi so'zlar ham qo'llanilib kelingan va qo'llanilib kelinmoqda. Ammo hozirda ham forsiyda so'zlashadigan, jumladan, tojik xalqining suhbatiga nazar tashlansa, ichish

ma'nosini berish uchun "no'shidan" va "oshomidan"dan ko'ra "xo'rdan" "yemoq" fe'li ko'proq ishlatiladi. A. Navoiy ana shuni nazarda tutib shunday fikrni ilgari surgan bo'lishi ehtimoli mavjud. N. Limoiyning yuqoridagi fikriga tayanib, Alisher Navoiyning xatoga yo'l qo'ygan, deya ayta olmaymiz.

Shu o'rinda Muhammadzoda Siddiq nashrida forsiy tarjima qay tarzda keltirilgani haqida aniq tasavvur hosil bo'lishi uchun quyida bir misol keltiramiz:

[نعت]

سپاس هر متکلمی را که بلبل نطقش با ترنم انا أفصح، زبان فصحاى عرب را که
گلپانگ بلاغت به گلشن سپهر می رسانیدند، بیست؛ و آوازه ی دعوی آنان را شکست.

[ترجمه]رباعی:

آن روز که هنوز قلم صنع،
آدم و عالم را رقم نزده بود
وی از خلقت خود دم زد
و صدای کُنْتُ نَبِیًّا فَافْهَم را درداد.

Tabdil:

"Na't

*Sipos har mutakallimero, ki bulbuli nutqash bo tarannumi
ana afsahu zaboni arabro, ki gulbongi balog'at ba gulshani sipehr
merasonidand, bubast va ovoza da'voi ononro shikast.*

Ro'boi [tarjima]:

On ro'z, ki hano'z qalami sun',

Odam va olamro raqam nazada bud.

Vay az xilqati xud dam zad

Va sadoi kuntu nabiyyan faafhamro dardod" [Navoi 1387, 52].

Muhammadzoda Siddiq nashr etgan "Muhokamat ul-lug'atayn" kitobi fasllarga ajratilgan bo'lib, mazkur asarning turkiy nusxasidan uni ozar tiliga tabdil qilib, forsiy tarjima faslidan so'ng joylashtiradi. Ikkala matnni fasllarga ajratib, ularni alohida-alohida tarzda kvadrat qavs [] ichida nomlab chiqadi. Ozar tiliga tabdil qilgani borasida nashr muallifi shunday deydi:

"در برگردان آذری، تلاش بر این بوده است که شیوه ی بیان متن و کلمات و الفاظ
به کار رفته در آن عیناً حفظ شود و فقط لهجه ی چاغاتایی به لهجه ی آذری تبدیل گردد
و حتی در املاى لغات اشعار نیز تصرف روا داشتیم ولی متن اصلی آن ها را در در متن
فارسی آوردیم و در بخش آوانویسی به قرائت دقیق و فونولوژیک پرداختیم."

Tarjima: "Ozar tiliga tabdil qilishda matnning bayon uslubini aynan saqlashga harakat qildik, faqatgina chig'atoy lahjasini ozar lahjasiga o'zgartirdik. Hatto, she'rlardagi so'zlarning imlosiga ba'zi bir o'zgartirishlar kiritgan bo'lsak-da, uning aslini forsiy matnda keltiridik. Translitteratsiyada so'zlarning aniq talaffuzini berishga

imkoni boricha harakat qilindi” [Navoi 1387, 47].

“Majolis un-nafois” asarining Turxon Ganjaviy tomonidan qilingan tarjimasi va Muhammadzoda Siddiq tomonidan nashrga tayyorlanib Tehronda chop etilgan nusxasi “tahmidiya”, ya’ni “hamd” bilan boshlanadi va “na’t” bilan davom ettiriladi. Ammo ana shu yuqorida zikr etilgan “tahmidiya” va “na’t” asarning P. Shamsiyev tomonidan nashrga tayyorlangan va 1967-yilda Toshkentda nashr etilgan nusxasida mavjud emas. Bundan ehtimol Porso Shamsiyev foydalangan nusxalarda mazkur qismlar mavjud bo‘lmagandir deya xulosa chiqarish mumkin. Alisher Navoiyning 10 jildlik to‘la asarlar to‘plamidan (2013-y.) joy olgan va Q. Ergashev tomonidan nashrga tayyorlangan mazkur asarda “hamd” va “na’t” qismlari to‘la keltiriladi. Shu o‘rinda “Muhokamat ul-lug‘atayn”ning O‘zbekistonda nisbatan yaqin yillarda nashr etilgan boshqa nashrlari xususida to‘xtalib o‘tsak. Mazkur asar 2017-yilda Q. Sodiqov tomonidan Toshkentda “Akademnashr” nashriyotida chop etiladi. Q. Sodiqov ushbu asarni qaysi qo‘lyozmalar asosida nashr etganligi kitobning so‘zboshi qismida shunday bayon qilingan: *“Asarni nashrga tayyorlashda uning To‘pqopi qo‘lyozma nusxasi asos qilib olindi, tayanch qo‘lyozmada tushib qolgan yerlari Parij hamda Fotih qo‘lyozmalaridan olib to‘ldirildi. Shuningdek, asar matnini yaratishda Toshkent (1940, 1967), Anqara (1996) nashrlaridan ham foydalanildi”* [Навоий 2017, 3].

Bundan Q. Sodiqov asarni nashrga tayyorlashda, P. Shamsiyev tomonidan 1940 va 1967-yillarda Toshkentda hamda 1996-yilda Anqarada nashr etilgan asar variantlaridan, shuningdek, To‘pqopi, Parij va Fotih qo‘lyozmalaridan unumli foydalangan, tayanch manba sifatida esa To‘pqopi nusxasini tanlagan degan xulosa chiqarishga asos bo‘ladi. Asar 2021-yilda Y. Tursunov tomonidan Toshkentda O‘zR FA “Fan” nashriyotida chop etildi. Bu ish “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarinining yanada mukammal variantini yaratishga bo‘lgan navbatdagi qadam bo‘ldi. Ushbu nashrga qaysi manbalar asos vazifasini bajarganligi borasida muallifning o‘zi shunday yozadi: *“... ishda Fotih nusxasi (I)ni tayanch nusxa sifatida belgiladik. Qolgan uch (I [Istanbul], P [Parij] va H [Haydarobod] nusxa esa yordamchi nusxalar vazifasini o‘tadi. Fotih nusxasida mavjud kamchilik va xato o‘rinlar (albatta, ular ko‘p emas) bu nusxalarga ko‘ra to‘g‘rilandi)”* [Хаёовў 2021, 22]. Biz “Muhokmat ul-lug‘atayn” asarining Erondagi forsiy nashrini qiyosiy o‘rganishda, mazkur asarning oxirgi yillarda nashr etilgan va oldingi nashrlardagi

anchagina xato va kamchiliklari tuzatilgan Q. Sodiqov¹ nashrini tayanch variantlar sifatida olishga qaror qildik. Ammo kezi kelganda Y. Tursunovning² nashriga ham yuzlandik. Endi bevosita matniy-qiyosiy tahlilga o'tamiz. Asar quyidagicha boshlanadi:

بسم الله الرحمن الرحيم

[Py6ouŭ:]

الحمد لله الذي امتاز الانسان على سائر النخلوقات بشرف النطق و اللسان و اظهر من

عذوبت لسانه و حلاوة بيانه سكر الشكر و شهد الشهود و الامتنان

Ey so'z bila qilg'on ofarinish og'oz,

Insonni aroda aylagon mahrami roz.

Chun "kun fayakun" safhasig'a bo'ldi tiroz,

Qilg'on ani nutq ila baridin mumtoz.

Subhonalloh, ne qudrati komiladurkim, insonni خمرت طينة آدم بيدى

karimasi mazmuni birla qobiliyyati berdi va ani علم الاسماء كلها اربعين صباحا
Al-mutakallim ismi mazhari qildi. To ul bu mazhariyyat sharafidin
jami'i maxluqotda sarafroz bo'ldi va bu tashrif bila barisidin imtiyoz
topti [Havouŭ 28, 2017].

Turxon Ganjaviy tarjimasida:

بسم الله الرحمن الرحيم

الْحَمْدُ لِلَّهِ الَّذِي أَمَّاازَ الْإِنْسَانَ عَلَى سَائِرِ الْخُلُوقَاتِ بِشَرَفِ النَّطْقِ وَ اللِّسَانِ وَ أَظْهَرَ

مِنْ عَذُوبَتِ لِسَانِهِ وَ حُلَاوَةِ بَيَانِهِ سَكْرَ الشُّكْرِ وَ شَهِدَ الشُّهُودَ وَ الْإِمْتِنَانَ.³

سبحان الله، اين چه قدرتى است كه به انسان با مضمون كريمه ى خَمِرْتُ طِينَةَ
آدَمَ بِيَدِي اربعين صَبَاحًا سزاوارى عَلَّمَ آدَمَ الْاَسْمَاءَ كُلَّهَا را داد و او را مظهر اسم "الْمُتَكَلِّمُ"
گرديد و ى بدين شرف نسبت به جميع مخلوقات سرفراز گشت و بدين تشريف، از جمله
امتياز يافت.

Ko'rinib turganidek, asarni nashrga tayyorlagan M. Siddiq asar boshida keltirilgan hadisi qudsiyga havola berib, uning forsha tarjimasini kitob ilovasida keltiradi. Bu ishi bilan fors kitobxoniga kitobxonga hadis mazmuni bilan tanishish imkonini beradi va o'z navbatida o'quvchining hadis mazmunini qidirishga ketadigan vaqtini tejaydi. Bu ish asarda uchraydigan barcha oyat va hadislarga ham xosdir. Qayerda oyat va hadis uchragan bo'lsa, M. Siddiq uning mazmunini kitob ilovasida keltirib boradi. Bu uning tarjimadagi yutuqlaridan biri desak adashmaymiz. Tarjimon

¹ Bundan keyin "Q. Sodiqov nashri".

² Bundan keyin "Y. Tursunov nashri".

3 ای خدایی که جهان را به واسطه ى کلتم آفریدی و انسان را در این میان محرم اسرار خود ساختی و از جمله ى خلق به شرف نطق برگزیدی (حدیث قدسی).

– T. Ganjaviy yuqorida keltirilgan o‘zbekcha matnni fors tiliga ba holi qudrat tushunarli tarzda tarjima qilgan. Matnlarni solishtirib o‘rganish natijasida, asl turkiy matnda berilgan faqatgina “... ne qudrati komildurkim...” qismidagi “komil” so‘zi tarjimada berilmagan bo‘lsa-da, asl muallifning aytmoqchi bo‘lgan fikri to‘la aks etgan. Ammo T. Ganjaviy foydalangan qo‘lyozmada mavjud bo‘lmaganidan bo‘lsa kerak, yuqorida asl turkiy matnda keltirilgan ruboiy uning tarjimasidan joy olmagan.

Asliyatdagi matn:

“Takallum ahli xirmanining xo‘shachini va so‘z, durri samini maxzanining amini va nazm gulistonining andalibi nag‘masaroyi, ya‘ni Alisher ul-mutaxallis bi-n-Navoiy غفر ذنوبه و ستر عيوبه mundoq arz qilurkim, so‘z durredurkim, aning dar‘yosi ko‘nguldur va ko‘ngul mazharedur-kim, jomi‘i ma‘oni-yi juzv-u kuldur. Andoqki, daryodin gavhar g‘avvos vositasi bila jilva namoyish qilur va aning qiymati javharig‘a ko‘ra zohir bo‘lur. Ko‘nguldin dog‘i so‘z durri nutq sharafig‘a sohib-i ixtisos vasilasi bila guzorish-u oroyish ko‘rguzur va aning qiymati fahm¹ martabasi nisbatig‘a boqa intishoru ishtihor topar. Gavhar qiymatig‘a nechuk-ki, marotib asru ko‘pdur, hattoki, bir diramdin yuz tumangacha desa bo‘lur.”

[Qit‘a:]

Injuni olsalar mufarrih uchun,

Ming bo‘lur bir diramg‘a bir misqol.

Bir bo‘lur ham-ki, shah quloqqa solur:

Qiymati mulk, ibrasi amvol [Навойй 2017, 29].

Turxon Ganjaviy tarjimasida:

اما بعد، چنین گوید خوشه چین اهل تکلم و امین مخزن درُ ثمین سخن و عندلیب
نغمه سرای گلستان نظم، اُعنٰی علّیشیر المتخلص به نوایی - غُفِرَ ذُنُوبُهُ وَ سُتِرَ عُیُوبُهُ – که:
دریای درُ سخن سخن دل است و مخزن دل جامع معانی جزء و کل، همچنان که
گوهر از دریا به واسطه ی غَوّاص جلوه و نمایش پیدا میکند. و بهای آن به نسبت گوهر
ظاهر گردد، درُ سخن نیز به وسیله ی مرد سخندان به شرف گفتار آراسته شود و قیمت آن
– نظر به مرتبه ای – انتشار و اشتها یابد. چنان که بهای در و گوهر نیز به نسبت کیفی
اش از درهمی تا صد دینار فزونی گیرد.
قتعه:

چون جوهری را برای درمان مرضی خواهند،

هزار مثقال آن درهمی نیرزد.

لیکن بهای در شاهواری که سر و گردن شهریاران را سزد،

از قیاس اندیشه بیرون است.

¹ Mazkur so‘z Alisher Navoiyning 10 jildlik “To‘la asarlar to‘plami”da “fahm” (507 b.), ammo Y. Tursunov nashrida “ham” (27 b.) tarzida keltiriladi.

Tarjimaning asliyatdan farq qiladigan yagona jihati bu M. Siddiq tomonidan asar qismlarining ma'no-mazmunidan kelib chiqib nomlaganidadir. Jumladan berilgan yuqoridagi matnni "sarog'oz", ya'ni "kirish" deya nomlaydi. Bundan tashqari, tarjimon – Turxon Ganjaviyning asl nusxaning mazkur qismini aynan so'zma-so'z aks ettirishga intilganini ko'rish mumkin. Masalan, arabcha "takallum" so'zini aynan ishlatish o'rniga ushbu so'z ma'nosini ochib beradigan boshqa biron forscha muqobil so'z ishlatishi mumkin edi. Bunda Alisher Navoiyga formal tomondan emas, balki maqsad tomondan yondashilgan bo'lar edi. Shuningdek, asliyatdagi matnni fors tiliga tarjima qilgan T. Ganjaviy asarning quyidagi qismini noto'g'ri o'qigan ko'rinadi: "*a'ni Alisher almutaxallas bin-Navoiy...*". Mazkur asarning O'zbekistonda chop etilgan barcha nashrlarida to'g'ri tarzda "ya'ni" shaklida keltiradi. O'zbekistonda chop etilgan asar variantlarini ishonch bilan to'g'ri deyishimizga sabab shuki, matn ma'nosidan kelib chiqilsa, T. Ganjaviy keltirgan "a'ni", ya'ni "qasd qilaman", "maqsad qilaman" unchalik ham mos tushmasligini, "ya'ni" esa matn ma'nosiga to'la mos tushishini ko'lamiz. Inchunin, "P. Shamsiyev, (1967) nashri" da "*Alisher almutaxallas bin-Navoiy...*" jumlasida Navoiydan keyin uch nuqta qo'yib ketilgan. P. Shamsiyev foydalangan nusxalarda mazkur qismi uringan yoki o'qilishi qiyin bo'lgan bo'lishidan uch nuqta qo'yilgan bo'lishi mumkin. Chunki "M. Siddiq nashri" hamda O'zbekistonda 1967-yildan keyin nashr etilgan asar variantlarida Porso Shamsiyev tomonidan tashlab ketilgan mazkur asar qismida "عُفِرَ دُنْبُوهُ وَ سَتِرَ عُيُوبُهُ" duosi keltirilgan. Turxon Ganjaviy tomonidan amalga oshirilgan tarjimani nashrga tayyorlagan M.Siddiq fors kitobxoni o'qish davomida tushunishi qiyin bo'lishi mumkin bo'lgan so'z, ibora va duolarni kitob oxirida izohlagan va bu ishi bilan tarjima qiymatini yanada oshirgan. Jumladan, "عُفِرَ دُنْبُوهُ" duosini "گناهانش بخشیده و عیب هایش پوشیده باد" ya'ni "Gunohlari kechirilib, ayblari yashirin qolsin" tarzida tarjima qiladi [Amir Alisher Navoiy 1387, 53]. Tarjimon T. Ganjaviy asl nusxaning "*Takallum ahli xirmanining xo'shachini*" qismida keltirilgan "xirman" so'zini o'z tarjimasida aks ettirmagan bo'lsa-da, matn mazmuniga putur yetmagan. Qit'ani tarjima qilishga kelganda Turxon uni she'riy tarzda emas, balki nazmiy shaklda tarjima qiladi. Jumladan:

چون جوهری را برای درمان مرضی خواهند،

ya'ni, agar gavharni biror-bir kasallik uchun ishlatmoqchi bo'lsalar,

هزار مثقال آن درهمی نیرزد.

uning ming misqoli bir dirhamga ham arzimaz.

لیکن بهای در شاهواری که سر و گردن شهریاران را سزد،
ammo shahriyorlarning bo’ynidagi qimmat durning bahosin,
از قیاس اندیشه بیرون است.

qiyoslab bo’lmas.

Ko’rinib turganidek, tarjimon qit’ani nazmda tarjima qilmagan bo’lsa-da, uni ma’nosini to’la-to’kis aks ettirishga harakat qilgan va bunga erishgan.

Asliyatdagi matn:

So’z durrining tafovuti mundin dog’i beg’oyatroq¹ va martabasi mundin ham benihoyatroqdur. Andoqi, sharifidin to’lgan badang’a ruhi pok yetar, kasifidin hayotliq tang’a zahri halok xosiyati zuhur etar.

Qit’a:

So’z gavharidurki, rutbasining

Sharhidadur ahli nutq o’jiz.

Andinki erur xasis muhlik,

Ko’rguzguchadur Masih mo’jiz [Навоий 2017, 29].

Turxon tarjimasida:

«تنوع سخن هم بیرون از میزان تعقل و خارج از درجه ی تصور است، چنان که
سخنی، جان در قالب مرده دمد نیز کلامی موجب کلال و ملال گردد.
قطعه:

مقام گوهر سخن چه والاست،

که اهل نطق نیر در بیان قدر آن ناتوان اند.

سخن سخیف، مهلک و مسموم است،

و سخن خوب، کار دم مسیحا می کند.»

[Amir Alisher Navoi 1387, 53].

Tarjimon mazkur asarni tarjima qilishda jumlalarning so’zma-so’z tarjima qilishga berilmasdan, uning ma’nosini aks ettirishga ham ko’proq e’tibor beradi. Shuningdek, ayrim so’z va iboralarni tashlab ketgan bo’lsada, matn ma’nosi u qadar o’zgarib ketmagan. Jumladan, yuqoridagi asl matnning “*So’z durrining tafovuti mundin dog’i beg’oyatroq va martabasi mundin ham benihoyatroqdur.*” Mazkur qism tarjimon tomonidan juda chiroyli: “*So’z rang-barangligi ham tafakkur mezonidan va tasavvur darajasidan tashqaridadur*” tarzida tarjima qiladi. Tarjimon asl matndagi “durr” so’zini tarjima qilmasdan qoldirib ketadi. Ammo shu so’zni “durr” yoki “gavhar” deya o’zining tarjimasiga kiritganida edi, tarjimaning qiymati yanada oshgan bo’lar edi. Muallifning qit’asi esa tarjimon tomonidan nazmiy usulda quyidagicha tarjima qilinadi:

¹ Ushbu so’z “Q. Sodiqov nashri”da “bag’oyat” tarzida keltiriladi. Ammo matn ma’nosiga “beg’oyatroq” so’zi ko’proq mos keladi.

مقام گوهر سخن چه والاست،

So'z gavharining maqomi naqadar yuksak,

که اهل نطق نیز در بیان قدر آن ناتوان اند.

Nutq ahli ham uning qadri bayonida notavondurlar.

سخن سخیف، مهلک و مسموم است،

Aqli noqisning so'zi xatarlidur,

و سخن خوب، کار دم مسیحا می کند.

Va yaxshi so'z Masihoning nafasi kapidurur.

Garchi tarjimon muallifning qit'alarini nazmiy usulda emas, nasriy usulda tarjima qilgan bo'lsa-da, uning ma'nosini to'lig'icha aks ettirishga jon-jahdi bilan harakat qilganligi ayon bo'ldi.

Endi bevosita Alisher Navoiyning bu asarni yozishidan maqsadi ifodalangan matn qismlarini tahlilga tortamiz.

Lebib, uzun yıllar Türkiye’de kalmış, Ankara Üniversitesinde öğretim elemanlığı yapmıştır. Halen ABD’de bulunan Lebib Türk dünyasını da iyi bilmektedir. Yazdıklarının Türkiye’de ilgi uyandırmadığını bu tarz söyleyişlerin özellikle Özbekistan coğrafyasında muhatap bulduğunu şu beyti ile ifade etmektedir:

- L: *Yo'q Anotulida tinglaovchi Labib ash'origa*
Endi qıl azmi Buxoro vu Samarqand, ey ko'ngül.

Aynı kelimelerin farklı yerlerde kullanılması şiirin etkileme gücünden ve var olan kelimelerin anlaşılır olmasından da kaynaklanmaktadır. Şiirlerin Anadolu’da yeterli ilgiyi görmemesi leh-

çeler arasında söz varlığında farklılıklardan kaynaklanmaktadır. Özellikle Arapça ve Farsça'dan girmiş olan alıntı kelimelerin günümüz söz varlığında ikinci plana itilmiş veya unutulmuş olmasından kaynaklanmaktadır.

Lebib, Özbekçe için de artık eskicil hâle gelmiş “Ugan, öküş, uchmoq vb.” kelimelere de şiirinde yer vermiştir:

L: *Yor husnin asramak istab yomon ko'zdan Ug'on
Mengini qilmish yuzi o'tiga aspand ey ko'ngül.*

Yine Lebib, Nevaî'den söz ve tema bakımından farklılaşan bazı yeni unsurları ve yeni kelimeleri de şiirine dâhil etmiştir. Bunların başında Afganistan'ı ve ahalisini en çok etkileyen “Tali-ban” ve “Daiş” belasının, Nevaî'nin “-mu deyin” redifli gazelindeki zulmeden sevgilinin yerini aldığı görülür:

L: *Davr zulmin mu deyin, davron jafosin mu deyin
“Tolib” oshubin mu dey, “Doish” balosin mı deyin
So'rma na kulfat ulus boshiga tushdi deb Labib
“Doish” oshubin mu dey, “Tolib” balosin mu deyin.*

Âlim Lebib doğrudan Nevaî'nin şiirlerine nazire veya tahmis yazdığı örneklerin dışında, onun bir beytinden veya beytinde geçen bir ifadeden ilham alarak yazdığı müstakil şiirler de yazmıştır. Lebib'in Tuyg'ularım Qayg'ularım şiir kitabında geçen “Qaro Ko'z Madhiyasi” [2005, 57], “İffatli Kalom” [2005, 86], “Onaga Ta'zim” [2005, 114] ve “Sevgi Ramzi” [2005, 53] başlıklı şiirleri bu tarz şiirlerine örnek gösterilebilir.

Nevaî ve şiirleri, Âlim Lebib'in ve diğer güney Türkistanlı şairlerin şiirlerine ilham kaynağı olmaya devam etmektedir. Bu durum onun şiirlerinin hâlâ bölgedeki Türk soylular arasında, özellikle de Özbekler arsında okunur ve anlaşılır olduğunu göstermektedir. Klasik dönem Türk şiirinin seçkin isimlerine nazireler yazmak, onların zemin gazellerine eklemeler yaparak ortak şiirler oluşturmak yüzyıllar boyunca kopmayan bir edebi ve kültürel bağın varlığını ortaya koymaktadır. Bu şiirler toplumun övünülesi geçmişini hafızalarda canlı tutarak dilin ve kimliğin muhafazası ve terakkisi için Türk soylu halklara dayanak olmakta ve güç vermektedir.

Kaynakça

- Avcı, Y. 1997. “Özbek Türkçesindeki Ünlü Uyumlarına Dair”. *Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi* 4: 166-172.
- Bahayî, S. T. Taşkın. 2023. *Amir Alisher Navoiy, Hamsa*. Tahran: Horasan Neşriyatı.
- Ercilasun, Ahmet Bican. 2004. *Başlangıçtan Yirminci Yüzyıla Türk Dili*

- Tarihi*, Ankara: Akçağ
- Hasan, Nadir. 2020. "Güney Türkistanlı Münevver Seyyid Muhammed Âlim Labib Hakkında Bazı Mülâhazalar", *Poloq İnjular*, 154-167. Neşre haz. M. H. H. Faryobiy. Ankara: Sahil Kitap.
- Juzjoni Shar'iy. 2017. "Afg'onistonda Navoiyshunoslik", *Cihan Edebiyatı Gazetesi*, Taşkent 2001. (Makale, Juzjani tarafından yeniden düzenlenerek 19.10.2017 tarihinde tarafımıza gönderilmiştir).
- Kuhken Muhammed Âlim. 2013. "Afg'oniston'da O'zbek Tilining O'tmishi va Bugungi Ahvoli", <https://cenubiturkistan.wordpress.com/2013/07/26/>. (20.10.2017 alıntı tarihi).
- Labib Muhammed Âlim. 2005. *Tuyg'ularim Qayg'ularim-Tanlangan Sherlar To'plami*. Mezarışerif.
- Öztürk, Rıdvan. 2014. *Günümüz Afganistanlı Özbek Şairleri*. Konya: Palet yayınları.
- Öztürk, Rıdvan. 2018. "Afganistan Türkleri İçin Ali Şir Nevai'nin Önemi", *Yeni Türkiye*, sa. 101-Türk Dili Özel Sayısı III, Mayıs-Haziran 2018. *Yeni Türkiye Stratejik Araştırmalar Merkezi Yay*, 498-507. Ankara.
- Porloq İnjular*. 2020. Neşre Haz: M. H. Hamdam Faryabiy. Ankara: Sahil Kitap.
- Vekilzade, Gulamsahi. 2002. *Ko'ngil Navosi*. Peşaver: Müessese-i İntişarat-i Kabili.

Linguistic Characteristics of the Naziraz Ghazals and Tahmis Written by Afghanistan Poet Alim Labib to Nevai Poems

Rıdvan OZTURK¹

Abstract

Uzbeks are one of the most populous Turkic peoples. Uzbeks today live not only in Uzbekistan but also in many other countries. Afghanistan is one of these countries. In the 15th century, Ali Shir Navoi lived in the Herat region of Afghanistan and his poems written in Turkic are still read and understood in this region, and even nazir ghazals are written to his ghazals. In addition, tahmis are also made by adding verses to his ghazals.

In this article, we will identify the ghazals and tahmis written by

¹ *Rıdvan OZTURK* – Dr. Lecturer, Necmettin Erbakan University.

E-mail: ridvanozturk1961@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-4085-0010

For citation: Rıdvan Öztürk. 2024. "Linguistic Characteristics of the Naziraz Ghazals and Tahmis Written by Afghanistan Poet Alim Labib to Nevai Poems". *Golden Scripts* 1: 118 – 130.

Afghan Uzbek poet Âlim Labib to Ali Shir Navaî's poems and compare them with Navaî's poems in terms of language and style. In addition, based on Âlim Labib's poems, we will point out some differences of Afghan Uzbek from Ali Shir Navoi's language and standard Uzbekistan Uzbek.

Key words: *Afghanistan Uzbek, Alim Labib, Ali Shir Navai, ghazal, standard Uzbek, linguistic features, cultural connection, poetry in Chagatai.*

References

- Avcı, Y. 1997. "Özbek Türkçesindeki Ünlü Uyumlarına Dair". *Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi* 4: 166-172.
- Bahayî, S. T. Taşkın. 2023. *Amir Alisher Navoiy, Hamsa*. Tahran: Horasan Neşriyatı.
- Ercilasun, Ahmet Bican. 2004. *Başlangıçtan Yirminci Yüzyıla Türk Dili Tarihi*, Ankara: Akçağ
- Hasan, Nadir. 2020. "Güney Türkistanlı Münevver Seyyid Muhammed Âlim Labib Hakkında Bazı Mülahazalar", *Poloq İnjular*, 154-167. Neşre haz. M. H. H. Faryobiy. Ankara: Sahil Kitap.
- Juzjoni Shar'iy. 2017. "Afg'onistonda Navoyi-shunoslik", *Cihan Edebiyatı Gazetesi*, Taşkent 2001. (Makale, Juzjani tarafından yeniden düzenlenerek 19.10.2017 tarihinde tarafımıza gönderilmiştir).
- Kuhken Muhammed Âlim. 2013. "Afg'oniston'da O'zbek Tilining O'tmis-hi va Bugungi Ahvoli", <https://cenubiturkistan.wordpress.com/2013/07/26/>. (20.10.2017 alıntı tarihi).
- Labib Muhammed Âlim. 2005. *Tuyg'ularim Qayg'ularim-Tanlangan Sherlar To'plami*. Mezarışerif.
- Öztürk, Rıdvan. 2014. *Günümüz Afganistanlı Özbek Şairleri*. Konya: Palet yayınları.
- Öztürk, Rıdvan. 2018. "Afganistan Türkleri İçin Ali Şir Nevayî'nin Önemi", *Yeni Türkiye*, sa. 101-Türk Dili Özel Sayısı III, Mayıs-Haziran 2018. *Yeni Türkiye Stratejik Araştırmalar Merkezi Yay*, 498-507. Ankara.
- Porloq İnjular. 2020. Neşre Haz: M. H. Hamdam Faryabiy. Ankara: Sahil Kitap.
- Vekilzade, Gulamsahi. 2002. *Ko'ngil Navosi*. Peşaver: Müessese-i İntişarat-i Kabili.

LINGVISTIKA

LINGUISTICS

O'zbek milliy transkripsiyasini yaratish yo'lida

Samixon Ashirboyev¹

Abstrakt

O'zbek milliy transkripsiyasi masalasi o'tmishda davlat miqyosida qo'yilmagan edi, balki transkripsiya har bir tadqiqotchining o'z tanlovi bo'lgan. V. V. Reshetov tashabbusi bilan o'zbek shevalarini yozib olishda qo'llanadigan transkripsiyaning yuzaga kelishi bu sohadagi muammolarni kamaytirgan edi, lekin bu transkripsiya yangi sharoitda faoliyatda bo'lmasligi aniq bo'lib qoldi.

O'zbekiston Respublikasida lotin asosidagi yozuvning joriy etilganligiga o'ttiz yil bo'lyapti. Bu davr ichida nashr va matbuot ishlarimizning katta qismi lotin alifbosi asosidagi yozuvda e'lon qilinmoqda. Hozirgi oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan yoshlar lotin yozuviga to'la o'tishgan. Endilikda ilmiy yozuv nomi bilan yuritib kelingan transkripsiya tizimini ham lotin yozuvi asosida yaratish davri keldi va uning namunalari paydo bo'ldi. Ushbu maqolada o'zbek milliy transkripsiyasi tizimini yaratish masalasi yoritilgan va u Xalqaro fonetik alifboning turkologiyada muvaffaqiyat bilan qo'llanayotgan varianti asosida ishlab chiqildi hamda taklif etilayotgan tizim 2016-yildan beri oliy ta'limda tajriba qilib kelindi.

Kalit so'zlar: *transkripsiya, transkripsion belgi, transkripsion tizim, dialektologiya, Xalqaro fonetik alifbo, tovush, unli va undosh tovush.*

Kirish

Filologik ilmda transkripsiyaning alohida o'rni bor. Bu tizimning yaratilishi dunyo tilshunosligining katta yutug'i bo'lgan. Ilmda va axborot tizimida transkripsiya deyarli ayni yoki bir-biriga yaqin ta'riflar berilgan. Muhimi, transkripsiya nutqqa xos tovush va uning qirralarini ifodalashda yozuvda qo'llanadigan harflar, belgilar (ishoralar) tizimi hisoblanadi. Tilshunoslikda undan nutq tovushining aniqligi talab qilingan o'rinlarda foydalaniladi.

O'zbek til bilimi, uning dialektologiya sohasining rivojlanish

¹ Ashirboyev Samixon – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: samixon.ashirboyev@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-5202-6494

Iqtibos uchun: Ashirboyev, S. 2024. "O'zbek milliy transkripsiyasini yaratish yo'lida". *Oltin bitiglar* 1: 131 – 142.

bosqichida milliy transkripsiya masalasi kun tartibiga chiqmoqda. Buning tarixiy sabablaridan biri davr tadqiqotchilarining aksariyati o'zbek dialektologiyasini kirill yozuvi asosidagi transkripsiyada o'rganib kelganligidir, lekin o'sib kelayotgan avlod ta'lim bosqichlarida lotin asosidagi yozuvda savod chiqarganligi va shu yozuvda ish ko'rayotganligi ta'lim jarayonida va tadqiqot olib borishda bu transkripsiyaning istiqbolli bo'lmasligi ham reallashdi. Shuningdek, hozir ham dialektologlarimizning kiril asosidagi transkripsiyadan foydalanayotganligi o'zbek shevalari bo'yicha tadqiqotlarning xalqaro maydonga chiqishi uchun yo'l bermayotirki, endilikda o'zbek dialektologiyasi fanining yangi sharoitda rivojlanishi uchun muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Demak, dialektologiyaning yangi bosqichdagi taqdiri ko'p jihatdan milliy transkripsiya masalasini uzil-kesil hal qilishga bog'liq bo'lib qoladi. Tan olish kerakki, keyingi 4 yil ichida 8 marta dialektologiyaga bag'ishlangan Xalqaro va Respublika konferensiyalari va unda o'zbek shevalari bo'yicha 800 dan ortiq ma'ruza (maqola) e'lon qilingan bo'lsa-da, yirik dialektologik tadqiqotlar amalga oshirilmadi. To'g'ri, ilmiy tamoyillarga rioya qilinmasa-da, ayrim lug'atlar paydo bo'ldi, lekin bu lug'atlar dialektologlar tomonidan amalga oshirilmadi, balki ular dialektologlar yaratishgan bo'lsa-da, unda transkripsiya tamoyillari hal qilinmay turib, bu ishga kirishilgan. Buni shu lug'atlarning mualliflari kamchiligi deb qarash ham kerak emas, balki hozirga qadar lotin alifbosi asosidagi yagona va rasmiy tan olingan transkripsiya tizimining joriy etilmaganligi bilan izohlash mumkin. Lotin alifbosi asosidagi transkripsiya tizimining dastlabki variantlari yaratildi va u darsliklarda aks ettirildi [Ashirboyev 2016, 21-22; 2021, 26-27; Муродова 2019, 18-19], lekin bu darsliklarda umumiylik saqlanmagan, shu tufayli bo'lsa kerak, ilmiy ishlar hamon kirill asosidagi transkripsiyada, qisman, lotin alifbosi asosidagi transkripsiyada bajarilmoqda va ularda yagona yondashuv, tamoyil namoyon bo'lmayapti. Yirik tadqiqotlarda ham shunday holat kuzatiladi. Bu esa o'zbek dialektologiyasida mavjud turg'unlikning hamon saqlanishiga olib kelmoqda¹.

Milliy transkripsiya sari

Hozirgi kunda ikki yozuvda: ham kirillda, ham lotinda tayyorlangan transkripsiya tizimi namunalari bor. Ma'lumki, dialektologiya, etimologiya, tarixiy fonetika va grammatikaga oid

¹ Darsliklardagi farqlar to'g'risida quyiroqda fikr yuritiladi.

tadqiqotlarni transkripsiyasiz amalga oshirib bo'lmaydi. O'zbek tilshunosligi shakllana boshlagan davrdanoq transkripsiyaga ehtiyoj bo'lgan, hatto, unga 20-yillarning davlat arboblari ham e'tibor qaratgan, jumladan, 20-yillarda lotin alifbosiga o'tish chog'ida Nazir To'raqulov "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnaliga xat yo'llab, alifboning ikki: amaliy (praktika) va ilmiy (bilim) alifbolari turlari mavjudligini ko'rsatgan hamda transkripsiya tizimini ilmiy alifbo deb yuritgan edi [Nazir 1926, 45-49]. Lekin u o'z transkripsiya tizimini taklif qilgan emas.

Ta'kidlash joizki, 20- va 30-yillardan boshlab keyingi davrlarda ham yozib olingan matnlarda turli xildagi transkripsiya belgilarini kuzatish mumkin. Prof. Y. D. Polivanov o'zbek shevalarini yozib olishda lotin alifbosiga asoslangan xalqaro transkripsiyadan foydalanishga harakat qilgan, lekin kirill tizimiga ham ora-orada murojaat qilgan. Bu fikrni uning sobiq Ittifoq Fanlar Akademiyasi-ning "Известия" jurnalidagi maqolasida qo'llagan transkripsiyasi asosida aytmogdamiz. Faqat unilarning o'zini tahlil qilganimizda Turkiston shevasida **ı, y, e, ø, æ, ъ, u, o, a**; Iqon shevasida **i, y, e, ø, ε, u, ш, а, о** transkripsiya belgilarini qo'llaganki [Поливанов 1929, 515, 528], shuning o'zidan transkripsiyadagi yagonalikning bo'lmaganligini ko'rish mumkin. Y. D. Polivanov Turkiston va Iqon shevalarida unli fonemalar uchun qo'llagan belgilarning muvofiq-ligini quyidagi jadvalga tushirish mumkin:

	Turkiston shevasida	Iqon shevasida	Fonemaning xususiyati	Turkiston shevasida	Iqon shevasida
old qator	ı	i	orqa qator	ъ	ш
old qator	y	y	orqa qator	u	u
old qator	e	e	orqa qator	o	o
old qator	ø	ø	orqa qator	a	a
old qator	æ	ε			

Ko'rinib turibdiki, birinchidan, transkripsiya uchun tayanch alifbo tanlanmagan, ya'ni unda lotin alifbosi ham, rus alifbosi (ъ) ham ishtirok etmoqda; ikkinchidan, ayni bir fonema uchun turlicha shakl olingan (ı/i, ъ/ш, æ/ε). To'g'ri Y. D. Polivanov o'zbek adabiy tilidagi **a** fonemasiga ekvivalent bo'la oladigan æ va ε harflari bilan ifodalangan fonemalarning artikulyatsiyasida farq borligini aytadi [Поливанов 1927, 529]. Aslida ular jiddiy farqlar emas, balki bir unlining variatsiyalaridir. Demak, ularni bir alifbo imkoniyatlaridan kelib chiqib yoritish mumkin edi, boshqacha aytganda, uning qo'llagan transkripsiya belgilari turli tizimdagi

alifboni aks ettirgan. To'g'ri, transkripsiyada boshqa alifbolardan harf (belgi) qabul qilinishi mumkin, shunda ham uning sabablari va isboti bilan amalga oshirilishi lozim bo'ladi. Afsuski, bu ish amalga oshirilgan emas. Albatta, uning transkripsiyadagi bunday murakkab tizimi keyingi davr tadqiqotchilarining ham chalg'ishiga olib kelmoqda.

Undosh fonemalarda, asosan, turkologiyada qo'llanib kelgan harflardan foydalangan, lekin ba'zi o'rinlarda undan chekinadi, ya'ni γ (g') o'rnida **а** harfini qo'llaydi, vaholanki, turkologiyada γ harfidan foydalanib kelingan [<https://www.google.com>]. To'g'ri, **а** harfi ham xalqaro fonetik alifboda bor, lekin undan foydalanish noqulay.

G'ozii Olim Yunus 1927-yilda "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalida "O'zbek tilining tovushlari" maqolasini e'lon qiladi. Bu maqolada o'zbek shevalaridagi unli va undosh tovushlarga tavsif beradi va tovushlarni uch alifbo tizimini qo'llagan holda yoritib boradi, ya'ni arab harflariga qo'shimcha belgi qo'yish (an'anadagi belgilar va o'zi tomonidan ham) orqali shevadagi xususiyatni ifoda qilgan [Янгибаева 2010, 49-62]. Uning qo'llagan belgilaridan ba'zilarini keltirib o'tamiz: **ə** unlisini **آ, ә, ä** grafemalari, **e** unlisini **э, е** grafemalari bilan, **ъ** unlisini **и** va **э** grafemalari bilan ifoda qiladiki, bu bilan ayni o'rinda o'sha davr dialektologlarini nazariy jihatdan qurollantirgan ham edi. Bu G'ozii Olim Yunusning shaxsiy tashabbusi bo'lgan. Bu tizimini uning keyingi ishlarida ham ko'rish mumkin.

G'ozii Olim Yunus "O'zbek lahçalarini tasnifda bir taçriba" asarida o'zbek shevalaridan material to'plaganda "baynalmilal ilmiy fonetik alifbedan (M.F.F.) foydalanganini ta'kidlaydi, lekin bu fikriga yana shunday izoh beradi: "O'zbekiston bosmaxonalarida ilmiy imloga tegishli harflar yo'qligi sababli bu asardagi o'rnaklarni o'zbek alifbesi bilan berishga majbur bo'ldim" [G'ozii Ālim Yunus 1935, 5]. G'ozii Olim Yunus asarida qo'llagan transkripsiyani tahlil qilganimizda simvol tizimidagi aksariyat harflarga murojaat qilgani ma'lum bo'ldi: **и, u, y, e, ө, ә, а, ɔ** kabi. Keyinchalik rus grafikasi asosidagi transkripsiya tizimida qo'llangan harflardan foydalangan (lekin ular G'ozii Olim Yunus aytganidek, shu davrdagi "o'zbek alifbesi" bo'lmagan), shuningdek, **ь** (uni old qator unli deb yuritgani holda, matnlarda til orqa unlisini ifoda qilgan), **ъ** (uni "ikkinchi daraja ochiq unli" uchun olgan), **æ, œ, ɐ, œ, æ, Σ, χ, ç, š** kabi belgilarni ham zaruriyat uchun ishlatgan va har bir transkripsion belgining qaysi shevada qanday akustik xususiyati borligini birga ko'rsatib boradi.

Anglashilmoqdaki, G'ozim Olimning Xalqaro fonetik alifbodan foydalanish istagi bo'lgan, lekin tadqiqotida hali bir tizimga tushmagan transkripsiyaning qo'llagan, oqibatda u qo'llagan transkripsiya e'lon qilgan matnlarini (o'rnak) o'qish va tahlil qilishni qiyinlashtirgan, lekin uning shunday tizimni yaratishga bo'lgan intilishini ijobiy baholashimiz zarur.

Bunday xilma-xilliklar boshqa dialektologlar va turkologlarda ham qayd qilinadi. Xullas, transkripsiyada tartibsizliklar yuz bergan, ayni zamonda bu holat har tomonlama ilmiy asoslangan transkripsiya tizimini yaratish zarurligini keltirib chiqargan. Pirovard natijada, fanda ilmiy va amaliy transkripsiya yaratish g'oyasi paydo bo'ldi va bu muammoni dastlab prof. V. V. Reshetov bajardi. U kirill alifbosi asosida o'zbek shevalari uchun qo'llanadigan transkripsiya tizimini ishlab chiqdi va darslikka kiritdi [Решетов, Шоабдурахмонов 1962, 37-41], hozirgacha ham bu tizimdan foydalanilib kelinmoqda¹. To'g'ri, bu ishlanma barcha shevalar uchun majburiy qilib qo'yilmadi, balki har bir dialektolog uchun erkinliklar berilgan o'rinlar ham mavjud edi. Shuning uchun dialektologik ishlarda har bir tadqiqotchi ish boshlashdan avval o'zi qo'llaydigan transkripsiya belgilari to'g'risida ma'lumot berishga majbur bo'lgan. Bu tajriba til tarixiga oid ishlarda ham bor [Абдурахманов 1967, 5]. Bu esa boshqa tilshunoslar uchun o'sha tadqiqot ishini tushunishda ayrim qiyinchiliklarni keltirib chiqargan.

Hatto V.V.Reshetov va Sh. Shoabdurahmonovlarning "O'zbek dialektologiyasi" darsligidan keyin yaratilgan darsliklarda ham transkripsiya asoslarini berishda ularning tizimiga tayanilganligi aytilgan holda, undan chekinish hollari yuz berdiki, bunday ma'lumotlar keyinchalik, avval ta'kidlaganimizdek, dialektologik tadqiqotlardagi lozim bo'lgan mazmunning tushunilishiga va talqiniga jiddiy to'sqinlik qilib kelmoqda.

Darsliklarda transkripsiya tizimini yaratish bo'yicha talablar ham uchraydi. V. V. Reshetov va Sh. Shoabdurahmonovlar har qanday tovushni (bu yerda har bir nutq tovushi demoqchi) ifodalash uchun ayrim belgi (bir belgi demoqchi) olish talab qilinadi, degan fikrni ilgari surishadi [Решетов, Шоабдурахмонов 1962, 36], bu e'tiborli fikr, lekin buning har doim imkoniyati yo'qligini o'zlari ham ta'kidlashadi. N.Rajabov esa quyidagi talablarni keltiradi

¹ V. V. Reshetovning kirill yozuvi asosidagi transkripsiyasiga bag'ishlangan maqolasi Nizomiy nomidagi TDPIning (1947) ilmiy to'plamida nashr qilingan. Bu manbadan foydalanish imkoniyati bo'lmadi, balki bu tizim V. V. Reshetovning Sh.Shoaabdurahmonov bilan birga e'lon qilgan "O'zbek dialektologiyasi" darsligiga kiritilganligi uchun shu manba asosida fikr yuritildi.

[Ражабов 1996, 75]:

1. Transkripsiyada imlo qoidalari emas, so'zlarning talaffuz xususiyatini ko'zda tutish lozim. Bu qayd talab darajasiga ko'tarilgan emas.

2. Uningcha, transkripsiyada bosh harflar qo'llanilmaydi. Bu fikrda haqiqat bor, chunki transkripsiya belgilari faqat kichik harflarda ko'rsatilishi keng tarqalgan, lekin matn yozishda gap boshida va atoqli otlarda shu belgining katta harfidan foydalanish an'anasi bor.

3. Transkripsiyada bir harf bir tovushni ifoda qilishi kerak. Bu fikr o'rinli, lekin bu talab ham ba'zan buzilib kelgan. Biz bu talablardan ijobiy baholangan o'rinlarni nazarda tutamiz.

Shuni aytish kerakki, transkripsiya umumiyligini ta'minlashda, albatta, oliy ta'lim muassasalari uchun tayyorlangan darslik va qo'llanmalarda ularning berilishi muhim rol o'ynaydi, boshqacha aytganda, transkripsiya bo'yicha dastlabki tushuncha va ko'nikmalar darslik va qo'llanmalar orqali olinadi. Shu munosabat bilan ularda yagona yondashuvning holatini aniqlash maqsadida kirill alifbosidagi transkripsiya belgilarining darsliklarda berilishini qiyosiy tahlil qilishga harakat qilamiz (unlilar)¹:

1	2	3	4	5	6	7
a	a	a	a	a	a	a
ə	ə	ə	ə	ə	ə	ə
o	o	o	o	o	o	o
e	e	e	e	e	e	e
э	э	э	э	-	э	-
€	€	€	-	€	€	€
и	и	и	и	и	и	и
ы	ы	-(ы)	ы	ы	ы	ы

¹ Raqamlar quyidagi darsliklarni ifoda qiladi:

1. Решетов В. В., Шоабдурахмонов Ш. 1962. Ўзбек диалектологияси. Тошкент: Ўрта ва олий мактаб.
2. Решетов В. В., Шоабдурахмонов Ш. 1978. Ўзбек диалектологияси. Тошкент: Ўқитувчи.
3. Ражабов Н. 1996. Ўзбек шевашунослиги. Тошкент: Ўқитувчи.
4. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. 2004. Ўзбек диалектологияси. Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти.
5. Ashirboyev S. 2016. *O'zbek dialektologiyasi*. Toshkent: Navroz.
6. Муродова Н. 2019. Ўзбек диалектологияси. Тошкент: Barkamol fayz media.
7. Ashirboyev S. 2021. *O'zbek dialektologiyasi*. Toshkent: Nodirabegim. Lotin alifbosida yozilgan darsliklardagi kiril asosidagi transkripsiya e'tiborga olinadi.

б	б	б	б	б	б	б
б	б	б	б	б	б	б
у	у	у	у	у	у	у
у	у	у	ү	у	у	у
о	о	о	о	о	о	о
е	е	е	е	е	е	е
ё	ё	ё	А	-	ё	-

Bu jadvaldan ko'rinib turibdiki, V. V. Reshetov ishlab chiqqan transkripsiyaga asosan amal qilingan, lekin **е, е, э, в, у, ё, А** harflarining qo'llanishida farqlar bor. N. Rajabov transkripsiyani yoritishda **ы** unlisini keltirmaydi, lekin shevadan olingan misollar va matnlarda undan foydalanadi.

Undoshlar transkripsiyasi uchun amaldagi (kirill) harflar olingan, lekin ayrim o'zgarishlar qilingan: **нр** uchun **н**, qorishiq portlovchi **ж** uchun **дж** olingan. **ң** harfining **нр** uchun olinishini tushunish mumkin, chunki boshqa turkiy tillarda bu harfdan foydalanib kelingan, ammo **дж** harfiy birikmasining berilishi asossiz edi. Bu esa keyinchalik dialektologik va til tarixi tadqiqotlarida qabul qilinmasligiga sabab bo'ldi. Shuningdek, V. V. Reshetov transkripsiyasidagi **р¹, г¹, к¹, л¹, нг¹, нг^к, т^и, х¹, қ^х** belgilardan ham tadqiqotlarda foydalanilmadi, chunki bu belgilar qattiq-yumshoqlikni ifodalash uchun qo'llanadigan bolsa, bu hodisa bir ukladli undoshlardan boshqa barcha undoshlarga xos bo'lgan, aslida bunday belgilarga hojat bo'lmagan. Demak, kirill yozuvidan foydalanilgan davrda ham transkripsiya tizimini isloh qilishga hojat bo'lgan.

V. V. Reshetov ishlab chiqqan transkripsion belgilardan keyingi davr tadqiqotchilari erkin foydalanganlar, ya'ni shaklan bu harflar saqlangan bo'lsa-da, mazmunan boshqa maqsadlarda foydalanganlar.

Lotin yozuviga o'tilgach, transkripsiya tizimini yaratishga ehtiyoj yuzaga keldi, lekin bu yozuvga o'tishga kirishilmadi. Buning boisi shunda ediki, o'zbek shevalari bo'yicha to'plangan boy meros kirill yozuvi asosidagi transkripsiyada yozib olingan va nashr etilgan edi. Oliy o'quv yurti talabalari esa lotin yozuvida ta'lim olayotganligi tufayli kirill yozuvi asosidagi transkripsiyani o'rgatish zarurati bo'lgan. Bunda talabalarimizga o'tmish merosimizdan foydalanish imkoniyati yaratilgan edi. 2016-yildan e'tiboran esa ham lotin, ham kirill harflari ishtirokidagi transkripsiya tizimi tavsiya qilindi [Ashirboyev 2016, 18-22]. Garchand bunday yondashuv

“o’tish bosqichi” vazifasini bajargan bo’lsa ham, bu transkripsiya amaliy natija bera olmasligi ayon bo’la boshladi, ya’ni ikki tizimdagi transkripsiyani o’rganish talabalarga qiyinlik qilib qoldi. Buni hisobga olgan holda, to’laligicha lotin yozuvi asosida transkripsiya tizimini yaratish va uni o’quv jarayoniga kiritish ma’qul ko’rildi. Shuningdek, bu yaratilgan transkripsiya tizimi faqat shevalarni yozib olish uchun emas, balki tarixiy grammatika ilmida ham baravar qo’llanishini nazarda tutar edi, chunki bu ikki soha uchun alohida-alohida transkripsion sistemaning amal qilishi nafaqat o’quv jaryonida, balki ilmiy ishlarda ham noqulayliklarni keltirib chiqarar edi. Demak, keyingi ikki darslikda aks etgan transkripsiya tizimi har ikkala sohaga baravar xizmat qila olish imkoniyatini berdi. To’g’ri, sheva xususiyatlarini ko’rsatishda belgilar miqdori ko’proq kerak bo’ladi. Lotin alifbosida bu muammo bo’lmadi, balki bu borada lotin grafikasining imkoniyatlari katta ekanligi hisobga olindi. Milliy transkripsiyani yaratishda oldimizda uch yo’l turgan edi:

1. Hozirgi milliy yozuv asosida ishlab chiqish.
2. “Xalqaro fonetik alifbo” asosiga qurish.
3. Turkologiyada qo’llanayotgan transkripsiyaga tayanish.

Bu transkripsiyadan ayrim o’zgartirishlar bilan o’zbek olimlari ham foydalanganlar [Sodiqov 2009].

Har uchala alifbo lotin alifbosi asosida yaratilganligi ayon, lekin milliy transkripsiyani hozirgi milliy yozuvimiz va “Xalqaro fonetik alifbo” unsurlaridan foydalangan holda, turkologiyada qo’llanilayotgan transkripsiyaga asoslanib yaratish ma’qul ko’rildi. Bunda:

- bu yozuvlarning bir manbadan kelib chiqqanligi va o’zaro yaqinligi;

- turkologiyada qo’llanayotgan transkripsiyadan mamla-katimizda ham, xorijda ham keng foydalanilayotganligi;

- o’zbek olimlarining tadqiqot ishlaridan xorijlik olimlar yaqindan tanisha olishlari;

- yosh bo’g’in, ya’ni talabalarimiz, yosh tadqiqotchilarimiz axborot tizimlaridagi turkologiyaga oid ishlardan erkin foydalana olishlari ko’zda tutilmoqda. Endi qabul qilina-jak transkripsion belgilar tavsifiga to’xtalamiz:

a – orqa qator, quyi-keng, lablanmagan unli. Bu harfning kirilldagi va xalqaro transkripsiyadagi grafik va mazmun xusu-siyatlari mos keladi.

ä – old qator, quyi-keng, lablanmagan. Turkologiyada keng

qo'llanadi. Bu kirillga asoslangan transkripsiyada *ə* grafemasi bilan berilgan.

ā – orqa qator, quyi-keng, qisman lablangan, shahar va shahar tipidagi shevalarimizda hamda tilimiz tarixida fors tilidan o'zlashgan so'zlarda uchraydi. Bu belgidan turkologik ishlarda foydalanilmaydi, o'zbek tili shevalarini o'rganishda *ɔ* harfidan foydalanib kelindi. Tavsiya etilayotgan harf xalqaro transkripsiyada bor. U o'zbek adabiy tilidagi *o* unlisiga mos keladi.

e – old qator, o'rta-keng, lablanmagan.

i – old qator, yuqori-tor, lablanmagan, turkologiyada keng foydalaniladi.

ï – orqa qator, yuqori-tor, lablanmagan. Bu grafemadan ham turkologik ishlarda keng foydalaniladi.

i va *ï* unililari o'zbek shevalaridagi qisqa tovushni ifodalash uchun (*til, qil*), til tarixi matnlari uchun cho'ziq va qisqa oralig'idagi indifferent tovush uchun tavsiya etiladi.

u – orqa qator, yuqori-tor, lablangan. Turkologiyada ham, xalqaro transkripsiyada ham keng qo'llanadi.

ü – old qator, yuqori-tor, lablangan. Turkologiyada keng foydalaniladi. Kirillga asoslangan transkripsiyadagi *у* grafemasini almashtiradi.

o – orqa qator, o'rta-keng, lablangan. O'zbek adabiy tilidagi *o'* grafemasiga mos keladi.

ö – old qator, o'rta-keng, lablangan. Turkologiyada ham, xalqaro transkripsiyada ham mavjud. Kirillga asoslangan transkripsiyadagi *ө* grafemasini almashtiradi.

O'zbek tilining Namangan shahar, O'sh va Qorabuloq, Iqon kabi shevalari uchun xarakterli bo'lgan hamda o'zbek dialektologlari qo'llab kelgan *e* va *ä* o'rtasida talaffuz qilinadigan *ε* unlisi o'zbek dialektologiyasiga oid ishlarda qo'llanib kelinmoqda, simvol tizimida ham bor, ehtimol, uni saqlab qolish mumkindir, lekin biz xalqaro transkripsiyadagi *æ* harfidan foydalanishni tavsiya etgan bo'lar edik, bu, o'z navbatida, boshqa turkiyzabon dialektologlar uchun umumiy transkripsiya belgisi sifatida qo'llanishiga zamin hozirlagan bo'lar edi.

Shuningdek, tilimiz tarixida qayd qilinadigan va shevalarimizda ham saqlanib qolgan birlamchi cho'ziq unililarni ifodalashda ikki nuqta (:)dan foydalanishni saqlab qolish zaruriyati bor.

Undoshlarni transkripsiya qilishda quyidagi harflardan foydalanish maqsadga muvofiq: *b, ċ* (amaldagi *ch* o'rnida), *d, ð* (til

tarixidagi **dz** qorishiq undoshi uchun) **g, γ** (amaldagi **g'** o'rnida), **h, j** (amaldagi **u** o'rnida), **k, l, m, n, η** (amaldagi **ng** o'rnida), **p, q, r, s, š** (amaldagi **sh** o'rnida), **t, v, ž** (amaldagi **j** o'rnida).

Ma'lumki, turkiy tillarda, shu jumladan, tilimiz tarixida va shevalarimizda singarmonizm qonunining mavjudligi undoshlarning ham ikki ukladli bo'lishini taqozo etgan. Shu tufayli ham qadimgi turkiy run yozuvida undoshlarning palatal va velyar variatsiyalarini ifodalashda alohida-alohida belgilar qo'llangan (8). Faqat **q, γ, x, k, g** bir ukladli, ya'ni yo old qator, yo orqa qator bo'lgan. Turkologiyada undoshlarning velyar variantlarini ko'rsatishda ba'zan harf tagiga nuqta qo'yilgan, amaldagi aksariyat ishlarda velyar variatsiyasiga hech qanday qo'shimcha belgi qo'yilmagan, aksincha, harfning chap tomoniga akut belgisini qo'yish bilan uning palatal variatsiyasi ifoda qilingan. Bizning nazarimizda ham, keyingi yo'l qulaylikka ega, ya'ni kompyuterda harf tagiga nuqta qo'yishga nisbatan uning ustiga chiziqcha qo'yish osonroqdir. Eng muhimi, u amalda bor.

Xulosa

Yagona milliy transkripsiyaning qabul qilinishi mamlakatimizda dialektologiya, etimologiya va til tarixiga oid ishlarning saviyasini oshirishga, ilm ahli yakdilligini ta'minlashga hamda turkologiyada o'zbek tadqiqotchilari ishlarining kengroq yoyilishiga xizmat qilgan bo'lar edi. Quyida mas'ul organ tasdiqlab berishi lozim bo'lgan **O'zbek Milliy transkripsiyasi** loyihasini keltiramiz.

O'zbek Milliy transkripsiyasi (tayanch harflar)

Unlilar tizimi

a – orqa qator, quyi-keng, lablanmagan unli.

ä – old qator, quyi-keng, lablanmagan.

ā – orqa qator, quyi-keng, qisman lablangan.

e – old qator, o'rta-keng, lablanmagan.

i – old qator, yuqori-tor, lablanmagan.

ī – orqa qator, yuqori-tor, lablanmagan.

u – orqa qator, yuqori-tor, lablangan.

ü – old qator, yuqori-tor, lablangan.

o – orqa qator, o'rta-keng, lablangan.

ö – old qator, o'rta-keng, lablangan.

æ – old qator, o'rta-keng, lablangan.

Undoshlar tizimi

b, ċ (ch), d, đ (til tarixidagi **dz** qorishiq undoshi uchun), **g, γ** (amaldagi **g'** o'rnida), **h, j** (amaldagi **y** o'rnida), **k, l, m, n, ŋ** (amaldagi **ng** o'rnida), **p, q, r, s, š** (amaldagi **sh** o'rnida), **t, v, ž** (amaldagi **j** o'rnida).

Shevalardagi fonemalarning variatsiyalari tadqiqotchi tomonidan shu tayanch harflarga qo'shimchha belgilar qo'yish bilan yoki boshqa yozuv tizimidan tayanch harflarga shaklan yaqin keladigan belgilar tanlash bilan amalga oshirilishi tavsiya etiladi.

Adabiyotlar

- Абдурахманов, Г. 1967. *Исследование по старотюркскому синтаксису*. Москва: Наука.
- Аманжолов, А. С. 2003. *История и теория древнетюркского письма*. Алматы: Мектеп.
- Ashirboev, S. 2016. *O'zbek dialektologiyasi*. Toshkent: Navroz.
- Hazir. 1926. "O'zbek bilim markaziga". *Maorif va o'qitg'uchi* 10-11.
- Поливанов, Е. Д. 1927. "Говор города Туркестана". *Известия АН СССР*. Отд. гуманитарных наук, 7, Л.
- Qozi Ālim Junus. 1935. *Ozbek lahçalarini tasnifda bir taçriba*. Tāshkent: OzSSR davlat naşrijati.
- Ражабов, Н. 1996. *Ўзбек шевашунослиги*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Решетов, В., Шоабдурахмонов, Ш. 1962. *Ўзбек диалектологияси*. Тошкент.
- Sodiqov Q. 2009. *Turkiy til tarixi*. Toshkent: TDShI.

On the way to Creating the Uzbek National Transcription

Samikhan Ashirbaev¹

Abstract

In the past, the issue of Uzbek national transcription was not set at the state level, but transcription was the choice of each researcher. The emergence of the transcription used in the recording of Uzbek dialects on the initiative of V.V.Reshetov reduced the problems in this field, but it became clear that this transcription would not work in the new conditions.

¹ Samikhan Ashirbaev – Doctor of Philological Sciences, Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: samixon.ashirboyev@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-5202-6494

For citation: Ashirbaev, S. 2024. "On the way to Creating the Uzbek National Transcription". *Golden Scripts* 1: 131 – 142.

Thirty years have passed since the introduction of the Latin script in the Republic of Uzbekistan. During this period, most of our publications and press works are published in writing based on the Latin alphabet. Young people studying in modern higher education institutions have completely switched to Latin script. Now the time has come to create the transcription system, known as scientific writing, on the basis of Latin writing, and its examples have appeared. This article describes the creation of the Uzbek national transcription system, and it was developed based on the version of the International Phonetic Alphabet that is successfully used in Turkology, and the proposed system has been experimented in higher education since 2016.

Key words: *transcription, transcription symbol, transcription system, dialectology, International Phonetic Alphabet, sound, vowel and consonant sound.*

References

- Abduraxmanov, G. 1967. *Issledovanie po starotyurkskomu sintaksisu*. Moskva: Nauka.
- Amanjолоv, A. S. 2003. *Istoriya i teoriya drevnetyurkskogo pisma*. Almati: Mektep.
- Ashirboev, S. 2016, 2021. *O'zbek dialektologiyasi*. Toshkent: Navroz.
- Nazir. 1926. "O'zbek bilim markaziga". *Maorif va o'qitg'uchi* 10-11.
- Polivanov, Y. D. 1927. "Govor goroda Turkestana". *Izvestiya AN SSSR*. Otd. gumanitarnix nauk, 7, L.
- Qozi Ālim Junus. 1935. *Ozbek lahçalarini tasnifda bir taçriba*. Tāşkent: OzSSR davlat naşrijati.
- Rajabov, N. 1996. *O'zbek shevashunosligi*. Toshkent: O'qituvchi.
- Reshetov, V., Shoabdurahmonov, Sh. 1962. *O'zbek dialektologiyasi*. Toshkent.
- Sodiqov Q. 2009. *Turkiy til tarixi*. Toshkent: TDShI.

Kul tigin bitigtoshidagi ijtimoiy-siyosiy leksika

Baxtiyor Abdushukurov¹

Abstrakt

Ushbu maqolada Kul tigin bitigtoshida ijtimoiy tuzum, jamiyat a'zolarining mehnat jarayonlar, ularning o'zaro bir-birlari bilan munosabatlar, jamiyat ishlariga faol aralashuvi, xalqaro aloqalar, harbiy yurishlar natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy leksik birliklar semantikasiga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, maqolada Kul tigin bitigtoshida qo'llangan ijtimoiy-siyosiy terminlar Turfon matnlari, "Oltun yoruq", "Irq bitigi" yodnomalari, eski turkiy til ("Qutadg'u bilig", "Devonu lug'otit turk", "Hibat ul-haqoyiq", "Qisasi Rabg'uziy"), eski o'zbek adabiy tili manbalari (Alisher Navoiy asarlari, "Boburnoma", "Shajarayi turk") hamda hozirgi turkiy tillardagi siyosiy atamalar bilan qiyosiy o'rganiladi. Natijada, bu terminlarning davrlar o'tishi bilan rivojlanishi, o'zgarishi va zamonaviy adabiy adabiy tilga ko'chishi, faol qo'llangan leksema turli omillar bois arxaiklashib qolishi, o'rnini boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarga bo'shatib berishi singari masalalarga oydinlik kiritiladi.

Kalit so'zlar: *til tarixi, turkiy tillar, run bitiklari, leksik qatlam, Kul tigin, arxaik unsurlar, Turfon matnlari, moniy yozuv yodgorliklari, yozma manbalar, ichki omil, ekstralingvistik omil, eski turkiy til, eski o'zbek adabiy tili.*

Kirish

Qadimda til va jamiyatda yuzaga kelgan o'ziga xos o'zgarishlar, yangiliklar o'sha davr yozma manbalarida aks etgan. Shu nuqtayi nazardan, til leksikasi tarixini o'rganish, bir tomondan, har bir so'zning tadrijiy taraqqiyot yo'llarini ochib bersa, ikkinchidan, u tilning ayrim davrlardagi so'z boyligini va muayyan fonetik, morfologik, sintaktik xususiyatlarini yoritishga yordam beradi. Binobarin, O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari turkiy tillarning tarixiy rivojlanish bosqichiga oid muhim manba sifatida ahamiyatlidir. Qadimgi turkiy tilning run yozuvida bitilgan namunalaridan

¹ Abdushukurov Baxtiyor Bo'ronovich – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: abdushukurov@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-6964-0714

Iqtibos uchun: Abdushukurov, B. B. 2024. "Kul tigin bitigtoshidagi ijtimoiy-siyosiy leksika". *Oltin bitiglar* 1: 143 – 158.

biri Kul tigin bitiktoshidir. U 732-yilda Eltarish xoqonning kichik o'g'li Kul tigin sharafiga uning akasi Bilga xoqon tomonidan qo'yilgan. Ushbu yodnomada bir qator ijtimoiy-siyosiy terminlar mavjud bo'lib, ular ma'lum bir tarixiy formatsiyani belgilab beruvchi tarixiy-ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy, madaniy, diniy kabi bosh omillar ta'sirida shakllangan.

Ijtimoiy-siyosiy leksika – qo'llanish sohasi, uslubiy belgisi, kelib chiqishi kabi turli jihatlarini ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi voqeliklarni o'zida aks ettirgan lug'at tarkibining o'zgaruvchan guruhidir. U jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy faoliyatlar jarayonida ijtimoiy guruhlar, etnik va ijtimoiy qatlamlar, sinflar, millatlar, xalqlar, davlatlar, mamlakatlar o'rtasida vujudga kelgan xilma-xil aloqalar va munosabatlarni ifodalovchi leksik birliklar yig'indisidan tashkil topgan.

Kul tigin bitigtoshida ijtimoiy tuzum, jamiyat a'zolarining mehnat jarayonlar, ularning o'zaro bir-birlari bilan munosabatlar, jamiyat ishlariga faol aralashuvi, xalqaro aloqalar, harbiy yurishlar natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy leksikani quyidagi tematik guruhga ajratish mumkin:

1) **ma'muriy-hududiy bo'linishni ifodalovchi terminlar:** baliq – «shahar», el – «el», «davlat», bodun – «xalq»;

2) **ma'muriy-siyosiy tartib tushunchasini bildiruvchi leksemalar:** ordu – «saroy», tamga – «tamg'a», törü – «rasm-rusum»;

3) **mansab-martaba va unvonni bildiruvchi leksemalar:** qağan – «podsho», beg – «bek», buyruq – «vazir», tarqat – «tarxon»;

4) **mulk egalari va oddiy tabaqa vakillarini anglatuvchi so'zlar:** bay – «boy», čigān – «kambag'al», qul – «xizmatkor», küñ – «joriya».

Kul tigin yodnomasida shahar **balīq** deb yuritilgan: *kū äsidip baliqdaqī tağmīqmīs tağdaqī inmis* – ovozani eshitib, shahardagi toqqa chiqibdi, tog'dagi pastga tushibdi [KTb, 12]. Shuningdek, kalima bitigtoshda joy nomi tarkibida ham kelgan: Äñ ilik Toğu baliqda sünüşdimiz – eng avval To'g'u baliqda jang qildik (KTb, 44). Termin Eltarish xoqonning maslahatchisi, sarkarda To'nyuquq nomiga qo'yilgan bitigtoshda, Moniy manbalari, Turfon matnlari hamda X asrga oid "Oltun yoruq" [DTS, 80] asarida ayni shakl va mazmunda aks etgan: üç ottuz baliq sidi – yigirma uch shahar mag'lub bo'ldi [KTb, 19]. Mahmud Koshg'ariy ushbu so'zning izohi borasida shunday yozadi: *baliq – johiliya davridagi turklar va uyg'urlar tilida shahar. Uyg'urlarning eng katta shaharlariga Beş*

baliq deyilishi shundandir. *Beş baliq- besh shahar demakdir. Uyg'urlar boshqa bir shaharlariga Yangi baliq – yangi shahar deydi*lar [MK, I, 360]. "O'g'uznoma" dostonida **baluq** fonetik varianti qo'llangan [DTS, 81]. Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarayi turk" asarida *Besh baliq, Xonbaliq* toponimlari tarkibida uchraydi [SHT, 33; 58]. Kezi kelganda aytish kerakki, Kul tigin bitigida tekshirilayotgan so'zning **ulus** ma'nodoshi ham mavjud: *Quriya kün batsiqdaqı soğd bärčäkär Buqaraq ulus bodunta* – janubda kunbotardagi Sug'd, Barchakar, Buqaraq ulusi (shahri) va xalqidan [KTb, 52].

Turfonda topilgan obidalarda bu so'zning **känd** [DTS, 290] sinonimi kuzatiladi. Shu ma'noda aytish mumkinki, qadimgi turkiy tilda *känd* leksemasi *baliq* kalimasi bilan oldiniga ma'nodosh sifatida qo'llangan bo'lsa, keyinchalik, to'g'rirog'i, XII–XIII asrlarga kelib uning o'rnini butunlay egallagan. E.Sevortyanning "Turkiy tillar etimologik lug'ati"da *baliq* kalimasining "loy" ma'nosini anglatgan **bal** so'zidan hosil bo'lgani haqidagi mulohaza taqdim etiladi [ESS, II, 99].

Kändning qaysi tilga oidligi xususida turli fikrlar mavjud. Masalan, ayrim manbalarda uning sug'd tiliga mansubligi qayd etiladi [Древнетюркский словарь 1969, 290; O'TIL 2006, II, 353; Дадабаев 1991; Қораев 2005, 36]. Mahmud Koshg'ariy esa bu haqda shunday yozadi: Butun Movarounnahr, Yankanddan Sharqqacha bo'lgan o'lkalarni turk shaharlaridan deb hisoblashning asosi shuki, Samarqand, Semizkänd, Taškänd – Šaš, Özkänd, Tünkänd nomlarining hammasi turkchadir. Känd turkcha shahar demakdir. Ular bu shaharni qurdilar va shunday nom qo'ydilar. Hozirgacha ham shunday kelmoqda. Bu yerlarda forslar ko'paygach, so'ng ular Ajam shaharlari kabi bo'lgan [III, 164]. Qayd etilgan ma'lumotlar Movarounnahrning sanab o'tilgan o'lkalari turklar tomonidan bunyod etilgani, keyinchalik bu yerlarda forsiyzabonlar nufuzining ham oshganligi, joy nomlarining esa forsha atab ketilganidan dalolat beradi [Содиқов 2006, 46].

Kul tigin yodnomasida *äl* so'zi "jamo'a, xalq", "davlat" ma'nolarida uchraydi: *Qağanın anta ölürtimiz älin altımız* – xoqonini o'shanda o'ldirdik, elini oldik; ällig bodun ärtim, älim amtı qanı - davlatli xalq edim, davlatim endi qani? [KTb, 9]. Shuningdek, ushbu so'z bitigtoshda ällädük (qurilgan davlat) kalimasi hamda *Äl bilgä qatun* (Kul tigin va Bilga xoqonning onasining ismi"; KTb, 11) antroponimining shakllanishida zamin vazifasini o'tagan: *türük bodun ällädük älin içğanu idmīs* – turk xalqi ushlab turgan davlatini qo'ldan chiqarib yuborgan (KTb, 6). Akademik Alibek Rustamovning

ta'kidicha, ällädük so'zi äl (davlat) + *lä* (la) + *dük* (gan)dan iborat bo'lib, aniq ma'nosi "davlat qilingan" dir. Älindagi -n tushum kelishigi qo'shimchasi, -i egalik affiksidi. Ällädük älin iborasida ishtiyoq san'ati bor [Рустамий 2022, 147].

Äl atamasi Tonyuquq bitigtoshida "xalq", "Irq bitig"da "qabilalar uyushmasi" semalarida kelgan [DTS, 168]. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonida "xalq" ma'nosini ifodalagan **el bodun, el kün, el kün bodun** juft so'zlari tarkibida kalimaning **el** fonetik varianti qo'llangan [DTS, 168]. Mahmud Koshg'ariy *el* leksemasiga "mamlakat, viloyat", "kelishuv, yarashuv": *iki beg birlä el boldi* – ikki bek bir-biri bilan yarashdi [MK, I, 83]; "hokimiyat" [MK, I, 83], "shahar" semalarini yuklagan: *el qaldä törü qalmas* – shahar (unitilar) tashlanar, rasm-rusum tashlanmas. Bu maqol odam urf-odlatga qarab ish qilishiga undab aytiladi [MK, II, 32]. Atama "Qisasi Rabg'uziy" asarida "el, xalq" [QR, 40r1], "davlat" [QR, 58r18], "bir qabila, qavmga mansub odamlar" [QR, 63v16], **el kün** juft so'zi esa "xalq" [QR, 63v3] ma'nolarini anglatgan. Tahlil qilinayotgan kalima eski turkiy til davri, ya'ni XI–XIV asrlarga kelib ma'no kengayishiga uchragan bo'lsa-da, Alisher Navoiy asarlarida uning "xalq, odamlar", "askar, lashkar" ma'nolariga guvoh bo'ldik [ANATIL, III, 562]. Bugun adabiy tilimizda "odamlar, xalq", "bir yurtga, qabilaga mansub kishilar", "mamlakat" semalari istifoda etiladi. So'zning "Devon"da kelgan "kelishuv, yarashuv" ma'nosi hozirda "do'st bo'lmoq, chiqishmoq" semasiga o'zgargan: *Tomchi sel bo'lmas, Dushman el bo'lmas* [O'TIL, V, 8-29]. Eski o'zbek tilidagi "askar, lashkar" ma'nosi esa iste'moldan chiqqan.

Kul tiginda **bodun** termini ham "oddiy xalq", "etnik jihatdan tarixiy birlik, muayyan xalq" ma'nosini bergan: *Tüük bāklār bodun bunī äsidiñ* – turk beklari, xalqi, buni eshiting [KTb, 10]; *Toqquz oğuz bodun kāntü bodunīm ārti* – To'qqiz o'g'uz xalqi o'z xalqim edi [KTb, 44]. Turfon matnlarida "aholi", "odamlar" semalarida aks etgan. Ushbu atama "Oltun yoruq" yodgorligida **bodun buqun, bodun qara** juft so'zlari tarkibida kelib "aholi", "el, xalq" ma'nolarini ifodalagan [DTS, 108]. "Devonu lug'otit turk" asarida **bodun** etnonimi "xalq" ma'nosida ishlatilgan [MK, I, 170]. Uning **bozun** varianti "el-yurt, olam", "jamo'a" [MK, III, 88], chigillar tilida "xalq, omma" [MK, I, 379; 433] ma'nolarini, **z** harfini **y** undoshiga almashtiradiganlar tilida **boyun** fonetik shakli "jamo'a" semasini bildirgan:

Körklüg tonuğ özünä,

Tatliğ ašig azinqa.

Tutğil qonuuq ağırlıg,

Yazsun yaviŷ bozunqa – Chiroyli toʻningni oʻzing kiy, shirin taomlar -ingni boshqalarga tut, mehmondoʻst boʻl, toki shuhrating olam (el-yurt)ga [MK, I, 80]. XIII asr oxiri – XIV asr birinchi yarmida yashagan Nosiruddin Rabgʻuziy *bozun* soʻzidan “qavm” [QR, 58v21], “xalq” [QR, 32r17], “odamlar” [QR, 58r19] kabi semalarni ochib berishda foydalangan. Mazkur atama keyingi davr manbalarida qayd etilmasa-da, *bodun* bugungi kunda **Budunov, Budunova, Bodunov, Bodunova** singari ruscha familiyalar asosida saqlanib qolgan. *Bodun-bozun-boyunning* kelib chiqishi xususida shuni aytish mumkinki, etnonim Toʻnyuquq va Moʻyun chur yodnomalarida “qabila, urugʻ” maʼnosini anglatgan **bod** soʻzidan yasalgan [DTS, 107].

Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” dostonida “xon qarorgohi, saroy” [DTS, 370] maʼnosidagi **ordu** atamasi birichi bor Kul tigin bitigtoshida qayd etilgan: *oʻguz yaŷi orduŷ basdi* – oʻgʻuz dushman oʻrdani bosdi. Koʻk turk xatida yaxlit kitob holida saqlangan “Irq bitig”ida ham zikr etilgan maʼno istifoda qilingan [DTS, 370]. Mahmud Koshgʻariy lugʻatida bu soʻzning “xon qarorgohi, saroy” [MK, I, 145], “shahar” semalari borligi koʻrsatib oʻtilgan: *beg bir erig ordulandi* – bek bir yerni oʻziga shahar qildirdi [MK, I, 291]. Shu bilan birga, “Devon”da uning toponim va antroponim sifatida qoʻllanishi ham tilga olingan. Yaʼni: *ordu* – Balasogʻun yaqinidagi bir shahar; *Ordu känd* – Qashqar; *ordu basī* – shohlar xizmatidagilarning ismi [MK, I, 145]. Eski oʻzbek tilida mazkur kalima qarorgoh, qoʻshin, askar turadigan lagerga nisbatan qoʻllangan [ANATIL, III, 611]. “Boburnoma” asarida “xon qarorgohi, saroy”, “qoʻshin tushgan joy, lager”, “shahar”, “joy nomi”, “kishi ismi” kabi semalarda kelgan [BN, 73, 79, 98, 106, 335]. Professor Q. Sodiqovning eʼtiroficha, *ordu* soʻzi bugungi kunda ayrim otlarda uchrab turadi. Jumladan, hozirda Pokistonning davlat tili boʻlgan *urdu tili* eski oʻzbek tilidagi *ordu* kalimasidandir. Bu atama boburiylar zamonida “oʻrda tili, saroy tili” degan maʼnoni anglatib, keyinchalik butun bir xalqning yozma adabiy tiliga aylangan. Mirzo Gʻolib ana shu tilda irod qilgan. Yoki Toshkent shahrining qoq oʻrtasida *Oʻrda* degan joy bor. Qachonlardir bu yerda xon oʻrdasi joylashgan edi, *Oʻrda* oti oʻshandan qolgan [Содиқов 2020, 127].

Professor Sh. Rahmatullayev fikricha, *Ordu-orda* qadimgi turkiy tilda “tepaga harakatlan” maʼnosini anglatgan *or-* feʼli bilan *-(u)t* orttirma daraja qoʻshimchasi va *-u* affiksidan hosil boʻlgan [ESTYa, I, 432], keyinchalik ikkinchi boʻgʻindagi tor unli talaffuz qilinmay qoʻygan; *t* undoshi *r* undoshining taʼsirida jaranglisiga,

soʻz oxiridagi *u* unlisi ä unlisiga almashgan: (*or-* = *ut* = *orut*) + *u* = *orutu* > *ortu* > *ordu* > *ordä*. [OʻTEL, I, 486]. Bizning mulohazamizga koʻra atama “tepalik” maʼnosini bergan qadimgi **or** soʻzidan yuzaga kelgan, yaʼni balandlikka qurilgan qarorgoh.

Tamga soʻzi rus tilida “belgi”, “muhr”, “savdo boji” maʼnolarini ifodalaydi. XIII asrda rus tiliga oʻzlashgan **tamgʻa** atamasi diplomatik aloqalarda faol qoʻllangan. Mahmud Koshgʻariy lugʻatida shoh va boshqalarning tamgʻasi, muhri sifatida izohlangan [DLT, I, 400]. Turfon matnlarida bu soʻz “muhr”, “belgi” maʼnolarida uchraydi [DTS, 530]. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da leksemaning quyidagi semalari keltirib oʻtilgan: “narsa, mol, mahsulot va shu kabilarni ajratish, hisobga olish yoki ularning kimga tegishliligini koʻrsatish uchun qoʻyiladigan, bosiladigan belgi”; “qadimda mahbuslarning tanasiga belgi qoʻyish, bosish uchun qizdirib ishlatilgan asbob va shu asbobni bosishdan hosil boʻladigan belgi, iz”; “ot, mol kabilarning tanasiga yoki tana aʼzolaridan biriga belgi bosish uchun qizdirib ishlatiladigan asbob va shu asbobni bosishdan qoladigan belgi, iz”; “ochish, buzishga qarshi qoʻyiladigan belgili narsa, surgʻuch”; “**gerb**”; *KOʻCHMA* “nimadandir qolgan, uning belgisi boʻlgan narsa, asar, iz”; *KOʻCHMA* “qilmish, xatti-harakatga koʻra taqilgan yorliq, belgi [OʻTIL, III, 706]. Istiloh “bogʻla-, yopishtir-” maʼnosidagi **taq**- feʼlidan **-ma** qoʻshimchasi bilan yasalgan [OʻTEL, I, 320].

Kul tigin bitigtoshi va “Qutadgʻu bilig” asarida [DTS, 530] oʻrganilayotgan soʻz yasalgan **tamgʻači** termini kuzatiladi. U alohida saroy lavozimlaridan boʻlib, “tamgʻani qoʻriqlovchi shaxs, muhrdor” maʼnosini anglatadi: *Oʻguz Bilgä tamgʻači kälti* -Oʻgʻuz Bilga tamgʻachi keldi [KTb, 53].

Rus tilidagi “boj olinadigan joy, idora, post” maʼnosini bildiruvchi **tamojnya** soʻzi tarkibida ham **tamgʻa** asosi yotadi. Bugungi kunda tilimizga “bojxona” tariqasida oʻgirilayotgan ushbu leksema qadimiy tarixga ega boʻlib, uning shakllanishi turk xoqonligi davriga borib taqaladi. Turk xoqonligi bosib olgan hudud mollarini oʻz mamlakatlari kirgizar ekan, oʻzga davlatdan keltirilgan barcha xomashyoga oʻzlarining muhri, tamgʻasini bosishgan. Bu ishni chegarada amalga oshirgan. Hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan “tamojnya”ning vazifasi ham mamlakatlar oʻrtasidagi tovar-mol oʻtkazmalari bilan bogʻliq.

Törü leksemasi Kul tigin yodnomasida “rasm-rusum”, “tartib-qoida”, “hokimiyat” semalarini ifodalagan: *...türük bodunin älin törüsün tuta bärmis* – turk xalqining davlatini, rasm-rusumini tutib turgan [lar] [KTb, 1]; *...ačum apam törüsünčä yaratmīs* – ota-

bobolarim qonun-qoidalari bo'yicha tashkil qilibdi [KTb, 13]; ...*qağan ālin törüsin anča qazğanti* – xoqon davlatini, hokimiyatini shu xilda qozondi [KTb, 31]. Bilga hoqon bitigtoshi, Turfon matnlari va «Oltun yoruq» yodgorligida “urf-odat”, “tartib-qoida”, “to’y bazmi” ma’nolarida kelgan: *Türgäs qağanıñ qızın ärtänü uluğ törün oğlıma alıp bārtim* – Turgash xoqonning qizini katta to’y qilib og’lima olib berdim [DTS, 581]. Yusuf Xos Hojib “qonun-qoida” ma’nosini atamaning **törä** varianti hamda **törä toqa**, **törü toqa** so’zlariga yuklagan [DTS, 580]. “Devonu lug’otit turk”da *törü* “rasm, odat”, “insof, adolat” semalarini anglatgan: *äl qalip törü qalmas* – mamlakat tashlanadi-yu, odat tashlanmaydi [MK, III, 240]; *Küç aldın kirsä, törü tünlüktän čiqar* – zulm eshikdan kirsä, insof, adolat tuynukdan chiqadi [MK, II, 25]. Rabg’uziy qissasi tilida esa *törä* fonetik shakli «urf-odat», «qonun-qoida» semalarini bildirgan: *Bu qonuq tutmaq töräsini xalqqa qođğan İbrāhim* [QR, 37v14]; *Aydi: elčini öldürmək pādšāhlar töräsi ermäs* [QR, 230r20]. Bu leksemaning “Xazoyin ulmaoniy” devonida kuzatilishi uning eski o’zbek tilida ham istifoda etilganini ko’rsatadi:

*Törä birlä baš urub tut xanğa,
Sarqutın ber meni besāmānğa* [ANATIL, III, 270].

Hozirda mazkur so’z *ko’chma ma’noda* to’ra (rasmiyatchi), to’ralarcha (rasmیاتparastlarga xos ravishda), to’rachilik (ishga rasmiyatchilik bilan qarash) kabi atamalar tarkibida saqlanib qolgan [O’TIL, IV, 258].

Qağan so’zi Kul tigin bitigtoshida “hukmdor, davlat boshlig’i” ma’nosida, shuningdek, kishi ismlari tarkibida qayd etilgan: *Tāñri yarlıqaduqın üçün özüm qutım bar üçün qağan olurtum* – Tangri yorlaqagani uchun, baxtim borligi uchun xoqon bo’ldim [KTb, 9]; *Bilgä qağan, Baz qağan, Bumın qağan*. Ayni paytda, yodnomada kalima **qağanliğ** (xoqonli), **qağansıra** (hukmdorini yo’qotmoq) kabi leksemalarning yasalishida o’zak sifatida ishtirok etgan. Atama Turfon matnlarida **qağan qan** (oliy hukmdor) juft so’zining yuzaga kelishiga asos vazifasini o’tagan bo’lsa, “O’g’uznoma” dostonida o’zining dastlabki shakli va ma’nosida kelgan [DTS, 405]. Eski turkiy tilning dastlabki manbalarida *xağan* [MK, III, 172], *xan* [DTS, 636] fonetik variantlari uchraydi: *xan süsin qurdi* – shoh askarini to’pladi, tartibga soldi [MK, II, 14]. Demak, ma’lum bo’ladiki, **q** undoshining **x** tovushiga o’tishi hodisasi XI asrda yuz bergan.

Xan istilohi To’nyuquq bitigtoshida **qan** shaklida «hukmdor», “Oltun yoruq” asarida «yo’lboshchi, boshliq» ma’nolarini anglatgan:

Tāñri anča temiş erinč, qan bertim, qannñ qodup içikdiñä – Tangri shunday dedi: men senga xon berdim, sen esa o‘z xoningni tashlab, o‘zgaga bo‘ysunding; *Ötrü tññri qanñ Xormuzta tññri tññrisi Burxanqa inča tep ötüg ötünti* – Shundan keyin ma‘budalar yo‘lboshchisi tangri Xurmuzta tangrilar tangrisi Burxandan iltimos qildi [DTS, 417]. O‘rganilayotgan atama «Qutadg‘u bilig» hamda «Devon»da o‘zining asl ma‘nosida ishlatilgan: *Bu Tawğaç Qara Buğra xanlar xanñ* [DTS, 636]; *Xandan basut* (yordam) *tilärlär* [I, 427]. Bu so‘z Alisher Navoiy asarlarida ham ayni semada qo‘llangan: *Māil qildī burun Xitā xanī bay’ qılmaq berib bahā anī* [III, 412]. Mahmud Koshg‘ariy **xan** so‘zini quyidagicha izohlaydi: *Afrosiyobning bolalari ham xon deb yuritiladi. Afrosiyob xoqondir. Bu nom bilan atalish voqeasi haqida uzun hikoya bor* [MK, III, 172]. L. Budagov lug‘atida **qan** mo‘g‘ulcha **qaan** so‘zining qisqargan shakli sifatida qayd etiladi [SSTTN, I, 527]. Ayrim turkologlar atama **qağan** leksemasining qisqarishi natijasida yuzaga kelgan degan fikrni ilgari suradi [Бартольд 1963, 604; Баскаков 1976, 226]. Shuningdek, mazkur leksema xitoy tilidagi ke «buyuk, ulug‘» +kuan «hukmdor» terminidan olinganligi haqida ham ko‘z qarash mavjud [Дадабоев, Хамидов, Холманова 2007, 34; Менгес 1979, 110-111; Баскаков 1976, 225; Немец 1976, 299].

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da **tarxan** – soliqdan va har qanday majburiyatlardan ozod qilingan; imtiyozli, daxlsiz (qabila, urug‘, zot yoki mansabdor) tarzida ta‘riflanib, mo‘g‘ulchaga nisbat berilgan. Ushbu atama turkiy bo‘lib, dastlab Kul tigin yodnomasida **tarqat** (bu yerda **-t** ko‘plik qo‘shimchasi hisoblanadi) shaklida unvonni ifodalab, ko‘plik tarzida tarxonlarga nisbatan qo‘llangan: *yïrya tarqat buyruq bäglär* – chapdagi tarxonlar, buyruq-vazir beklar [KTb, 1]. Moniy yozuvi yodgorliklarida *tarqan* so‘zining fonetik varianti kelgan bo‘lsa, Tonyuquq bitigida **apa tarqan** birikmasi bosh qo‘mondonga nisbatan ishlatilgan [DTS, 538]. “Devonu lug‘otit turk” asarida *tarxan* “bek”ni anglatgan. Ayni paytda, Mahmud Koshg‘ariy uning islomiyatdan oldin arg‘ular tilida kishi ismi sifatida qo‘llanganini uqtirib o‘tadi [MK, I, 409]. Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarida quyidagi qaydlarni o‘qiymiz: *Bu ikkisini tarxon qildi. Tarxonning ma‘nosi bu turur kim, ul kishidin hech nimarsa olmag‘aylar. Har qachon xon eshikina kelsa hech kishi man’ qilmag‘ay, o‘zi kirgay va o‘zi chiqq‘ay. Agar gunoh ish qilsa, to‘qquzg‘acha so‘rmag‘aylar. Andin so‘ng so‘rg‘aylar. To to‘qquz orqa bo‘lg‘uncha shundoq bo‘lg‘ay* [SHT, 41]. Leksemaning *darxon* fonetik varianti xalq og‘zaki ijodi, dostonlarda qo‘llanishda

bo'lganini ko'ramiz: *Endi senga timsol aytay bir alvon, Men ketgancha, o'zing Chambilda darxon*. "Malikayi ayyor" [O'TIL, I, 234].

Yenisey bitiglarida "mohir mergan"ni bildirgan **alp** so'zi Kul tigin yodnomasida "jasur, qo'rqmas", "qahramon" semalarida, uning **alpağu** shakli esa "qahramon" ma'nosida qo'llangan: *bilgä qağan ärmis alp qağan ärmis* – dono xoqon ermish, jasur xoqon ekan [KTb, 3]; *alp är biziñä tägmiş ärti* – alp er bizga hujum qilgan edi [KTb, 3]; *bir oğuş alpağu on ärig Toña tägin yoğinta ägirib olurtimiz* – bir qavm qahramon o'n erni To'nga tegin azasida qurshab olib o'ldirdik [KTb, 47]. Alp Turfon matnlarida "qahramon", moniy yozuv yodgorliklarida "jasur, mard", "jasorat, jur'at" semalarida kelgan: *Alpın erdämin el tutmiş* – davlatning qoidasi mardlik va jasorat bilan [DTS, 36]. Mahmud Koshg'ariyning lug'atida quyidagi ma'nolarda ishlatilgan:

- 1) "qahramon" [MK, I, 77];
- 2) "jasur, botir" [MK, I, 192];
- 3) "kishi ismi": *Alp Er Toña, Alp tegin* [MK, I, 77; MK, I, 391].

"Tafsir", Mahmud ibn Saroyining "Nahjul farodis" hamda "Qisasi Rabg'uziy" asarlarida atamaning faqatgina "qahramon" ma'nosi ko'zga tashlanadi: *Omär... är ärdi yüräklig ayyar alp ärdi* [26b7]; *Meni alp bahätur tesünlär* [NF, 203b8]; *Alp yüräklik küçüñä küwänür erdi* [QR, 61v14]. Tahlillar natijasida shu narsa oydinlashdiki, keyingi davrlarga kelib, leksemaning "qahramon" semasi saqlanib qolgan. Dastlabki hamda hosila ma'nolar esa iste'moldan chiqib ketgan. Bu termin eski o'zbek tili manbalari, ya'ni Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarayi turk" asarida *Alpxan* [SHT, 68] antroponimi, hozirda xalq og'zaki ijodi namunalari, maqol va dostonlarda, shuningdek, *Alpon, Alpomish* kabi kishi ismlari asosida saqlanib qolgan.

"Devonu lug'otit turk"da Kul tigin bitigtoshida keltirib o'tilgan *alpağuning alpağut* [QR, 132r1] fonetik varianti "botirlar" ma'nosida voqelangan:

Buzraj yämä qudurdi,

Alpağutın azurdi – Yaboqular boshlig'i Buzraj yana quturdi, botirlarini tanlab oldi [MK, I, 161]. Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida *alpağut* botir, jasurga nisbatan ishlatilgan, ya'ni birlikda qo'llangan. Aslida *alpağut* so'zidagi **-t** qo'shimchasi ko'plikni ifodalaydi. Anglashiladiki, XIV asrga kelib ushbu affiks o'z xususiyatini yo'qotib, o'zakning tarkibiga singib ketgan.

Kul tigin yodnomasida "tilla" ma'nosi **altun** atamasi yordamida berilgan: *Altun kümüş kergäksiz kälürti* – oltin, kumush

ortiqcha keltirdi [KTb, 52]. Eski turkiy tilning ilk yodnomalaridan sanalgan “Devon”da “tilla” [MK, I,142]; “tilla tanga”: *Ol meniñ birlä bir altunda ağışdı* – narxni bir oltinga oshirish uchun u men bilan bahslashdi [MK,I, 194]; “pok,qimmatli” [ko’chma; MK,I, 101] semalari aks etgan. “Tafsir” va XIV asr Xorazm manbalarida so’zning dastlabki ikki semasi qo’llanishda bo’lgan: *Biz sänkä üküş mäl beräliñ altun kümüş... tedilär* [139b13]; *Miñ alltunı bar ärdi* [136b10]; *Taş ornığa tapğaysen altun* [XSh,11a6]; *Yana miñ altun čiqardı* [NF,213a14]. “Qisasi Rabg’uziy” obidasida leksema quyidagi ma’nolarni kasb etgan: a) “tilla”: *Taqı xazinada ne kim altun, kümüş bar erdi barčasın qačirlarğa yüklätip čiqartdı* (109v18); b) “tilla tanga, pul”: *...Taqı yüz miñ altun keltürgil* (46v16); v) “tilla bilan qoplangan”: *Altun birlä bezäklük özi taxt üzä olturur* (125v9). Eski o’zbek tilida atamaning “oltin”, “tilla tanga, pul birligi”, “qimmatbaho, bebaho”singari semalari qo’llanishda bo’lganini “Vaqfiya”, “Munshaot” asarlaridan bilib olish mumkin: *Tabaqčığa yilliq naqda ikki yüz altun; Safar korai gudāz va sözdür va ul gudāz va söz erniñ vujudı altunığa iyārandozdur* [ANATIL, II, 519]. Ko’rinadiki, *altun* so’zining “tilla” sememasi denotativ sema sanaladi, chunki qolgan ma’nolar undan o’sib chiqqan. Sevortyanning fikricha, **altun** – **altın** qo’shma so’z bo’lib, **al** “qizil”, **tun** (<**tonj**, **ton**) “mis” so’zlarining birikishidan hosil bo’lgan [ESS, I, 142].

Turfon matnlarida “yo’qsil, bechora odam” [DTS, 147] ma’nosida ishlatilgan čığay Kul tigin bitigtoshida čığany shaklida ikki semani ifodalash uchun xizmat qilgan: “kambag’al”: *yoq čığany bodunuğ qop qoburtdim* – yo’q, qashshoq xalqni yaxshilab oyoqqa turg’azdim [KTb, 10]; “qashshoq odam”: čığanyığ bay qilti – kambag’alni boy qildi [KTb, 16]. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asarida čığay “yo’qsil, bechora odam”, “kambag’allik” ma’nolarida kelgan: *Qamuğ ezgü esiz čığay baylıqım bayatdın körür men* - ko’rgan hamma yaxshilik va yomonliklarimni, faqirlik va boyligimni tangridan deb bilaman [DTS, 147]. “Devonu lug’otit turk”da čığan va čığay fonetik shakllari istifoda etilgan: turklar kambag’alni čığay desalar, arg’ular čığan deytilar [MK, I, 67]; *Köñül kimiñ bolsa qalı, Qılsa küčün bolmas anı toq bay* – ko’ngli och, yo’qsul bo’lgan kishini kuch bilan to’q, boy qilish mumkin emas [MK, III, 257]. Čığayning XIV asr va eski o’zbek tilida iste’molda bo’lganini Rabg’uziy [QR, 128v21] va Alisher Navoiy asarlaridan bilib olish mumkin:

Tindurur bayu čığaynnı hākimi ravšan zamir,

Yarutur ābād ilā vayrānanı mehri munir [ANATIL, III, 472].

XIV asr manbasi sanalgan Rabg’uziyning “Qisasi Rabg’uziy”

asarida ishlatilgan **qul** (qul, xizmatkor; 76v5), **kün** (cho'ri, joriya; 41r1) so'zlari dastavval Kul tigin yodnomasida uchraydi: *bāglik urī oğluñ qul bolti, silik qiz oğluñ kün bolti* – bek bo'ladigan o'g'il bolang qul bo'ldi, yetuk, chiroyli qiz farzanding cho'ri bo'ldi [KTb, 24]. Shu bilan birga, har ikkala atama bitigtoshda **qulad-** (qulga aylantirmoq), **künäd-** (joriyaga aylantirmoq) fe'llarining shakllanishiga asos bo'lgan: *qağansīramīs bodunuğ, künädmis, quladmīs bodunuğ* – xoqonini yo'qotgan xalqni, cho'riga aylangan, qulga aylangan xalqni [KTb, 13]. Mahmud Koshg'ariy *kün*ni o'zining dastlabki ma'nosida qo'llagan bo'lsa, *qulga* esa "qul" [MK, I, 324], "keksa", "qul, banda" ma'nolarini yuklagan va buni misollar bilan dalillagan: *qul sawi qalmas* – keksalarning so'zi, nasihati bekor ketmaydi [MK, I, 387]; *qul tañrigä bütti* – qul, banda xudoning borligiga iqror bo'ldi [MK, II, 339]. *Kün* eski o'zbek adabiy tilida ishlatilmasa-da, *qul* "qul", "mute bo'lmoq, boylik ketidan quvmoq", "qul, banda" semalarida qo'llanishda davom etgan [ANATIL, IV, 75].

Arqış Kul tigin bitigtoshida "karvon", Turfon matnlarida "xabarchi, chopar" semalarida qo'llanishda bo'lgan: *...arqış tirkiş isar* – karvon yuborib turilsa [KTb, 8]; *Ötrü ol arqış...* – so'ngra ul xabarchi... [DTS, 54]. "Qutadg'u bilig" asarida dastlabki ma'no uchraydi: *Azun teziginür eldä arqış yurip* – karvonlar ellarda yurib jahon kezaдилar [DTS, 54]. "Devonu lug'otit turk" asarida "karvon", "chopar", "maktub, noma" ma'nolarini ifodalagan: *Yıraq yer sawin arqışi keltürür* – uzoq yer xabarini karvon keltirar [MK, I, 122]; *Aniñ arqışı keldi* – uning chopari keldi [MK, I, 123]; "Qisasi Rabg'uziy"da tekshirilayotgan so'zning dastlabki ma'nosi kuzatiladi: *Malik Za'r qopdi, arqış ara kirdi on säkiz Misr yarmaqi buldi* [QR, 73r13]. Shu bilan birga, qissada forsha **karwān** sinonimi ham uchraydi: *Mavlā ta'alā yarligi birlä yel qopti karvān yol yitürdi* [QR, 74r2]. Mazkur o'zlashma birinchi marta "Qutadg'u bilig" asarida keltirilgan: *Yeti aflāk karvāni* [DTS, 289]. Alisher Navoiy asarlarida *arqış* qo'llanmasa-da, *karwān* leksemasi faol ishtirok etgan:

Xojaning bo'yla ibtilosi chog'i,

Ko'runub karvon qarosi dog'i (ANATIL, II, 98).

Ma'lum bo'ladiki, XV asrga kelib *arqış* atamasi iste'moldan chiqqan, uning o'rnini esa *karwān* o'zlashmasi egallagan.

Kor (ye) oti "ish, mehnat, vazifa" kabi ma'nolarni anglatadi. Ushbu so'z tarkibidagi *o* tovushi o'zbek tilida *a* tovushiga almashtirilgan. **Karwān** so'zidagi ikkinchi qism "kuzatuvchi" ma'nosini bildiradigan *-bon* qo'shimchasi bo'lib, tojik tilida bu qo'shimcha tarkibidagi *b* tovushi *v* tovushiga almashtirilgan; o'zbek

tiliga shu shaklida olingan. Asli “boshqaruvchi kishi” ma’nosini ifodalagan bu ot keyinchalik “uzoq yerlarga yuk tashuvchi tuyalar va ularga qaraydigan shaxslar” ma’nosini anglatadigan bo’lgan [O’TEL, III, 119].

Xulosa

Kul tigin bitigi tilida ijtimoiy-siyosiy leksikaga oid lug’aviy birliklar salmoqli o’rin tutib, ularda o’sha davr xalqining turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy hayoti, davlat tutumi, boshqaruv tizimi o’z aksini topgan. Qolaversa, voqealar rivoji, davri, siyosiy jarayonlar, madaniy-maishiy hayotdagi o’zgarishlarga, shuningdek, davlatchilik asoslari va tarixiy manbalarga, so’zlarning kontekstdagi ma’nolariga alohida e’tibor qaratish mazkur soha leksikasi semantik taraqqiyotini aniqlashda muhimdir. Shu nuqtayi nazardan, tahlil natijalari o’laroq, quyidagilarni aytish mumkin:

birinchidan, Kul tigin bitigida qo’llangan ijtimoiy-siyosiy leksik birliklarning ko’pchiligi monosemantik so’zlar hisoblanib, ko’p ma’noli kalimalar ham o’z o’rniga ega;

ikkinchidan, oradan qariyb o’n uch asr vaqt o’tishiga qaramasdan, ayrim so’zlar ayni shakl va ma’noda, ba’zilari juz’iy o’zgartirishlar bilan yetib kelgan, shuningdek, bugun o’zbek tili, qardosh turkiy tillar va o’zbek shevalarida qo’llanishda davom etayotgan atamalar ham yo’q emas;

uchinchidan, ko’hna so’zlarning tadqiq etilishi ularning qayta tiklanishini, monografik tadqiqotlar hamda turli tarixiy va zamonaviy lug’atlardan joy olishini ta’minlaydi;

to’rtinchidan, muayyan istilohlar iste’moldan chiqqan, arxaik holatga ko’chgan, bu esa tabiiy jarayon. Qolaversa, ko’k turk yozuvi obidaları turkiy tillar tarixiy leksikologiyasini yaratishda, bu tillar uchun qadimda mushtarak bo’lgan xususiyatlarni belgilashda, ularning keyingi taraqqiyot bosqichlarini yoritishda, uni chuqur ilmiy tahlil qilishda qimmatli manba sanaladi.

Uzun so’zning qisqasi, ko’k turk manbalarida istifoda etilgan leksemalarni o’rganish ko’hna so’zlarning qo’llanish doirasi, ma’no ko’lamini aniqlash, qadimiy atamalarni tiklash barobarida bugungi globallashuv davrida chetdan kirib kelayotgan o’zlashmalarning o’zbekcha muqobillarini topishda ham katta o’rin tutadi.

Qisqartmalar, adabiyotlar

ANATIL – Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1983–1985. I-IV. Тошкент: Фан.

At-tuhfa – Изысканный дар тюркскому языку: Грамматический

- трактат XIV в на арабском языке.* 1978. Введение, лексико-грамматический очерк, перевод, грамматический указател. Э.И. Фазылова и М.Т. Зияевой. Ташкент.
- DTS – Древнетюркский словарь.* 1969. Ленинград: Наука.
- Jamoliddin Turkiy – Файзуллаева Ш.А.* 1969. *Исследование языка памятника XIV в. “Китабу булғат ал-муштақ фи луғат ат-турк ва-л қифчақ” Джамалад – Дина ат-Турки:* Дисс. канд. филол. наук. Ташкент.
- IRTLYA – Историческое развитие лексики тюрских языков.* 1961. Москва: Изд-во АН СССР.
- КТб – Рустамий А.* 2022. *Сайланма.* 2-жилд. Туркий тил махзани. Тошкент: Zilol buloq.
- МК – Маҳмуд Қошғарий.* 1960-1963. *Девону луғотит-турк.* Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. Т. I-III. Тошкент: Фан.
- NF – Нахджул – фарадис.* 1966-1971. Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. Т. I-II. Ташкент: Фан.
- RSL – Радлов В.В.* 1893-1911. *Опыт словаря тюркских наречий.* I-IV. СПб.
- Tafsir – Бороков А.К.* 1963. *Лексика среднеазиатского тевфсира XII–XIII ВВ.* Москва: Изд-во восточной лит-ры.
- To’n – Рустамий А.* 2022. *Сайланма.* 2-жилд. Туркий тил махзани. Тошкент: Zilol buloq.
- SHT – Абулғозий.* 1992. *Шажарайи турк.* Тошкент: Чўлпон.
- ESS – 1) Севортян Э.В.* 1974. *Этимологический словарь тюркских языков: Общетюркские и межтюркские основы на гласные.* Москва: Наука.
- 2) Севортян Э.В. 1978. *Этимологический словарь тюркских языков: Общетюркские и межтюркские основа на букву “Б”.* Москва: Наука.
- 3) Севортян Э.В. 1980. *Этимологические основы на буквы “В”, “Г”, “Д”.* Москва: Наука.
- O’I – Бегматов Э.* 2006-2008. *Ўзбек исмлари.* Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.
- O’TIL – Ўзбек тилининг изоҳли луғати.* 2007. I-V. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.
- O’XSHL – Ўзбек халқ шевалари луғати.* 1971. Тошкент: Фан.
- QR – 1) Рабғузий. Қиссаси Рабғузий.* 1990-1991. I-II Тошкент: Ёзувчи.
- 2) Nasirud-din bin burhayud-din din Rabquz. 1997. *Kisasul-Enbiya.* II. Dizin. Aysu Ata. Ankara.
- Бартольд, В. В.* 1963. *Сочинения.* Т. II. Ч. I. Москва.
- Баскаков, А. Н.* 1976. “Тюркимы-социальная терминология в “Слове о полку Игореве”. *Turkologica.* К 70 летию акад. А.Н. Кононова. Москва.
- Дадабоев, Ҳ., Ҳамидов, З., Холманова, З.* 2007. *Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи.* Тошкент: Фан.

- Дадабаев Х. 1991. *Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв.* Тошкент: Ёзувчи.
- Менгес, К. 1979. *Восточные элементы в «Слове о полку Игореве».* Ленинград.
- Немет, Ю. 1976. "К вопросу об аварях". *Turcologica*, 299.
- Содиқов, Қ. 2020. *Эски ўзбек адабий тили.* Тошкент: Akademnashr.
- Содиқов, Қ. 2006. *Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши.* ТошДШИ.
- Қораев, С. 2005. *Ўзбекистон вилоятлари топонимлари.* Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.

Socio-political vocabulary in the epitaph of Kul-tigin

Bakhtiyor Abdushukurov¹

Abstract

In this article, the semantics of socio-political lexical units campaigns are analyzed. These words had arisen as a result of social system, labor processes of society members, their mutual relations, active involvement in society affairs, international relations, military.

Social and political terms of Kultigin inscription are compared with the political terms used in such sources as Turfon texts, memoirs "Oltun yaruq", "Irq bitigi", also in the sources of old Turkish language such as "Qutadgu bilig", "Devonu lughotit turk", "Khibatul khakayik", "Qisasi Rabghuziy", as well as, with the political terms used in the old Uzbek literary language through samples of the Alisher Navoi's works, and the texts of "Boburnoma", "Shajarayi Turk".

As a result of this study, the process of the language development is described through change and transfer of these terms to the modern literary language; change of the status of the lexemes from high frequent one to archaic one being replaced with the borrowed lexeme, and the role of different factors in this change.

Key words: *language history, Turkic languages, runic inscriptions, lexical layer, Kul tigin, archaic notes, Turfon texts, written sources, internal*

¹ Bakhtiyor B. Abdushukurov – Doctor of Sciences in Philology, Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: abdushukurov@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-6964-0714

For citation: Abdushukurov, B. B. 2024. "Socio-political vocabulary in the epitaph of Kul-tigin". *Golden Scripts* 1: 143 – 158.

References

- ANATIL* – Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. I-IV. Toshkent: Fan, 1983-1985.
- At-tuhfa* – *Iziskanniy dar tyurkskomu yaziku: Grammaticheskij traktat XIV v na arabskom yazike*. 1978. Vvedenie, leksiko-grammaticheskij ocherk, perevod, grammaticheskij ukazatel. E.I. Fazilova i M.T. Ziyaevoy. Tashkent.
- DTS* – *Drevnetiyrurskiy slovar*. 1969. Leningrad: Nauka.
- Jamoliddin Turkiy – Fayzullaeva Sh.A. 1969. *Issledovanie yazika pamyatnika XIV v. "Kitabu bulg'at al-mushtaq fi lug'at at-turk va-l qifchaq"* Djamalad – Dina at-Turki: Diss.kand. filol.nauk. Tashkent.
- IRTLYA* – *Istoricheskoe razvitie leksiki tyurskix yazykov*. 1961. Moskva: Izd-vo AN SSR.
- KTb – Rustamiy A. 2022. *Saylanma*. 2-jild. *Turkiy til maxzani*. Toshkent: Zilol buloq.
- MK – Mahmud Qoshg'ariy. 1960-1963. *Devonu lug'otit-turk*. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M. Mutallibov. T. I-III. Toshkent: Fan.
- NF – *Naxdjul – faradis*. 1966-1971. Fazylov E. *Starouzbekskiy yazyk. Xorezmiyskie pamyatniki XIV veka*. T. I-II. Tashkent: Fan.
- RSL* – Radlov V.V. 1893-1911. *Opit slovary tyurkskix narechiy*. I-IV. SPB.
- Tafsir* – Borokov A.K. 1963. *Leksika sredneaziatskogo tefsira XII-XIII VV*. Moskva: Izd-vo vostochnoy lit-ry.
- To'n – Rustamiy A. 2022. *Saylanma*. 2-jild. *Turkiy til maxzani*. Toshkent: Zilol buloq.
- SHT* – Abulg'oziy. 1992. *Shajarayi turk*. Toshkent: Cho'lpon.
- ESS – 1) Sevortyan E. V. 1974. *Etimologicheskij slovar tyurkskix yazykov: Obshetyurkskie i mejtyurkskie osnovy na glasnye*. Moskva: Nauka.
- 2) Sevortyan E. V. 1978. *Etimologicheskie slovar tyurkskix yazykov: Obshetyurkskie i mejtyurkskie osnova na bukvu "B"*. Moskva: Nauka.
- 3) Sevortyan E.V. 1980. *Etimologicheskie osnovy na bukvy "V", "G", "D"*. Moskva: Nauka.
- O'I – Begmatov E. 2006-2008. *O'zbek ismlari*. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
- O'TIL* – *O'zbek tilining izohli lug'ati*. 2007. I-V. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
- O'XSHL* – *O'zbek xalq shevalari lug'ati*. 1971. Toshkent: Fan.
- QR – 1) Rabg'uziy. *Qissasi Rabg'uziy*. 1990-1991. I-II Toshkent: Yozuvchi.
- 2) Nasirud-din bin burhayud-din din Rabquz. 1997. *Kisasul-Enbiya*. II.

Dizin. Aysu Ata. Ankara.

Bartold, V.V. 1963. *Sochineniya*. T.II. Ch. I. Moskva.

Baskakov, A.N. 1976. "Tyurkimi-sotsialnaya terminologiya v "Slove o polku Igoreve". *Turkologica*. K 70 letiyu akad. A.N. Kononova. Moskva.

Dadaboev, H., Hamidov, Z., Xolmanova, Z. 2007. *O'zbek adabiy tili leksikasi tarixi*. Toshkent: Fan.

Dadabaev X. 1991. *Obshchestvenno-politicheskaya i sotsialno-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazichnix pismennix pamyatnikax XI-XIV vv.* Toshkent: Yozuvchi.

Menges, K. 1979. *Vostochnie elementi v «Slove o polku Igoreve»*. Leningrad.

Nemet, Y. 1976. "K voprosu ob avarax". *Turcologica*, 299.

Sodiqov, Q. 2020. *Eski o'zbek adabiy tili*. Toshkent: Akademnashr.

Sodiqov, Q. 2006. *Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi*. ToshDShI.

Qoraev, S. 2005. *O'zbekiston viloyatlari toponimlari*. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo’lyozma manbalar, xalq og’zaki ijodi namunalari bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo’ljallangan.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo’lyozmalar yil davomida o’zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o’z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo’lsa, unda qo’lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo’lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochta yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo’yicha MS Word menejerini qo’llash lozim.

Barcha qo’lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma’lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig’i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o’ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo’lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so’zdan iborat bo’lishi kerak.

100–150 so’zdan iborat o’zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so’zdan kam bo’lmagan kalit so’zlar (o’zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro’yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo’lishi mumkin) 1500 so’zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so’ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo’limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to’q bo’yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o’zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo’lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola sarlavhasidan keyin sahifaning o’ng chetida muallifning ism-familiyasi yozilib, oxiriga yulduzcha (*) ishorasi qo’yiladi va sahifa pastida muallif haqida quyidagi qisqa ma’lumotlar beriladi: F.I.O., ilmiy daraja va unvon; ish joyi; e-pochta va ORCID ID (raqami).

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.
Maqola bo'limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

7.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 131]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany: Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

7.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniy adabiyoti." *Oltin bitiglar* 1: 65 – 76.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi. Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?." *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. "Milliy qadriyat va globallashuv". *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "The Chicago Manual of Style, 16th Edition" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

IZOHLAR

Ushbu son “Oltin bitiglar” tahririyatida sahifalandi.
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib
ko'chasi 103-uy.
e-mail: oltinbitiglar@gmail.com
Tel.: +99894 697-97-04

Bosishga 30. 03. 2024-yilda ruxsat etildi
Qog'oz bichimi 70x100 1/16/.
nashriyot bosma tabog'i: 8

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot
va axborot agentligi tomonidan № 0940 raqami bilan ro'yxatdan
o'tgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi
tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan
doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi
lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga
qaytarilmaydi.

“Mashhur-Press” bosmaxonasida chop etildi.
Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.
Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.:
+99890 900 75 77,
+99894 659 94 62